

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**A.SH.GIYASOV, N.T.RAXMATULLAYEVA, L.S.RAXIMOVA**

**ANALITIK KIMYO VA FIZIK – KIMYOVIIY TAHLIL**

**O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi  
tomonidan texnika oily o'quv yurtlari bakalavriat talabalari uchun  
o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan**

**TOSHKENT -2019**

Giyasov A.Sh., Raxmatullayeva N.T., Raximova L.S. “Analitik kimyo va fizik – kimyoviy tahlil” masalalar to’plami. O’quv qo’llanma. - Toshkent: ToshDTU, 2019. 174 bet.

O’quv qo’llanma o’quv va ishchi dastur asosida yozilgan. Qo’llanmada keltirilgan namunaviy masalalar fanning asosiy b o’limlari b o’yicha sifat va miqdor tahlilning nazariyalari bilan tanishtiradi. Har xil kimyoviy hisoblash usullari amaliy va mustaqil ishni osonlashtiradi.

Har bir bobning boshida analitik kimyoning eng muhim tomonlari ko’rib chiqilgan, jarayonning eng muhim qonuniyatlarini e’tiborga olib, yo’naltiruvchi asosiy va qo’shimcha formulalari keltirilgan. Masalalar va ularning yechimi osondan qiyinga oshib borish tartibda joylashtirilgan. Umuman olganda qo’llanma analitik kimyoning asosiy materiallarini o’z ichiga qamrab olgan.

Ushbu qo’llanma Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti ilmiy-uslubiy kengashida muhokama qilindi va nashrga tavsiya etildi.

Taqrizchilar:

3.A.Сманова – Mirzo Ulug’bek nomidagi O’zbekiston milliy universiteti “Biokimyo” kafedrasи professori, kimyo fanlari doktori;

U.Mirzayev – Toshkent davlat texnika universiteti “Umumiyl kimyo” kafedrasи dosenti, kimyo fanlari nomzodi.

## Annotasiya

“Analitik kimyo va fizik – kimyoviy tahlil” fanidan namunaviy masalalar to’plami (o’quv qo’llanma).

O’quv qo’llanma o’quv va ishchi dastur asosida yozilgan. Qo’llanmada keltirilgan namunaviy masalalar fanning asosiy b o’limlari b o’yicha sifat va miqdor tahlilning nazariyalari bilan tanishtiradi. Har xil kimyoviy hisoblash usullari amaliy va mustaqil ishni osonlashtiradi.

Har bir bobning boshida analitik kimyoning eng muhim tomonlari ko’rib chiqilgan, jarayonning eng muhim qonuniyatlarini e’tiborga olib, yo’naltiruvchi asosiy va qo’shimcha formulalari keltirilgan. Masalalar va ularning yechimi osondan qiyinga oshib borish tartibda joylashtirilgan. Umuman olganda qo’llanma analitik kimyoning asosiy materiallarini o’z ichiga qamrab olgan.

## Аннотация

Сборник типовых задач по курсу «Аналитическая химия и физико-химический анализ» (учебное пособие).

Настоящее пособие написано на основе типовой и рабочей программы. В пособии даны различные типовые задачи для ознакомления по основным разделам теории качественного и количественного анализа. Различные способы химических вычислений облегчает практическую и самостоятельную работу.

В начале каждой главы кратко рассмотрены наиболее важные положения аналитической химии, приведены основы и производные формулы, даны общее методические рекомендации, направляющие внимание решающего на важнейшие закономерности данного процесса. Задачи и их решения располагаются в порядке возрастания трудности и наибольшего различия в методах решения.

## Annotation

Collection of typical tasks for the course "Analytical chemistry and physico-chemical analysis" (tutorial).

This present allowance is written on the basis of the standard and work program. The manual provides various typical tasks for familiarization with the main sections of the theory of qualitative and quantitative analysis. Various methods of chemical calculations facilitates practical and independent work.

At the beginning of each chapter, the most important provisions of analytical chemistry are briefly reviewed, the foundations and derivatives of the formulas are given, general guidelines are given that direct the critical attention to the most important regularities of this process. Tasks and their solutions are arranged in order of increasing difficulty and the greatest difference in methodical solutions.

## **So‘z boshi**

Ushbu o‘quv qo‘llanma «Analitik kimyo va fizik kimyoviy tahlil» fani bo‘yicha bo‘lib, pedagogik institutlari kimyo va biologiya fakul`tetlarining talabalariga mo‘ljallangan. Shuningdek, shu fanni o‘rganuvchi boshqa oliyohoh talabalari uchun ham foydali bo‘lishi mumkin, chunki bu qo‘llanma sifat va miqdor tahlilning asosiy nazariya va amaliy bo‘limlarini namunaviy masalalar yechish usullari orqali tanishtiradi.

Analitik kimyo bo‘yicha mavjud bo‘lgan masalalar to‘plamidan farq qilib, bu qo‘llanmada kislota-asos, cho‘ktirish, kompleks hosil qilish, oksidlanish-qaytarilish titrlash egri chiziqlari bo‘yicha masalalar keltirilgan. Shuningdek, tahlil natijalarini qayta ishslash bo‘yicha matematik statistikaning zamonaviy usullaridan ham foydalilanilgan.

Bu qo‘llanma 10 ta bobdan tashkil topgan bo‘lib, har bir bobning boshlanishida analitik kimyoning ma`lum mavzulariga qisqacha ta`rif berilgan va shu mavzularni yoritib berish uchun namunaviy masalalar keltirilgan. Masalalarni yechish tartibi oddiydan murakkabga qarab tuzilgan.

Ushbu qo‘llanmadagi namunaviy masalalar N.Ya.Loginov, N.N.Ushakov, G.F.Zdeshneva, N.A.Polyak, U.F.Pikkering, D.Skug, D.Uest va boshqa avtorlarning masala va mashq to‘plamlaridan olingan.

Avtorlar: Ushbu qo‘llanma bo‘yicha hamma kamchilik va takliflarini minnatdorchilik bilan qabul qiladi.

## I –bob. Tahlil natijalarini statistik qayta ishlashdagi xatoliklar va ularning usullari.

### 1.1. Tahlil natijalarini statistik qayta ishlashdagi xatoliklar va ularning klassifikasiyalanishi

Har qanday fizik o'lhashlar ayrim xatoliklarga yo'1 qo'yadi. Bunday xatoliklarni mutlaq yo'qotib bo'lmaydi, lekin ma'lum darajada kamaytirish mumkin. O'lhashdagi xatoliklarni aniqlash juda murakkab, chunki ularning manbalari ko'p va xilma-xildir.

Kimyoviy tahlilda paydo bo'lgan xatoliklarning kelib chiqishiga qarab ikki guruxga bo'lish mumkin.

- 1) *Sistematik xatolik*-bu o'lhashning to'g'rilingini xarakterlaydi va
- 2) *Tasodifyi xatolik*-olingen natijalarini aniqligini xarakterlaydi.

Sistematik xatoliklar quyidagi manbalardan kelib chiqadi:

a) Eksperimentatorning o'lhashidan kelib chiqqan individual xatolik: masalan, namunani noto'g'ri o'tkazish, cho'kmani yuvishda apparatning ko'rsatkichini noto'g'ri yozish, o'lchov asboblari uchun haroratni to'g'rilanmaganligi, rangni qiyinchilik bilan aniqlash va boshqalar kiradi.

b) o'lchov asboblaring xatoligi. Masalan, o'lchov idishlaririning hajmlari kalibrlangan hajmlardan farq qilishi.

c) usullarning xatoliklari.

Tasodifyi xatolik-birinchi o'lchov natijalari ikkinchi o'lchov natijalariga to'g'ri kelmaslikdan kelib chiqadi. O'lhash sonlarini ko'paytirish bilan tasodif xatoliklarni kamaytirish mumkin.

Xatoliklar o'z navbatida yana ikkiga bo'linadi:

- 1) *absolyut xatolik*;
- 2) *nisbiy xatolik*.

Absolyut xatolik- haqiqiy qiymatdan tajribada topilgan o'rtacha qiymat ayirmasiga aytildi va haqiqiy qiymat birligi bilan bir xil ifodalanadi.

Nisbiy xatolik- absolyut xatolik qiymatini haqiqiy qiymatga bo'lib 100 ga ko'paytiriladi va foizlarda ifodalanadi.

### 1.2. Analitik kimyo fanidan tahlildagi xatoliklar bo'yicha masala va mashqlar

#### 1-masala

Bariy xlorid tuzidagi kristallitzasion suvining haqiqiy foiz miqdori 14,75 % ga teng. Tahlilda 17,70 % topilgan. Tahlilning absolyut va nisbiy xatoligi hisoblansin.

Berilgan:  $q_T^1 = 14,75\% H_2O$ ;  $q_T^2 = 14,75\% H_2O$

Topish kerak:  $D_T = ?$ ;  $D_O = ?$

Yechish: Absolyut xatoni quyidagi formula bo'yicha aniqlaymiz:

$$D = q_T^1 - q_T^2 ;$$

$$D = 14,70 - 14,75 = -0,05\%$$

Nisbiy xato – bu absolyut xatoni suvning xaqiqiy miqdoriga bo`lib, 100% ga ko`paytiramiz, ya`ni

$$D_0 = \frac{D \cdot 100}{q_T^2} = \frac{-0,05 \cdot 100}{14,75} = 0,34\%$$

## 2-masala

$\text{CaCO}_3$  namunasidagi kal`sinyning miqdorini topish uchun, uni  $\text{HCl}$  da eritdik va 500 ml gacha suv bilan suyultirdik. Shu eritmaning har 50 ml da 400 mg kal`siy bo`lgan 6 ta alikvot qismga bo`lib, tahlil qilinganda quyidagi natijalar olindi: 398, 396, 398, 392, 393, 401 (mg da). Olingan natijalar asosida quyidagi kattaliklar hisoblansin: a) o`rtacha qiymat; b) eng katta va eng kichik qiymatlar farqi; d) namunadagi kal`sinyning miqdori absolyut va nisbiy chetga chiqish kattaligi; g) absolyut chetga chiqishi; e) kal`siy miqdorining alikvot qismdagi absolyut va nisbiy o`rtacha chetga chiqishi.

Berilgan:

$$\begin{aligned} V_O &= 500 \text{ ml}; V_1 = 50 \text{ ml}; n = 6; q_O = 400 \text{ mg Ca}; q_1 = 398; q_2 = 396; q_3 = 398; \\ q_4 &= 392; q_5 = 393; q_6 = 401 \text{ mg Ca} \end{aligned}$$

Topish kerak:  $\bar{q}, w, d_q, E_{q_i}, d_1, E_1, d^*, E^* = ?$

Yechish:

a) o`rtacha qiymatni quyidagi formula yordamida hisoblaymiz:

$$\bar{q} = \frac{q_1 + q_2 + q_3 + q_4 + q_5 + q_6}{n} = \frac{398 + 396 + 398 + 392 + 393 + 401}{6} \approx 396 \text{ mg Ca}$$

b) eng katta va eng kichik qiymatlar farqi quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$w = q_6 - q_4 = 401 - 392 = 9 \text{ mg Ca}$$

c) namunadagi kal`siy miqdorining absolyut va nisbiy chetga chiqish kattaligi quyidagi formulalar yordamida hisoblanadi:

$$\bar{d} = \frac{\sum (q_i - \bar{q})}{n}$$

$$Eq_i = \frac{\bar{d} \cdot 100}{\bar{q}}$$

$$\bar{d} = \frac{2 + 0 + 2 + 4 + 3 + 5}{6} = 2, \text{ mg Ca};$$

$$Eq_i = \frac{2,7 \cdot 100}{396} = 0,7\%$$

d) kal`siy miqdorining birinchi alikvot qismidagi absolyut chetga chiqish qiymati formula bo`yicha nisbiy chetga chiqish qiymati esa (b) punktdagi formula bo`yicha hisoblanadi:

$$\bar{d} = 396 - 398 = -2 \text{mgCa}; E_1 = \frac{-2 \cdot 100}{396} = -0,5\%$$

(d) kal'siy miqdorining alikvot qismdagi absolyut va nisbiy o'rtacha chetga chiqishi (g) punktdagiga o'xshash formulalar yordamida hisoblanadi:

$$d^* = \bar{q} - q_0;$$

$$E^* = \frac{d^* \cdot 100}{q_0};$$

$$d^* = 396 - 400 = -4 \text{mgCa};$$

$$E^* = \frac{-4 \cdot 100}{400} = -1\%$$

### 3-masala

Birlashgan spektrofotometrik aniqlashlar bo'yicha daryo suvi namunasidagi nitriluchsirka kislotasining (NUS) standart chetga chiqishi (S) hisoblansin.

Berilgan:

Namuna raqami	NUS, mkg/ml
1	13, 17, 14, 9
2	38, 37, 38
3	25, 29, 23, 29, 26

Topish kerak:  $S = ?$

Yechish:  $S$  ni topish uchun avval namunadagi har bir qator natijalar bo'yicha NUS ning o'rtacha arifmetik qiymatini ( $\bar{X}$ ) quyidagi formula yordamida hisoblaymiz:

$$\bar{X} = \frac{X_1 + X_2 + X_3 + \dots + X_n}{n}$$

So'ngra har bir qator bo'yicha spektrofotometrik aniqlashning o'rtacha qiymatidan chetga chiqishini  $d = |X_i - \bar{X}|$  formula bo'yicha aniqlaymiz. Shundan so'ng  $d^2$  va  $\sum d^2$  qiymatlarni hisoblaymiz. Olingan natijalar tushunarli bo'lishi uchun quyidagi jadvalga kiritamiz:

1.1.-jadval

Qator raqami (mo'l)	Parallel o'lchan soni (n)	O'lchanan NUS ning miqdori mkg/ml	$\bar{X}$	$d$	$d^2$	$\sum d^2$
1	4	13, 17, 14, 9	13,25	0,25 3,75 0,75 4,25	0,0625 14,0625 0,5625 18,0625	32,75

2	3	38, 37, 38	37,67	0,33 0,67 0,33	0,1089 0,4489 0,1089	0,6667
3	5	25, 29, 23, 29, 26	26,4	1,4 2,6 3,4 2,6 0,4	1,96 6,76 11,56 6,76 0,16	27,2

NUS ni birlashgan spektrofotometrik aniqlash bo'yicha standart chetga chiqishini quyidagi formula yordamida hisoblaymiz:

$$S = \sqrt{\frac{\sum d_2}{\sum n - m}} = \sqrt{\frac{32,75 + 0,6667 + 27,2}{12 - 3}} = \sqrt{6,735} = 2,595 \approx 2,6 \text{ mkg/ml}$$

#### 4-masala

Kerosin tarkibidagi oltingugurt aniqlanganda quyidagi natijalar olindi: 0,724; 0,693; 0,755% C. Ishonch imkoniyati 95% bo'lgan shu tahlil uchun ishonch chegarasi hisoblansin.

Berilgan:

$$m_1 = 0,724\%; m_2 = 0,693\%; m_3 = 0,755\%; \alpha = 95\%$$

$n = 3$ ; ( $t = 4,303$ ) Styudent koefissiyenti

Topish kerak:  $\Delta = ?$

Yechish: Ishonch oralig'ini (chegarasini) quyidagi formula  $\Delta = \bar{m} \pm \frac{t \cdot S}{\sqrt{n}}$  bo'yicha hisoblash uchun avval iflos namunali kerosin tarkibidagi oltingugurning o'rtacha miqdori ( $\bar{m}$ ) va standart chetga chiqishi ( $S$ )ni ushbu formulalar:  $\bar{m} = \frac{m_1 + m_2 + m_3}{n}$  va

$S = \sqrt{\frac{\sum (m_i - \bar{m})^2}{n-1}}$  yordamida aniqlaymiz. Tushuntirishda qulaylik bo'lishi uchun hamma matematik hisoblarni jadval ichiga kiritamiz.

1.2-jadval

No Tahlil soni	$S$ , %	$\bar{m}$ , % $S$ (oltingugurt)	$ m_i - \bar{m} $	$ m_i - \bar{m} ^2$
1	0,724	-	0	0
2	0,693	0,724	0,031	0,000961
3	0,755	-	0,031	0,000961

$$\Sigma |m_i - \bar{m}|^2 = 0,001922$$

$$\Delta = 0,724 \pm \frac{4,303 \cdot 0,031}{\sqrt{3}} = 0,724 \pm \frac{0,1334}{1,7321} = 0,724 \pm 0,077$$

yoki

$$0,65 < 0,72 < 0,80$$

## 5-masala

Talaba bitta namuna titrlab, kal`siy miqdorini kompleksionometrik aniqlaganda quyidagi qiymatlar (mg, Ca) olindi: 121,5; 122,0; 121,0. Kal`siyning namunadagi qiymati 124,0 mg ga teng. Olingan natija bo'yicha sistematik xatoga ega yoki ega emasligi aniqlansin.

Berilgan:

$$m_1 = 121,5 \text{ mg Ca}; m_2 = 122,0 \text{ mg Ca}; m_3 = 121,0 \text{ mg Ca}; m_0 = 124,0 \text{ mg Ca}; n = 3$$

$$(\alpha = 0,95 \text{ da } t = 4,303 \text{ ga teng})$$

Topish kerak:  $\Pi_c = ?$

Yechish: Tahlil natijalarni baholash uchun o'rtacha arifmetik qiymatni ( $X$ ) quyidagi formula yordamida hisoblaymiz:

$$\begin{aligned}\bar{X} &= \frac{m_1 + m_2 + m_3}{n} = \frac{\Sigma X_i}{n} \\ \bar{X} &= \frac{121,5 + 122,0 + 121,0}{3} = 121,5 \text{ mg Ca}\end{aligned}$$

O'rtacha arifmetik qiymatga nisbatan ( $\bar{X}$ ) standart chetga chiqishini ( $S$ ) quyidagi formula yordamida hisoblaymiz:

$$S = \sqrt{\frac{\sum_{i=1}^n (m_i - \bar{X})^2}{n-1}}$$

Son qiymatlarni quyidagi jadvaldan foydalanib, tenglamani echamiz:

1.3-jadval

$m_i$	$m_i - \bar{X}$	$(m_i - \bar{X})^2$
121,5	0	0
122,0	0,5	0,25
121,0	-0,5	0,25

$$\sum (m_i - \bar{X})^2 = 0,5$$

$$S = \sqrt{\frac{0,5}{2}} = 0,5 \text{ mg Ca}$$

$S$  - usulning tasodif xatosini xarakterlaydi

Tahlilning toǵrıligini baholash uchun o´tacha qiymatning ishonch oralig`ini hisoblash kerak bo`ladi:

$$\Delta \bar{X} = \frac{t \cdot S}{\sqrt{n}} = \frac{4,303 \cdot 0,5}{\sqrt{3}} = 1,24$$

O´tacha qiymat uchun  $(\bar{X})$  ishonch oralig`ini quyidagi formula yordamida hisoblaymiz:

$$(\bar{X}) \pm \Delta \bar{X} = 121,5 \pm 1,24 \text{ mg Ca}$$

Bundan shu narsa koŕinib turibdiki,  $121,5+1,24=124,0$  va  $121,5-1,24=124,0$ . Demak, bundan shuni xulosa qilish mumkinki, talaba sistematik xatoga yo`l qo'ygan.

## **II – bob. Analitik reaksiyalarining sezgirligi, tanlovchanligi, selektivligi. Analitik reaksiyalarning sezgirligi**

Sezgir analitik reaksiyalar bilan tekshirilayotgan namunadagi ayrim ionlarni aniqlashda ishonchli natijalar olish mumkin. Sezgirlik analitik reaksiyalarning eng muhim kattaliklardan biri hisobalanadi. Ilmiy-texnik jarayonlarni rivojlantirish uchun yuqori va o`ta yuqori bo`lgan toza materiallardan foydalilanadi. Bunday materiallarning tahlilda sezgir va yuqorisezgir analitik reaksiyalar qo'llaniladi.

Analitik reaksiyalarning sezgirligi bir-biri bilan bog`langan uchta kattalik bilan ifodalanadi: bu kattaliklar topilish minimumi (yoki chegaraviy topilishi)  $m$ , chegaraviy konsentrasiya (yoki minimal konsentrasiya)  $C_{\min}$ , suyultirish chegarasi  $V_{\text{suyul}}$  va suyultirilgan eritmaning minimal hajmi  $V_{\min}$  lardan iboratdair.

Topilish minimumi deb, ma`lum sharoitda, ma`lum reaktiv bilan tekshirilayotgan eritmadagi modda (yoki ion)ning eng kichik miqdoriga aytildi. Bu kattalik juda kichik bo`lib, mikrogrammlarda ifodalanadi:  $1 \text{ mkg} = 10^{-6} \text{ g} = 10^{-3} \text{ mg}$ : Masalan,  $\text{Cu}^{+2}$  ionining bir tomchisidan  $K_4[\text{Fe}(\text{CN})_6]$  reaktivi bilan topilish minimumi 0,02 mkg ga teng. Topilish minimumining qiymati qancha kichik bo`lsa, reaksiya shuncha sezgir hisoblanadi va tez boradi.

Chegaraviy yoki minimal konsentrasiya deb, topilishi kerak bo`lgan ionning 1 g massasini erituvchida maksimal suyultirilgan xajmiga bo`lgan nisbatiga aytildi va g/ml larda ifodalanadi. Masalan, mis ionining  $K_4[\text{Fe}(\text{CN})_6]$  bilan topishda minimal konsentrasiyasi 1:2 500000 ga teng. Bu kattalikdan shunday xulosa qilish mumkinki, tarkibida 1 g mis ioni bo`lgan 2 500 000 ml xajmdagi eritmaning 1 tomchisidan topish mumkinligini ko`rsatadi.

Suyultirish chegarasi deb, chegaraviy konsentrasiyaga teskari bo`lgan kattalikka aytildi. Bu kattalik necha millilitr eritmada 1 gramm aniqlanuvchi ion borligini ko`rsatadi va ml/g larda ifodalanadi.

I.M. Korenman va A.P. Kreshkovlar sezgirlik kattaliklarining bir-biriga bog'langan formulalarini ishlab chiqqan va bu formulalar quyidagilardan iborat:

$$m = C_{\min} \cdot V_{\min} \cdot 10^6, \text{ mkg}$$

yoki

$$m = \frac{V_{\min} \cdot 10^6}{V_{suyul}}, \text{ mkg}$$

$$C_{\min} = 1 : \frac{V_{\min} \cdot 10^6}{m} = \frac{m}{V_{\min} \cdot 10^6} = \frac{1}{V_{suyul}}, \text{ g / ml}$$

$$V_{\min} = \frac{m \cdot V_{suyul}}{10^6}, \text{ ml}$$

$$V_{suyul} = \frac{V_{\min} \cdot 10^6}{m}, \text{ ml}$$

Shunday qilib, topilish minimumi va minimal konsentrasiya qancha kichik bo'lsa va suyultirish chegarasi qancha katta bo'lsa, analitik reaksiyalarning sezgirliklari shuncha yuqori bo'ladi.

## 2.1. Tanlovchon (yoki spesifik) analitik reaksiyalar

Tarkibi murakkab bo'lgan eritmalaragi ionlarning bittasi yoki ikkitasi bilan reaksiyaga kirishuvchi reagent tanlovchan reagent deyiladi. Ionlarning tanlovchan reagentlar bilan boradigan reaksiyalarga tanlovchan reaksiyalar deyiladi. Agar tanlovchan reagent murakkab tarkibli eritmalaragi faqat bitta ion bilan reaksiyaga kirishsa, bunday reaksiyalarni spesifik (yoki selektiv) reaksiyalar deyiladi. Masalan, temir(II) ioni bilan  $K_3[Fe(CN)_6]$  orasidagi yoki ammoniy kationi bilan ishqor orasidagi reaksiyalar tanlovchan reaksiyalar hisoblanadi. Reagent qancha kam ion bilan reaksiyaga kirishsa, shu reagent shuncha tanlovchan hisoblanadi. Kationlarning sul`fidlar xossaliga asoslangan klassifikasiyasiga asosan  $(NH_4)_2CO_3$ ,  $(NH_4)_2S$ ,  $H_2S$  va  $HCl$  reagentlar gurux reagentlari hisoblanadi.

Gurux reagentlari ayni guruxdagi kationlarning hammasi bilan birday reaksiyaga kirishib, yoppasiga cho'kmaga tushiradi. Aniqlanuvchi ionni tegishli reagent bilan ochishda tashqi ionlarning konsentrasiyalari ta'sir etadi. Aniqlanuvchi ion konsentrasiyasini tashqi ion konsentrasiyasiga nisbatiga chegaraviy nisbat (CHN) deyiladi:

$$CHN = \frac{C_{anik.ion}}{C_{tashk.ion}}$$

CHN- bu aniqlanuvchi ionga nisbatan tashqi ionning qancha miqdori xalaqit etmasligini ko'rsatadi.

## 2.2. Analitik reaksiyalarning sezgirligi va tanlovchanligiga oid masalalar


### 1-masala

Ammoniy kationining Nessler reaktivini bilan topilish minimumi 0,25 mkg, tekshirilayotgan eritmaning minimal hajmi 5 ml. Shu reaksiya uchun suyultirish chegarasi hisoblansin.

Berilgan:  $m = 0,25 \cdot 10^{-6}$  g,  $V_{\min} = 5$  ml.

Topish kerak:  $V_{\text{suyul.}} = ?$

Yechish: Ammoniy kationining Nessler reaktivini bilan analitik reaksiyasi quyidagicha boradi.



Suyultirish chegarasi ko'rsatilgan analitik reaksiyalar uchun quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$V_{\text{suyul.}} = \frac{V_{\min} \cdot 10^6}{m}, \text{ mg/g}$$

Berilgan kattaliklarni formulaga qo'yib hisoblaymiz.

$$V_{\text{suyul.}} = \frac{5 \cdot 10^6}{0,25} = 20\ 000\ 000 = 2 \cdot 10^7 \text{ mg/l}$$

Demak, 1 g ammoniy kationining  $2 \cdot 10^7$  ml yoki 20 000 l suvdagi eritmasi 0,028 molyarli eritmasiga teng bo'ladi.


### 2-masala

Kaliy kationini vino kislotasining natriyli tuzi bilan analitik reaksiyasi uchun suyultirish chegarasi 1000 ml/g ga teng. KCl eritmasining normal konsentrasiyasini hisoblansin.

Berilgan:  $V_{\text{suyul.}} = 1000$  ml/g.

Topish kerak:  $C_{\text{KCl}} = ?$

Yechish: Kaliy kationini vino kislotasining natriyli tuzi bilan analitik reaksiyasini yozamiz:



KCl eritmasining minimal konsentrasiyasini quyidagi formula yordamida hisoblaymiz:

$$C_{\text{KCl}} = \frac{1}{V_{\text{suyul}}} = \frac{1}{1000} \text{ g / ml}$$

Demak, 1 l eritmada 1 g K<sup>+</sup> ioni bor. KCl eritmasining normal konsentrasiyasini topish uchun proporsiya tuzamiz:

1 n KCl eritmasida 39 g—ion/l K<sup>+</sup> ioni bo'lsa,  
X n KCl eritmada 1 g—ion/l K<sup>+</sup> ioni bo'ladi.

$$X = \frac{1 \cdot 1}{39} = 0,0255 \approx 0,026n \text{ KCl}$$

### 3-masala

Qo'rg'oshin ionining (Pb<sup>+2</sup>) ditizon bilan topilish minimumi 0,04 mkg ga teng. Suyultirish chegarasi 250 000 ml/g ga teng. Tekshirilayotgan eritmaning minimal xajmi hisoblansin.

Berilgan: m=0,04 mkg, V<sub>suyul.</sub>=250 000 ml/g.

Topish kerak: V<sub>min</sub> =?

Yechish: Tekshirilayotgan eritmaning minimal hajmi quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$V_{\text{min}} = \frac{m \cdot V_{\text{suyul.}}}{10^6}, \text{ml}$$

Eritmaning topilish minimumi va suyultirish chegaralarini son qiymatlarini formulaga qo'yib hisoblaymiz:

$$V_{\text{min}} = \frac{0,04 \cdot 250000}{10^6} = 0,01 \text{ml}$$


### 4-masala

Kumush ionini ochish uchun AgNO<sub>3</sub> tuzidan 1,57 g olib, 1 l li eritma tayyorlangan. Kumush ionini KJ bilan ochish uchun shu eritma 75 marta suyultirilgan. Kumush ioni shu eritmaning 0,01 ml hajmidan topilgan. Eritmaning chegaraviy konsentrasiyasi va topilish minimumi hisoblansin.

Berilgan: q=1,57g AgNO<sub>3</sub>. V=1000 ml=1l, V<sub>min.</sub>=0,01 ml, n<sub>suyul.</sub>=75 marta.

Topish kerak: S<sub>min.</sub>=?m=?

Yechish:



Eritmaning suyultirish chegarasi quyidagicha topiladi:

$$V_{\text{suyul.}} = 1000 \cdot 75 = 75000 \text{ ml}$$

Eritmadagi kumush ionining gramm miqdorini proporsiya yordamida hisoblaymiz:

169,87 g AgNO<sub>3</sub> da—107,87 g Ag<sup>+</sup> ioni bor

1,57 g AgNO<sub>3</sub> da—X g Ag<sup>+</sup> ioni bo'ladi

$$X = \frac{1,57 \cdot 107,87}{169,87} = 1 \text{ g } Ag^+ \\ \text{bor ekan.}$$

Eritmaning chegaraviy konsentrasiyasini quyidagi qormula yordamida hisoblaymiz.

$$C_{\min} = \frac{1}{V_{suyul.}} = \frac{1}{75000}; g/ml$$

Eritmaning topilish minimumini quyidagi formula yordamida hisoblaymiz:

$$m = C_{\min} \cdot V_{\min} \cdot 10^6;$$

$$m = \frac{1 \cdot 0,01 \cdot 10^6}{75000} = 0,13 \text{ mkg}$$


### 5-masala

K<sup>+</sup> ionini Na<sub>3</sub>[Co(NO<sub>2</sub>)<sub>6</sub>] bilan ochish uchun eritmadan 2 mg olingan. Agar K<sup>+</sup> ionining shu reaksiya bilan topilish minimumi 4 mkg ga teng bo'lsa, K<sup>+</sup> ionining eritmadagi foyiz konsentrasiyasini hisoblang.

Berilgan: g=2 mg , m=4 mkg=0,004 mg K<sup>+</sup> ioni

Topish kerak: % K<sup>+</sup>=?

Yechish: K<sup>+</sup> ionini Na<sub>3</sub>[Co(NO<sub>2</sub>)<sub>6</sub>] bilan ochish reaksiyasini yozamiz:



Masalaning shartiga ko'ra, tekshiriladigan moddadan 2 mg olingan bo'lsa, u 100% foyizni tashkil etadi. Eritmadagi 4 mkg K<sup>+</sup> ioni X% ni tashkil etadi. Proporsiya tuzamiz.

2 mg eritmadagi K<sup>+</sup> ioni—100 % ga teng bo'lsa,

4 mkg=0,004 mg K<sup>+</sup> ioni—X % bo'ladi

$$X = \frac{0,004 \cdot 100}{2} = 0,2\% \text{ } K^+$$


### 6-masala

0,001 m li CaCl<sub>2</sub> eritmasining 0,001 ml minimal hajmidan Ca<sup>+2</sup> ionini CaC<sub>2</sub>O<sub>4</sub> ko'rinishida mikrokristalloskopik usul bilan ochish mumkin. Shu reaksiya uchun Ca<sup>+2</sup> ionining topilish minimumi va chegaraviy konsentrasiyasi hisoblansin.

Berilgan: V<sub>min.</sub>=0,001 ml, C<sub>CaCl2</sub>=0,001 m.

Topish kerak: C<sub>cheq.</sub>=? m=?

Yechish: Reaksiya tenglamasini yozamiz:



Reaksiya tenglamasini hisobga olib, 0,001 m li  $CaCl_2$  eritmasidagi  $Ca^{+2}$  ionining gramm miqdorini proporsiya yordamida hisoblaymiz:

1 mol/l  $CaCl_2$  eritmada—40 g  $Ca^{+2}$  teng bo'lsa  
0,001 mol/l  $CaCl_2$  eritmasida—X g  $Ca^{+2}$  bo'ladi

$$X = \frac{40 \cdot 0,001}{1} = 0,04g \text{ } Ca^{+2}$$

Shu reaksiyaning suyultirish chegarasini proporsiya yordamida hisoblaymiz:

1000 ml  $CaCl_2$  eritmasida—0,04 g  $Ca^{+2}$  teng bo'lsa,  
X ml  $CaCl_2$  eritmasida—1 g  $Ca^{+2}$  bo'ladi

$$X = \frac{1000 \cdot 1}{0,04} = 25000ml$$

Demak, reaksiyaning suyultirish chegarasi  $V_{\text{suyul}}=X=25000$  ml ga teng bo'lsa,

minimal konsentrasiyasi  $C_{\text{min}} = \frac{1}{V_{\text{suyul}}} = \frac{1}{25000} g/ml$

Reaksiyaning topilish minimumini quyidagi formula yordamida hisoblaymiz.

$$m = C_{\text{min}} \cdot V_{\text{min}} \cdot 10^6 = \frac{1 \cdot 0,001 \cdot 10^6}{25000} = 0,04 \text{ mkg } Ca^{+2}$$


## 7-masala

Tekshirayotgan eritmadan  $SO_4^{2-}$  anionini  $Ca(CH_3COO)_2$  0,003 ml eritmasi bilan ochish mumkin. Shu reaksiya uchun tekshiralayotgan eritmaning suyultirish chegarasi 86000 ml/g. Topilish minimumi hisoblansin.

Berilgan:  $V_{\text{min.}}=0,003$  ml,  $V_{\text{suyul.}}=86000$  ml/g.

Topish kerak: m=?

Yechish: Reaksiya tenglamasini yozamiz:



Reaksiyaning topilish minimumini quyidagi formula yordamida hisoblaymiz:

$$m = \frac{V_{\text{min}}}{V_{\text{suyul}}} = \frac{0,003 \cdot 10^6}{86000} = 0,035mkg$$

## 8-masala

Nikel ionining  $\alpha$ -benzildioksim reaktivi bilan kobal't ioni ishtirokida ochishda chegaraviy nisbatlari 1:10 ga teng. Suyultirish chegarasi 500 000 ml/g ga teng. Reaksiya

uchun tekshiriladigan eritmaning 0,01 ml hajmi etarlidir. Kobal`t ionining normal konsentrasiyasi hisoblansin.

Berilgan: CHN=Ni/Co<sup>+2</sup>=1:10 ga teng.

V<sub>min.</sub>=0,01 ml, V<sub>suyul.</sub>=500 000 ml/g.

Topish kerak: C<sub>Co<sup>+2</sup></sub> = ?

Yechish: topilish minimumini quyidagi formula yordamida hisoblaymiz:

$$m_{Ni} = \frac{V_{\text{min}} \cdot 10^6}{V_{\text{suyul}}} = \frac{0.01 \cdot 10^6}{500000} = 0.02 \text{ mkg}$$

Nikel ionining kobal`t ioniga bo`lgan nisbatlarni bilgan holda tekshirilayotgan eritmaning 0,01 ml hajmidan kobal`t ionining quyidagi formula yordamida hisoblaymiz:

$$m_{Co^{+2}} = \frac{m_{Ni^{+2}}}{ChN} = \frac{0.02 \cdot 10}{1} = 0.2 \text{ mkg}$$

Kobal`t ionini 1 l eritmasidagi miqdorini topish uchun proporsiya tuzamiz:

$$\begin{aligned} 0,01 \text{ ml} &= 0,2 \text{ mkg} \\ 1000 \text{ ml} &= X \text{ mkg} \end{aligned}$$

$$X = \frac{1000 \cdot 0,20}{0,01} = 20000 \text{ mkg} = 0,02 \text{ g Co}^{+2}$$

Kobal`t ioninig ekvivalent massasi 29,47 g/mol` ga teng. Kobal`t ionining normal konsentrasiyasini hisoblash uchun proporsiya tuzamiz:

$$\begin{aligned} 29,47 \text{ g-ion/l Co}^{+2} &- 1000 \text{ ml eritmasi} = 1 \text{ n bo`lsa}, \\ 0,02 \text{ g-ion/l Co}^{+2} &1000 \text{ ml} = X \text{ n ga teng bo`ladi}. \end{aligned}$$


$$X = \frac{1 \cdot 0,20}{29,47} = 6,78 \cdot 10^{-4} \text{ n}$$

Demak, kobal`t ionining normal konsentrasiyasi  $6,78 \cdot 10^{-4} \text{ n}$  ga teng ekan.

## 9-masala

Tahlil qilinuvchi eritmaning tarkibi haqida qanday xulosa qila olasiz, agar shu eritma HCl, H<sub>2</sub>S, (NH<sub>4</sub>)<sub>2</sub>S, (NH<sub>4</sub>)<sub>2</sub>CO<sub>3</sub> reagentlar bilan cho`kma hosil qilmasa.

Yechish. N.A. Menshutkina taklif qilgan kationlarning sul`fidlar xossasiga asoslangan klassifikasiyasiga binoan ikkinchi, uchinchi, to`rtinchi va beshinchi analitik gurux kationlarining gurux reagentlari ta`sirida cho`kmlarning hosil bo`lmasiligi yuqorida qayd etilgan analitik gurux kationlarining eritmada yo`qligini ko`rsatadi. Eritmada faqat birinchi analitik gurux kationlaridan K<sup>+</sup>, Na<sup>+</sup>, NH<sub>4</sub><sup>+</sup> ionlari bo`lishi mumkin. Magniy kationiga kelsak, magniy (NH<sub>4</sub>)<sub>2</sub>CO<sub>3</sub>, reagenti bilan suvda kam eruvchan (MgOH)<sub>2</sub>CO<sub>3</sub> cho`kmasini hosil qiladi. Lekin, hosil bo`lgan (MgOH)<sub>2</sub>CO<sub>3</sub> cho`kmasi NH<sub>4</sub><sup>+</sup> ioni ishtirokida erib ketadi:



Shunday qilib, tekshirilayotgan eritmada  $K^+$ ,  $Na^+$  va  $NH_4^+$  ionlari bo'lishi mumkin.


### 10-masala

Tarkibida  $0,25\text{ mol/l}$   $[Cu^{+2}]$  va  $0,01\text{ mol/l}$   $[Pb^{+2}]$  bo'lgan tekshirilayotgan eritmadan qo'rg'oshin ionini KJ bilan mikrokristalloskopik reaksiya yordamida ochish mumkin. Ionlarning qanday chegaraviy nisbatlarda  $[Cu^{+2}]: [Pb^{+2}]$  qo'rg'oshin ionini ochish mumkin?

Berilgan:  $[Cu^{+2}] = 0,25\text{ mol/l}$ ;  $[Pb^{+2}] = 0,01\text{ mol/l}$ .

Topish kerak:  $CHN = ?$

Yechish:  $Cu^{+2}$  va  $Pb^{+2}$  ionlarining KJ bilan ochish reaksiyasini yozamiz:



Qo'rg'oshin ionini mis ioniga bo'lgan chegaraviy nisbatlarni quyidagi formula yordamida hisoblaymiz:

$$CHN = \frac{[Pb^{+2}]}{[Cu^{+2}]}; \quad CHN = \frac{0,01\text{ mol/l}}{0,25\text{ mol/l}} \approx 1:25$$

Demak, mis ionining yuqori konsentrsiyalarida, qo'rg'oshin ionini aralashmadan ochish mumkin emas.


### 11-masala

Kaliy kationi  $Na_3[Co(NO_2)_6]$  reaktiv bilan reaksiyaning suyultirish chegarasi  $50000\text{ ml/g}$  ga teng.  $KCl$  eritmasining molyar konsentrasiyasi hisoblansin.

Berilgan:  $V_{\text{suyul.}} = 50\ 000\text{ ml/g}$ .

Topish kerak:  $M_{KCl} = ?$

Yechish: Reaksiya tenglamalarini yozamiz.



Eritmadagi  $K^+$  ning minimal (chegaraviy) konsentrasiyasi quyidagi formula yordamida hisoblaymiz:

$$C_{\min} = \frac{1}{V_{\text{suyul}}} = \frac{1}{50000} g/ml$$

$KCl$  eritmasining molyar konsentrasiyasi hisoblash uchun proporsiya tuzamiz:

1 g KCl — 50000 ml eritmada bo'lsa  
 XKCl — 1000 ml eritmada bo'ladi

$$X = \frac{1 \cdot 1000}{50000} = 0,02 \text{ g} - \text{ion} \quad \text{K}^+ \text{ ioni bor.}$$

Demak, 0,02 g-ion K<sup>+</sup> — 1000 ml eritmada X mol<sup>-1</sup>/l  
 39 g-ion K<sup>+</sup> — 1000 ml eritmada 1 mol<sup>-1</sup>/l bo'ladi

$$X = \frac{1 \cdot 0,02}{39} = 0,0005$$

mol<sup>-1</sup>/l K<sup>+</sup> ya'ni KCl eritmasining molyar konsentrasiyasi 0,0005 m ga teng.


### 1-masala

Cu<sup>+2</sup> ionining ammiak bilan topilish minimumi 0,2 mkg ga teng, K<sub>4</sub>[Fe(CN)<sub>6</sub>] reaktivи bilan suyultirish chegarasi 2 500 000 ml/g ga teng. Tekshirilayotgan K<sub>4</sub>[Fe(CN)<sub>6</sub>] eritmaning ikkala reaksiya uchun minimal hajmi 0,05 ml ga teng. Mis ioni uchun qaysi reaktivning sezgirligi yuqori?

Berilgan: m<sub>1</sub>=0,2 mkg; V<sub>min.</sub>=0,05 ml, V<sub>suyul.</sub>=2 500 000 ml/g.

Topish kerak: m<sub>2</sub>=?

Yechish: Minimal hajmi bir xil bo'lgan qaysi reaksiyaning topilish minimumi kichik bo'lsa, Shu reaktivning sezgirligi mis ioni uchun eng yuqori bo'ladi. Reaksiya tenglamalarini yozamiz:



Mis ionining K<sub>4</sub>[Fe(CN)<sub>6</sub>] reaktivи bilan reaksiyasining topilish minimumini quyidagi formula bilan hisoblaymiz:

$$m_2 = \frac{V_{\min} \cdot 10^6}{V_{suyul}} = \frac{0,05 \cdot 10^6}{2500000} = 0,02 \text{ mkg}$$

Demak, m<sub>2</sub><m<sub>1</sub>dan 10 marta kichik bo'lgani uchun Cu<sup>+2</sup> ning

K<sub>4</sub>[Fe(CN)<sub>6</sub>] reaktivи bilan reaksiyasining sezgirligi ammiakka nisbatan 10 marta sezgir ekan.

### III - bob. Massalar ta'siri qonuni.

#### 3.1. Qaytar reaksiyalar va massalar ta'siri qonuni

Analitik reaksiyalarning ko'pchiligi qaytar reaksiyalardir, ya'ni bir vaqtda bir-biriga qarama-qarshi ikki yo'nalishda boradigan reaksiyalardir.


Masalan:



Bu yerda  $\rightleftharpoons$  bu ishoralar to'g'ri ( $\rightarrow$ ) va teskari ( $\leftarrow$ ) reaksiyalarning yo'nalishini ifodalandi.

Bizga umumiy kimyo kursidan ma'lumki, eritmada reaksiya uchun olingan va reaksiya natijada hosil bo'lgan hamma moddalar mavjud bo'lganda qaytar reaksiyalar kimyoviy muvozanatga uchraydi. Kimyoviy muvozanatning kelishiga sabab, to'g'ri va teskari reaksiya tezliklarining bir-biriga tenglashib qolishidir.

Massalar ta'siri qonuni - bu sifat tahlilning nazariy asoslaridan biri hisoblanadi. Bu qonun cho'kmalarning hosil bo'lishi va erishini, bir qiyin eruvchan birikmadan boshqa birikmaga aylanishi, gidroliz jarayoni, amfoterlik va boshqa kimyoviy jarayonlarning muvozanatlari to'g'risida ilmiy asoslab beradi. Bu jarayon o'zgarmas haroratda, qaytar kimyoviy reaksiyalarda hosil bo'lgan modda konsentrasiyalari ko'paytmalarini boshlang'ich modda konsentrasiyalari ko'paytmalariga nisbatlarini ifodalandi. Massalar ta'siri qonuniga binoan qaytar kimyoviy reaksiya tezliklari vaqt birligi ichida reaksiyaga kirishuvchi moddalar konsentrasiyalarining o'zgarishiga bog'liqdir. Qaytar kimyoviy reaksiyalarni umumiy ko'rinishda quyidagicha yozish mumkin:



Yuqorida ko'rsatilgan qaytar to'g'ri reaksiyaning tezligi quyidagi tenglamaga teng:

$$\nu_1 = K_1 [A]^a \cdot [B]^b$$

Teskari reaksiyaning tezligi quyidagiga teng:

$$\nu_2 = K_2 [C]^c \cdot [D]^d$$

To'g'ri va teskari reaksiya tezliklarining o'zaro tenglashgan holati kimyoviy muvozanat deyiladi:

$$\begin{aligned} \nu_1 &= \nu_2 \\ K_1 [A]^a \cdot [B]^b &= K_2 [C]^c \cdot [D]^d \\ \frac{K_1}{K_2} &= \frac{[C]^c \cdot [D]^d}{[A]^a \cdot [B]^b} = K. \quad (1) \end{aligned}$$

Tenglama 1 massalar ta'siri qonuning matematik ifodasini ko'rsatadi. K kattalik kimyoviy muvozanat konstantasi deyiladi. Bu kattalik o'zgarmas haroratda reaksiya natijasida hosil bo'lgan moddalar konsentrasiyalari ko'paytmasining reaksiya uchun olingan moddalarning boshlang'ich konsentrasiyalari ko'paytmasiga bo'lgan nisbatlari o'zgarmas qiymatga egaligini ko'rsatadi. K kattalikning son qiymatiga qarab, reaksiyaning yo'nalishini aniqlash mumkin. Agar  $K=1$  teng bo'lsa, reaksiya amaliy jihatdan qaytar hisoblanadi, agar  $K<1$  bo'lsa, reaksiya teskari tomonga yo'nalishini ko'rsatadi, agar  $K>1$  bo'lsa, to'g'ri reaksiyaning katta tezlik bilan borishini ko'rsatadi.

Massalar ta'siri qonunini noelektrolit va kuchsiz elektrolitlarning suyultirilgan eritmalariga qo'llash mumkin. Agar kuchli elektrolitlarga qo'llangan holatlarda moddalarning muvozanat konsentrasiyalari o'rniga ularning aktivliklari olinadi va muvozanat konstantasining termodinamik ifodasi quyidagiga teng bo'ladi:

$$K = \frac{a_D^d \cdot a_C^c}{a_A^a \cdot a_B^b} = \frac{C_D^d \cdot f_D^d \cdot C_C^c \cdot f_C^c}{C_A^a \cdot f_A^a \cdot C_B^b \cdot f_B^b}$$

Massalar ta'siri qonunidan foydalanib, kamyoviy muvozanatni u yoki bu tomonga siljитish mumkin. Kamyoviy muvozanat konstanta qiymatini va moddalarning boshlang'ich konsentrasiyalarini bilgan holda turli xil masalalarning miqdoriy hisoblarini yechish mumkin.

### **3.2. Massalar ta'siri qonuniga oid namunaviy masalalar**

#### **1-masala**

Ushbu reaksiyaning  $CuJ \downarrow + J^- \Leftrightarrow CuJ_2^-$  muvozanat konstantasi  $8 \cdot 10^{-4}$  ga teng. Konsentrasiyasi 0,01 molga teng bo'lgan  $KJ$  ishtirokida  $[CuJ_2^-]$  ning to'yigan eritmasidagi muvozanat konsentrasiyasi hisoblansin.

Berilgan:

$$K_{muv} = 8 \cdot 10^{-4};$$

$$C_{KJ} = 0,01 \text{ mol} = 1,0 \cdot 10^{-2} \text{ mol}$$

Topish kerak:  $[CuJ_2^-] = ?$

Yechish: Reaksiya tenglamasini yozamiz:



Reaksiya tenglamasining muvozanat konstantasi quyidagiga teng:

$$K_{muv} = \frac{[CuJ_2^-]}{[J^-]}; KJ \Leftrightarrow K^+ + J^-$$

$KJ$  ning dissosiasiya tenglamasidan shuni ko'rish mumkinki,  $[K^+] = [J^-] = [CuJ_2^-]$ ; ya'ni  $[J^-] = 0,01 \text{ mol/l}$ . Ushbu formula yordamida  $[CuJ_2^-]$  ning konsentrasiyasini hisoblaymiz:

$$[CuJ_2^-] = K_{muv} \cdot [J^-] = 8 \cdot 10^{-4} \cdot 1,0 \cdot 10^{-2} = 8 \cdot 10^{-6} \text{ mol/l}$$

#### **2-masala**

Ushbu reaksiya  $2CH_3OH + H_2SO_4 \Leftrightarrow (CH_3)_2SO_4 + 2H_2O$

dagi metil spirtining konsentrasiyasi 2 mol/l ga, sul`fat kislotasining konsentrasiyasi 1 mol/l ga teng. Muvozanatdagi dimetilsul`fatning foiz konsentrasiyasi

metil spirtining boshlang'ich konsentrasiyasini 30% iga teng. Reaksiyaning muvozanat konstantasi aniqlansin.

Berilgan:

$$C_{CH_3OH} = 2 \text{ mol/l}; C_{H_2SO_4} = 1 \text{ mol/l}; [(CH_3)_2SO_4] = 30\%; C_{CH_3OH} \text{ ga nisbatan}$$

Topish kerak: K=?

Yechish: Masalaning shartidan kelib chiqib, ushbu reaksiya



ning muvozanat konstantasi tenglamasini yozamiz:

$$K = \frac{[(CH_3)_2SO_4] \cdot [H_2O]^2}{[CH_3OH]^2 \cdot [H_2SO_4]}$$

Masalaning shartidan kelib chiqib, reaksiya tenglamasidan dimetilsul`fatning muvozanat konsentrasiyasini proporsiya tuzib aniqlaymiz:

$$2C_{CH_3OH} = 100\%$$

$$X_{[(CH_3)_2SO_4]} = 30\%$$

$$X_{[(CH_3)_2SO_4]} = \frac{2 \cdot 30}{100} = 0,6 \text{ mol/l}$$

Metil spirti, sul`fat kislota va suvning muvozanat konsentrasiyalari quyidagilarga teng bo'ladi:

$$[CH_3OH] = C_{CH_3OH} - 2[(CH_3)_2SO_4] = 2 - 1,2 = 0,8 \text{ mol/l}$$

$$[H_2SO_4] = C_{H_2SO_4} - [(CH_3)_2SO_4] = 1 - 0,6 = 0,4 \text{ mol/l}$$

$$[H_2O] = 2[(CH_3)_2SO_4] = 2 \cdot 0,6 = 1,2 \text{ mol/l}$$

Topilgan qiymatlarni muvozanat konstanta tenglamasiga qo'yib hisoblaymiz:

$$K = \frac{0,6 \cdot (1,2)^2}{(0,8)^2 \cdot 0,4} = \frac{0,864}{0,256} = 3,375$$

### 3-masala

Agar  $FeCl_3$  ning konsentrasiyasini 0,1 dan 0,3 mol/l gacha,  $KCl$  ning konsentrasiyasini 0,4 dan 1,2 mol/l gacha oshirsak, ushbu reaksiya



ning muvozanati qaysi tomonga siljiydi.

Berilgan:  $C_1 = 0,1 \text{ mol/l } FeCl_3$ ;  $C_2 = 0,3 \text{ mol/l } FeCl_3$ ;  $C_3 = 0,4 \text{ mol/l } KCl$ ;  $C_4 = 1,2 \text{ mol/l } KCl$ .

Topish kerak: muvozanat qaysi tomonga siljiydi?

Yechish:  $FeCl_3$  ning konsentrasiysi 1 1 eritmada qanchaga oshganligini aniqlaymiz:

$$C_2 - C_1 = \Delta C_{FeCl_3} = 0,3 - 0,1 = 0,2 \text{ mol/l}$$

KCl ning konsentrasiyasi 1 l eritmada qanchaga oshganligini aniqlaymiz.

$$C_4 - C_3 = C_{KCl} = 1,2 - 0,4 = 0,8 \text{ mol/l KCl}$$

Reaksiya tenglamasiga asosan 1 l eritmada 1 mol/l FeCl<sub>3</sub> bilan 3 mol/l KCNS reaksiyaga kirishib, 3 mol/l KCl hosil bolsa, 1 l eritmada 0,2 mol/l FeCl<sub>3</sub> dan 3·0,2=0,6 mol/l KCl hosil bo'ladi. Masalaning shartiga ko'ra, KCl ning 1 l eritmadagi

$$\Delta C_{KCl} = 0,8 \text{ mol/l}$$

konsentrasiyasi ga teng. Reaksiya tenglamasiga binoan, KCl ning konsentrasiyasi 0,6 mol/l ga teng. Muvozanatni siljitim qoidasi (Le-Shatel'e)ga binoan KCl ning konsentrasiyasi ( $C_{KCl}$ ) 0,6 mol/l gacha kamayguncha muvozanat teskari tomonga siljiydi.

#### 4-masala

Agar 0,1 m  $K_2[HgJ_4]$  eritmasining beqarorlik konstantasi  $5 \cdot 10^{-31}$  ga teng bolsa,  $[Hg^{+2}]$ ,  $[J^+]$  va  $[K^+]$  ionlarining muvozanat konsentrasiyalari hisoblansin.

Berilgan:  $C = 0,1 \text{ m } K_2[HgJ_4]$ ;  $K_{beqar} = 5 \cdot 10^{-31} \text{ } K_2[HgJ_4]$ .

Topish kerak:  $[Hg^{+2}] = ?$   $[J^+] = ?$   $[K^+] = ?$

Yechish:  $K_2[HgJ_4]$  ning bosqichli dissosiasiya tenglamalarini yozamiz:

Birinchi bosqich:

$$K_2[HgJ_4] = 2K^+ + [HgJ_4]^{-2}$$

Bu bosqichda kompleks kuchli elektrolit kabi dissosialanadi.

Masalaning shartiga binoan bu bosqichda  $[HgJ_4]^{-2}$  ning konsentrasiyasi 0,1 mol/l ga teng bolsa,  $[K^+]$  ning konsentrasiyasi  $[HgJ_4]^{-2}$  ning konsentrasiyasidan 2 marta katta bo'ladi, ya`ni  $[K^+] = 0,2 \text{ mol/l}$  ga teng bo'ladi.

Ikkinci bosqich

$$[HgJ_4]^{-2} = Hg^{+2} + 4J^-$$

Bu bosqichda  $[HgJ_4]^{-2}$  kompleks ioni kuchsiz elektrolit kabi dissosialangani uchun massalar ta'siri qonuniga binoan kompleks ionning beqarorlik konstantasi quyidagiga teng bo'ladi:

$$K_{beqaror} = \frac{[Hg^{+2}] \cdot [J^-]^4}{[HgJ_4]^{-2}}$$

Agar  $[Hg^{+2}]$  ning konsentrasiyasini X deb olsak, u holda  $[J^-] = 4x$  ga teng bo'ladi. Ionlarning son qiymatlarini kompleks ion  $[HgJ_4]^{-2}$  ning beqarorlik konstanta tenglamasiga qo'yib hisoblaymiz:

$$5 \cdot 10^{-31} = \frac{x(4x)^4}{0,1}; \quad 5 \cdot 10^{-31} = \frac{256x^2}{0,1}; \quad X = \sqrt[5]{\frac{5 \cdot 10^{-12}}{256}} \approx 1,8 \cdot 10^{-7} \text{ mol/l}$$

$$[J^-] = 1,8 \cdot 10^{-7} \cdot 4 = 7,2 \cdot 10^{-3} \text{ mol/l } [J^-]$$


## 5-masala

0,4 m li kumush nitratning 20 ml eritmasiga 0,5 m li kaliy sianid eritmasidan 40 ml qo'shilgan. Agar aralashmadagi kumush sianid ionining beqarorlik konstantasi  $1 \cdot 10^{-21}$  ga teng bo'lsa, kumush ionining muvozanat konsentrasiyasi hisoblansin.

Berilgan:  $V_1=20 \text{ ml } AgNO_3$ ;  $C_1=0,4 \text{ mol/l}$ ;  $V_2=40 \text{ ml } KCN$ ;  $C_2=0,5 \text{ mol/l } KCN$ ;  $K_{[Ag(CN)_2]}=1 \cdot 10^{-21}$

Topish kerak:  $[Ag^+]=?$

Yechish: reaksiya tenglamasini yozamiz:



Eritmalar qo'shilgandan so'ng, aralashmaning umumiylajimi hisoblaymiz.

$$V_{um}=V_1+V_2=20+40=60 \text{ ml}$$

Aralashmadagi  $[AgNO_3]$  ning konsentrasiyasi quyidagi nisbatlar orqali topiladi:

$$\frac{C_1}{C_{um}} = \frac{V_{um}}{V_1}; \quad \frac{0,4}{C_{um}} : \frac{60}{20};$$


$$C_{um} = \frac{0,4 \cdot 20}{60} = 0,13 \text{ mol/l}$$

Shuningdek,  $[KCN]$  ning aralashmadagi konsentrasiya quyidagi nisbatlar orqali topiladi:

$$\frac{C_2}{C_{um}} = \frac{V_{um}}{V_2}; \quad \frac{0,5}{C_{um}} : \frac{60}{40};$$

$$C_{um} = \frac{0,5 \cdot 40}{60} = 0,33 \text{ mol/l}$$

$KCN$  ning miqdori  $AgNO_3$  ning miqdoriga nisbatan ortiqcha olingani uchun kumush sianidning kompleks ioni hosil bo'ladi:



$[Ag(CN)_2]^-$  kompleks ionning beqarorlik konstantasi quyidagi tenglama orqali topiladi:

$$K_{[Ag(CN)_2]} = \frac{[Ag^+] \cdot [CN^-]^2}{[Ag(CN)_2^-]}$$

$[Ag^+]$  ning muvozanat konsentrasiyasini x bilan belgilasak,  $[Ag(CN)_2]^-$  kompleks ionning disosiasiya tenglamasiga binoan  $[Ag(CN)_2]^- \rightleftharpoons Ag^+ + 2CN^-$

$$[CN^-] = C_{CN^-} - 2(C_{Ag^+} - X) = -0,33 - 2 \cdot 0,13 = 0,07 \text{ mol/l}$$

$$[Ag(CN)_2]^- = C_{Ag^+} - X = 0,13 \text{ mol/l}$$

$$C_{CN^-} = C_{KCN}; \quad C_{Ag^+} = C_{AgNO_3}; \quad X \leq C_{Ag^+}$$

Topilgan qiymatlarni beqarorlik konstanta tenglamasiga qo'yib, X ni hisoblaymiz:

$$\frac{X \cdot (0,07)^2}{0,13} = 1 \cdot 10^{-21}; \quad 0,0049X = 1,3 \cdot 10^{-22}$$

$$X = \frac{1,3 \cdot 10^{-22}}{4,9 \cdot 10^{-3}} = 2,65 \cdot 10^{-20} \text{ mol/l}$$

$$\text{demak, } [Ag^+] = X = 2,65 \cdot 10^{-20} \text{ mol/l}$$

## 6-masala

Qaytar reaksiya tenglamasini  $A + B \rightleftharpoons C + D$  deb belgilab, muvozanat konstantasini 1 ga teng, A moddaning boshlang'ich konsentrasiyasini 2 mol/l ga teng deb olsak, V moddaning boshlang'ich konsentrasiyalari 2, 10 va 20 mol/l ga teng deb olsak, A moddaning necha foizi reaksiyaga kirishgan?

Berilgan:  $K=1$ ;  $C_A=2 \text{ mol/l}$ ;  $C_V^1=2 \text{ mol/l}$ ;  $C_V^2=10 \text{ mol/l}$ ;  $C_V^3=20 \text{ mol/l}$

Topish kerak:  $[A]$  ning necha foizi reaksiyaga kirishgan?

Yechish: reaksiya tenglamasi va muvozanat konstanta tenglamalarini yozamiz:



$$K = \frac{[C] \cdot [D]}{[A] \cdot [B]}$$

1-holat uchun moddalarning muvozanat konsentrasiyalarini belgilab olamiz:

$$[C]=[D]=X \text{ deb olsak, u holda } [A]=2-X; [B]=2-X;$$

Belgilab olingan son qiymatlarni muvozanat konstanta tenglamasiga qo'yamiz:

$$1) \quad 1 = \frac{X^2}{(2-X)^2}; \quad (2-X)^2 = X^2$$

$$X^2 = 4 - 4X + X^2; \quad 4X = 4; \quad X = 1 \text{ mol/l}$$

Masalaning shartiga binoan, reaksiya tenglamasidan ko'rinish turibdiki, reaksiyaga kiriShuvchi moddalar o'zaro tengdirlar, ya`ni  $[C]=[D]=[A]=[B]=1 \text{ mol/l}$ . Demak, A moddaning 1 mol/l reaksiyaga kirishgan bolsa, uni foizlarda ifodalash uchun proporsiya tuzamiz:

A moddaning boshlang'ich konsentrasiyasi  $2 \text{ mol/l} — 100\% \text{ bolsa}$

A moddaning reaksiyaga kirishgan konsentrasiyasi  $1 \text{ mol/l} — X \%$

$$X = \frac{1 \cdot 100}{2} = 50\%[A]$$

## 2-holat uchun

$$1 = \frac{X^2}{(2-X)(10-X)}; \quad 20 - 12X + X^2 = X^2$$

$$12X = 20; \quad X = \frac{20}{12} = 1,67 \text{ mol/l}$$

$$[C] = [D] = [A] = [B] = 1,67 \text{ mol/l}$$

$$[A] = \frac{1,67 \cdot 100}{2} = 83,5\%$$

### 3-holat uchun

$$1 = \frac{X^2}{(2-X)(20-X)}; \quad 40 - 22X + X^2 = X^2$$

$$22X = 40; X = \frac{40}{22} = 182 \text{ mol/l}$$

$$[C] = [D] = [A] = [B] = 1,82 \text{ mol/l}$$

$$[A] = \frac{1,82 \cdot 100}{2} = 91\%$$

### **7-masala**

Ushbu reaksiyada  $A + B \rightleftharpoons D + E$  A va V moddalarning boshlang'ich konsentrasiyalari 0,5 va 0,3 mol/l ga teng. Agar Shu reaksiyaning muvozanat konstantasi 1,2 ga teng bo'lisa, A moddaning necha foizi reaksiyaga kirishmay qolgan?

Berilgan:  $K=1,2$ ;  $C_A=0,5 \text{ mol/l}$ ;  $C_V=0,3 \text{ mol/l}$

Topish kerak: % A qoldiq=?

Yechish: Ushbu reaksiya  $A + B \rightleftharpoons D + E$  dan ko'rinish turibdiki, D va E moddalarning muvozanat konsentrasiyalari  $[D]$  va  $[E]$  ga teng. Agar ularni X bilan belgilasak,  $[D] = [E] = X$ , u holda A va V moddalarning muvozanat konsentrasiyalari  $[A] = C_A - X$ ;  $[V] = C_V - X$  ga teng bo'ladi. Muvozanat konstanta tenglamasini umumiyl ko'rinishda yozamiz:  $K = \frac{[D] \cdot [E]}{[A] \cdot [B]}$

$$K = \frac{X^2}{(C_A - X) \cdot (C_V - X)};$$

$$X^2 - 4,8X + 0,9 = 0$$

$$X = \frac{4,8 \pm \sqrt{(4,8)^2 - 4 \cdot 0,9}}{2} = \frac{4,8 \pm \sqrt{19,44}}{2} = \frac{4,8 \pm 4,4}{2}$$

$$\text{Bu yerda, } X_1 = 0,2 \text{ mol/l}; \quad X_2 = \frac{9,2}{2} = 4,6 \text{ mol/l}$$

Bu yerda,  $X_2 > C_A$  bo'lgani uchun masala shartiga bo'yasinmaydi. Keyinga xislashlarni  $X_1 (0,2 \text{ mol/l})$  bo'yicha olib boramiz. A moddaning reaksiyaga kirishmay qolgan qismini aniqlaymiz.  $[A] = C_A - X = 0,5 - 0,2 = 0,3 \text{ mol/l}$ . A moddaning reaksiyaga kirishmay qolgan qismini foizlarda hisoblash uchun proporsiya tuzamiz:

$$0,5 \text{ mol/l} — 100\%$$

$$0,3 — X\%$$

## IV - bob. Elektrolitik dissosiasiya nazariyasi.

### 4.1. Aktivlik, aktivlik koeffisienti, muvozanat konstantasi

Elektrolitik dissosiasiya nazariyasi analitik kimyoda katta ahamiyatga egadir. Tahlilda ko'pincha noorganik moddalar (tuz, kislota yoki asoslar)ning suvli eritmalari ishlataladi va ularni elektrolitlar deb ataladi. Moddalar suvda eritilganda kation va anionlarga parchalanadi. Agar moddalar kation va anionlarga to'liq parchalangan bo'lsa, bunday eritmalar kuchli elektrolitlar deb ataladi. Agar moddalar eritilganda ionlar to'liq parchalanmagan bo'lsa, kuchsiz elektrolitlar deb ataladi. Dissosiasiya jarayoni qaytar jarayon bo'lgani uchun ular muvozanat konstanta (yoki ionlanish konstantasi) qiymatiga egadirlar. Muvozanat konstanta qiymatini aniqlashning ikki xil usuli mavjud bo'lib, birinchisi aniq (termodinamik) usul bo'lib, muvozanat konstanta qiymati ionlarning aktivligi orqali belgilanadi va termodinamik dissosiasiya konstantasi deb ataladi:

$$\text{Masalan, } \alpha_{CH_3COOH} = \alpha_{H^+} + \alpha_{CH_3COO^-}, \quad K_{CH_3COOH(a)} = \frac{\alpha_{H^+} + \alpha_{CH_3COO^-}}{\alpha_{CH_3COOH}}$$

Bu yerda,  $\alpha$ -ionga parchalanmagan molekulaning ion aktivligi.

Ion aktivlik quyidagi formula yordamida aniqlanadi:  $\alpha = f \cdot C$

Bu yerda,  $f$ -berilgan ionning aktivlik koeffisienti, bu eritmadiagi hamma ionlarning konsentrasiyasiga bog'liq bo'lgan koeffisientdir.

Aktivlik koeffisienti P. Debay va E. Gyukkel` qonuniga asosan suyultirilgan eritmalar uchun quyidagi tenglama orqali ifodalanadi:

$$-\lg f = 0,5Z^2 \sqrt{\mu}$$

Konsentrangan eritmalar uchun:

$$-\lg f = 0,5Z^2 \frac{\sqrt{\mu}}{1 + \sqrt{\mu}}$$

Bu yerda,  $\mu$ -eritmaning ion kuchi.

$$\begin{aligned} \mu &= \frac{1}{2} \left( C_1 Z_1^2 + C_2 Z_2^2 + \dots + C_n Z_n^2 \right) \\ \mu &= \frac{1}{2} \sum C_i Z_i^2 \end{aligned}$$

$Z$ -ion zaryadi;  $C_i$ -eritmadiagi ionlarning molyar konsentrasiyasi.

Muvozanat konstanta qiymatini aniqlashning ikkinchi usulida ionlarning muvozanat konsentrasiyalari olinadi. Masalan,



$$K_{dist} = \frac{[K^+][An^-]}{[KAn]}$$

Bu yerda,  $[KAn]$ -dissosialanmagan molekulaning konsentrasiyasi;  $[K^+][An^-]$ -kation va anionlar muvozat konsentrasiyalari.

#### 4.2. Aktivlik, aktivlik koeffisienti va muvzozananat konstantasiga oid namunaviy masalalar

##### **1-masala**

$\text{CH}_3\text{COOH}$  ning qanday konsentrasiyasi 30 % ga parchalanadi?

Berilgan:  $\alpha = 30\% = 0,30$

Topish kerak:  $C_{\text{CH}_3\text{COOH}} = ?$

Yechish:  $\text{CH}_3\text{COOH}$  ning dissosiasiya konstantasini 6-jadvaldan foydalanib topamiz.

$$K_{\text{CH}_3\text{COOH}} = 1,75 \cdot 10^{-5} \text{ ga teng.}$$

Ostval`dning suyultirish qonuniga asosan kuchsiz elektrolitning ionlanish darajasi bilan ionlarning konsentrasiyasi orasidagi bog'liqlikni ifodalaydi va quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$K = \frac{C \cdot \alpha^2}{1 - \alpha}; \text{ bundan } C = \frac{K(1 - \alpha)}{\alpha^2}$$

$$C = \frac{1,75 \cdot 10^{-5} - 1,75 \cdot 10^{-5} \cdot 0,3}{(0,3)^2} = 1,35 \cdot 10^{-4} \text{ mol/l}$$

##### **2-masala**

$\text{HCOOH}$  ning konsentrasiyalari 1) 0,03m; 2) 5% va 3) 4,60 g/l bo'lgan eritmalaridagi  $\text{HCOO}^-$  va  $\text{H}^+$  ionlarining muvozananat konsentrasiyalari hamda pH i hisoblansin.

Berilgan:  $C_1=0,03 \text{ m HCOOH}$ ;  $C_2=5,00\% \text{ HCOOH}$ ;  $C_3=4,60 \text{ g/l HCOOH}$

Topish kerak:  $[\text{HCOO}^-] = ?$   $[\text{H}^+] = ?$   $\text{pH} = ?$

Yechish: Birinchi variant:



Reaksiyaning ionlanish konstantasi quyidagiga teng:

$$K_{\text{HCOOH}} = \frac{[\text{H}^+] \cdot [\text{HCOO}^-]}{[\text{HCOOH}]}$$

Dissosiasiya konstantasini son qiymatini 6-jadvaldan topamiz:  $K_{\text{HCOOH}} = 1,8 \cdot 10^{-4}$

Reaksiya tenglamasidan ko'rinish turibdiki,  $[\text{H}^+] = [\text{HCOO}^-]$  teng va ularni X bilan belgilaymiz.  $\text{HCOOH}$  ning ionlanmagan qismini,  $[\text{HCOOH}] = C - X$  bilan belgilaymiz. Belgilangan qiymatlarni konstanta tenglamasiga qo'yamiz:

$$K = \frac{X^2}{C - X} \text{ tenglamani X ga nisbatan echaniz:}$$

$$1,8 \cdot 10^{-4} = \frac{X^2}{0,03 - X}$$

$$X^2 = 1,8 \cdot 10^{-4} (0,03 - X)$$

$$X^2 + 1,8 \cdot 10^{-4} X - 5,4 \cdot 10^{-6} = 0$$

$$X = \frac{-1,8 \cdot 10^{-4} \pm \sqrt{(1,8 \cdot 10^{-4})^2 + 4(1 \cdot 5,4 \cdot 10^{-6})}}{2} = \frac{-1,8 \cdot 10^{-4} \pm 4,65 \cdot 10^{-3}}{2} =$$

$$= \frac{4,47 \cdot 10^{-3}}{2} = 2,24 \cdot 10^{-3} \text{ mol/l}$$

$$[H^+] = [HCOO^-] = 2,24 \cdot 10^{-3} \text{ mol/l}$$

$$pH = -\lg[H^+] = -\lg 2,24 \cdot 10^{-3} = -\lg 0,0224 = -( -3 + 0,3483) = 2,65$$

Ikkinci variant: HCOOH ning foiz konsentrasiyasini quyidagi formula yordamida molyar konsentrasiyaga o'tkazamiz:

$$C = \frac{10C_2d}{M_{HCOOH}}$$

Bu yerda,  $d$  -5% li HCOOH ning zichligi. 5% li chumoli kislotaning zichligi 1 ga juda yaqin bo'lgani uchun 1,00 g/ml ga teng deb olamiz va qiymatlarni formulaga qo'yib hisoblaymiz:

$$C = \frac{10 \cdot 5 \cdot 1}{46,03} = 1,09 \text{ mol/l. HCOOH}$$

$$X^2 = 1,8 \cdot 10^{-4} (1,09 - X);$$

$$X^2 + 1,8 \cdot 10^{-4} X - 1,95 \cdot 10^{-4} = 0$$

$$X = \frac{-1,8 \cdot 10^{-4} \pm \sqrt{(1,8 \cdot 10^{-4})^2 + 4(1 \cdot 1,95 \cdot 10^{-4})}}{2} = \frac{-1,8 \cdot 10^{-4} \pm 2,79 \cdot 10^{-2}}{2} = 1,3910 - 2 \text{ mol/l}$$

$$[H^+] = [HCOO^-]$$

$$pH = -\lg[H^+] = -\lg 1,93 \cdot 10^{-2} = -\lg 0,0139 = -( -2 + 0,1430) = 1,857 \approx 1,86$$

Uchinchi variant: Chumoli kislotaning 4,6 g/l ga teng bo'lgan konsentrasiyasini molyar konsentrsiyaga quyidagi formula yordamida o'tkazamiz:

$$C = \frac{C_3}{M_{HCOOH}} = \frac{4,6}{46,03} = 0,1 \text{ mol/l. HCOOH}$$

Shundan so'ng birinchi variant kabi echamiz:

$$K = \frac{X^2}{C - X}$$

$$1,8 \cdot 10^{-4} = \frac{X^2}{0,1 - X}$$

$$X^2 = 1,8 \cdot 10^{-4} (0,1 - X)$$

$$X^2 + 1,8 \cdot 10^{-4} X - 0,18 \cdot 10^{-4} = 0$$

$$X = \frac{-1,8 \cdot 10^{-4} \pm \sqrt{(1,8 \cdot 10^{-4})^2 + 4(1 \cdot 0,18 \cdot 10^{-4})}}{2} = \frac{-1,8 \cdot 10^{-4} \pm 8,48 \cdot 10^{-3}}{2} =$$

$$= 4,19 \cdot 10^{-3} \text{ mol/l}$$

$$[H^+] = [HCOO^-] = 4,19 \cdot 10^{-3} \text{ mol/l}$$

$$pH = -\lg[H^+] = -\lg 4,19 \cdot 10^{-3} = -\lg 0,00419 = -(3 + 0,6222) = 2,3778 \approx 2,38$$


### 3-masala

0,1m li  $\text{CH}_3\text{COOH}$  eritmasida  $\text{H}^+$  ionning muvozanat konsentrasiyasi  $1,3 \cdot 10^{-3}$  mol/l ga teng.  $\text{CH}_3\text{COOH}$  ning ionlanish konstantasi va dissosiasiya darajasi hisoblansin.

Berilgan:  $[H^+] = 1,3 \cdot 10^{-3}$  mol/l;  $S = 0,1$  mol/l

Topish kerak:  $\alpha_{\text{CH}_3\text{COOH}} = ?$ ,  $K_{\text{CH}_3\text{COOH}} = ?$

Yechish: ionlanish reaksiya tenglamasini yozamiz:



Shu reaksiyaning dissosiasiya konstantasi quyidagiga teng:

$$K = \frac{[H^+] \cdot [\text{CH}_3\text{COO}^-]}{[\text{CH}_3\text{COOH}]}$$

Reaksiya tenglamasi shuni ko'rsatadiki,

$$[H^+] = [\text{CH}_3\text{COO}^-] \quad [\text{CH}_3\text{COOH}] = C_{um} - C_{ionlangar}$$

$$K_{\text{CH}_3\text{COOH}} = \frac{[H^+] [\text{CH}_3\text{COO}^-]}{[\text{CH}_3\text{COOH}]} = \frac{1,3 \cdot 10^{-3} \cdot 1,3 \cdot 10^{-3}}{0,1 - 1,3 \cdot 10^{-3}} = \frac{1,69 \cdot 10^{-6}}{9,87 \cdot 10^{-2}} = 1,71 \cdot 10^{-5}$$

Elektrolitik dissosiasiya darajasini quyidagi formula yordamida hisoblaymiz:

$$\alpha_{\text{CH}_3\text{COOH}} = \sqrt{\frac{K}{C}};$$

$$\alpha_{\text{CH}_3\text{COOH}} = \sqrt{\frac{1,71 \cdot 10^{-5}}{0,1}} = 0,013 = 1,3\%$$


### 4-masala

Aktivlik koeffisientini inobatga olib, ushbu: 1) 0,1 m HF; 2) 0,2 m  $\text{CH}_3\text{COOH}$ ; 3) 0,5 m  $\text{HCOOH}$  eritmalarining dissosiasiya darajasi va pH i hisoblansin.

Berilgan:  $C_1 = 0,1$  m HF;  $C_2 = 0,2$  m  $\text{CH}_3\text{COOH}$ ; 3)  $C_3 = 0,5$  m  $\text{HCOOH}$

Topish kerak:  $\alpha = ?$ ,  $H = ?$

Yechish: HF ning dissosiasiya tenglamasini yozamiz:



HF ning dissosiasiya konstanta tenglamasi quyidagiga teng:

$$K_{HF} = \frac{[H^+][F^-]}{[HF]}$$

HF ning ionlanish konstantasini 6-jadvaldan aniqlaymiz:

$$K_{HF} = 6,8 \cdot 10^{-4}, \quad \mu = 0$$

Bu yerda ion kuchi ( $\mu$ ) nolga teng.

Konstanta tenglamasidan vodorod  $[H^+]$  ionining konsentrasiyasini aniqlaymiz  $[H^+] = [F^-]$ :

$$[H^+] = \sqrt{K_{HF} \cdot C_{HF}}; \quad [H^+] = \sqrt{6,8 \cdot 10^{-4} \cdot 0,1} = 8,25 \cdot 10^{-3} \text{ mol/l}$$

$[H^+]$  ionining taxminiy konsentrasiyasini bilgan holda eritmaning ion kuchini quyidagi formula yordamida aniqlaymiz:

$$\mu = \frac{1}{2} (C_{H^+} Z^2_{H^+} + C_{F^-} Z_{F^-}^2) = \frac{1}{2} (8,25 \cdot 10^{-3} \cdot 1^2 + 8,25 \cdot 10^{-3} \cdot 1^2) = 8,25 \cdot 10^{-3}$$

HF ning ionlanish konstantasini eritmaning topilgan ion kuchi bo'yicha Devis tenglamasi yordamida tekshirib ko'ramiz:

$$pK = pK_0 + \Delta Z^2 \cdot 0,5 \left( \frac{\sqrt{\mu}}{1 + \sqrt{\mu}} - 0,2\mu \right); \quad \text{bu yerda } \Delta Z^2 = \sum n Z^2_n + \sum m Z^2_{\text{soyu}}$$

n, m-stexiometrik koeffisientlar

Z-ion zaryadi.

$$\text{Bundan, } \Delta Z^2 = Z^2_{H^+} + Z^2_{F^-} + Z^2_{HF} = 1 + 1 - 0 = 2$$

Son qiymatlarni pK tenglamasiga qo'yib echamiz:

$$pK_{HF} = 3,17 + 2 \cdot 0,5 \left( \frac{\sqrt{8,25 \cdot 10^{-3}}}{1 + \sqrt{8,25 \cdot 10^{-3}}} - 0,2 \cdot 8,25 \cdot 10^{-3} \right) = 3,09;$$

$$K_{HF} = 8,12 \cdot 10^{-4}$$

Aktivlik koeffisienti hisobga olingan ionlanish konstantasining son qiymatidan foydalanib,  $N^+$  ioni konsentrasiyasini hisoblaymiz:


$$[H^+] = \sqrt{K_{HF} \cdot C_{HF}} = \sqrt{8,12 \cdot 10^{-4} \cdot 0,1} = 9,0 \cdot 10^{-3} \text{ mol/l}$$

$$\text{Shuningdek, } pH = -\lg[H^+] = -\lg 9,0 \cdot 10^{-3} = 2,05$$

Ostval'd qonuniga asosan ionlanish darajasini aniqlaymiz:

$$\alpha = \sqrt{\frac{K}{C}} = \sqrt{\frac{8,12 \cdot 10^{-4}}{0,1}} = 9,01 \cdot 10^{-2} = 9,01\%$$

Masalaning keyingi punktlaridagi mulohazalari o'xshash bo'lgani uchun faqat matematik hisoblarini keltiramiz.



$$K_{CH_3COOH} = \frac{[H^+] \cdot [CH_3COO^-]}{[CH_3COOH]},$$

$$K_{CH_3COOH} = 1,75 \cdot 10^{-5}; \quad \mu = 0$$

$$[H^+] = [CH_3COO^-]; \quad [CH_3COOH] \cong C$$

$[H^+]$  ning taxminiy konsentrasiyasini aniqlaymiz:

$$[H^+] = \sqrt{K_{CH_3COOH} \cdot C} = \sqrt{1,75 \cdot 10^{-5} \cdot 0,2} = 1,87 \cdot 10^{-3} mol/l$$

$$\mu = \frac{1}{2}(1,87 \cdot 10^{-3} \cdot 1^2 + 1,87 \cdot 10^{-3} \cdot 1^2) = 1,87 \cdot 10^{-3}$$

$CH_3COOH$  ning ionlanish konstantasini Devis tenglamasi bo'yicha hisoblaymiz:

$$pK = pK_0 + \Delta Z^2 \cdot 0,5 \left( \frac{\sqrt{\mu}}{1 + \sqrt{\mu}} - 0,2\mu \right);$$

$$\Delta Z^2 = \sum nZ^2_{kamuoh} + \sum mZ^2_{ahuo} - Z^2_{CH_3COOH} = 1 + 1 - 0 = 2$$


$$pK = 4,75 - 2 \cdot 0,5 \left( \frac{\sqrt{1,87 \cdot 10^{-3}}}{1 + \sqrt{1,87 \cdot 10^{-3}}} - 0,2 \cdot 1,87 \cdot 10^{-3} \right) = 7,75 - 0,041 = 4,709$$

$$K_{CH_3COOH} = 1,96 \cdot 10^{-5}$$

Bu holda,  $[H^+]$  ning konsentrasiyasi quyidagiga teng bo'ladi:

$$[H^+] = \sqrt{K \cdot C} = \sqrt{1,96 \cdot 10^{-5} \cdot 0,2} = 1,98 \cdot 10^{-3} mol/l$$

$$pH = -\lg[H^+] = -\lg 1,98 \cdot 10^{-3} = 2.70$$



$$K_{CHCOOH} = \frac{[H^+] \cdot [HCOO^-]}{[HCOOH]},$$

$$K_{CHCOOH} = 1,78 \cdot 10^{-5}; \quad \mu = 0$$

$$[H^+] = [HCOO^-]; \quad [HCOOH] = C$$

$[H^+]$  ning taxminiy muvozanat konsentrasiyasini aniqlaymiz:

$$[H^+] = \sqrt{1,78 \cdot 10^{-5} \cdot 0,5} = 9,434 \cdot 10^{-3} моль / л$$

$$\mu = \frac{1}{2}(9,434 \cdot 10^{-3} \cdot 1^2 + 9,434 \cdot 10^{-3} \cdot 1^2) = 9,434 \cdot 10^{-3}$$

$HCOOH$  ning ionlanish konstantasini Devis tenglamasi yordamida hisoblaymiz:

$$pK = pK_0 + \Delta Z^2 \cdot 0,5 \left( \frac{\sqrt{\mu}}{1 + \sqrt{\mu}} - 0,2\mu \right);$$

$$\Delta Z^2 = \sum nZ^2_{\text{kation}} + \sum nZ^2_{\text{anion}} - \sum mZ^2_{\text{HCOOH}} = 1+1-0=2$$

$$pK = 3,75 - 2 \cdot 0,5 \left( \frac{\sqrt{9,434 \cdot 10^{-3}}}{1 + \sqrt{9,434 \cdot 10^{-3}}} - 0,2 \cdot 9,434 \cdot 10^{-3} \right) = 3,6634$$

$$K = 2,17 \cdot 10^{-4}$$

Bu holda,  $[H^+]$  ning konsentrasiyasi quyidagiga teng bo'ladi:

$$[H^+] = \sqrt{2,17 \cdot 10^{-5} \cdot 0,5} = 1,04 \cdot 10^{-2} \text{ mol/l}$$

$$pH = -\lg[H^+] = -\lg 1,04 \cdot 10^{-2} = 1,98$$

$$\alpha = \sqrt{\frac{K}{C}} = \sqrt{\frac{2,17 \cdot 10^{-4}}{0,5}} = 2,083 \cdot 10^{-2} = 2,08\%$$


### 5-masala

0,02 n li kal'siy xlorid eritmasidagi  $\text{Ca}^{+2}$  va  $\text{Cl}^-$  ionlarining aktivligi nechaga teng?

Berilgan: C=0,02 H CaCl<sub>2</sub>

Topish kerak:  $a_{\text{Ca}^{+2}} = ?$   $a_{\text{Cl}^-} = ?$

Yechish: Kal'siy xloridning ionlanish reaksiyasini yozamiz:



$\text{CaCl}_2$  ning normal konsentrasiyasini molyar konsentrasiyaga o'tkazamiz:

$$M = \frac{C \cdot E}{\text{mol} \cdot \text{massasi}} = \frac{0,02 \cdot \frac{\text{mol massa}}{2}}{2} = 0,01 \text{ mol CaCl}_2$$

Demak, kal'siy ionining muvozanat konsentrasiyasi  $[\text{Ca}^{+2}] = 0,01 \text{ mol/l}$  ga, xlorid ionining muvozanat konsentrasiyasi  $[\text{Cl}^-] = 0,01 \text{ mol/l}$  ga teng. 0,01 m li  $\text{CaCl}_2$  eritmasidagi ionlarning konsentrasiyasini bilgan holda, eritmaning ion kuchini quyidagi tenglama yordamida hisoblash mumkin.

$$\mu = \frac{1}{2} \left( C_{\text{Ca}^{+2}} Z_{\text{Ca}^{+2}}^2 + C_{\text{Cl}^-} Z_{\text{Cl}^-}^2 \right)$$

$$\mu = \frac{1}{2} (0,01 \cdot 2^2 + 0,02 \cdot 1^2) = 0,03$$

Debay-Gyukkel formulasidan foydalanib,  $\text{Ca}^{+2}$  va  $\text{Cl}^-$  ionlarining aktivlik koeffisientini hisoblaymiz:

$$\lg f = -0,5 Z^2 \sqrt{\mu} = -0,5 \cdot 4 \sqrt{0,03} - 0,3464$$

$$f_{\text{Ca}^{+2}} = 0,4504 \approx 0,45$$

$$f_{\text{Cl}^-} = -0,5 \sqrt{0,03} = -0,0866$$

$$f_{\text{Cl}^-} = 0,819 \approx 0,82$$

Eritmadagi ionlarning aktivligini quyidagi formula yordamida hisoblaymiz:

$$a_{Ca^{+2}} = f_{Ca^{+2}} \cdot C_{Ca^{+2}} = 0,45 \cdot 0,01 = 4,5 \cdot 10^{-2} mol/l$$

$$a_{Cl^-} = f_{Cl^-} \cdot C_{Cl^-} = 0,82 \cdot 0,02 = 1,64 \cdot 10^{-2} mol/l$$

### 6-masala

8 gr natriy gidroksid 10 l suvda eritilgan. Eritmadagi gidroksid ionining aktivligi hisoblansin.

Berilgan:  $q_{NaOH}=8$  g;  $V_{H_2O}=10$  l

Topish kerak:  $a_{OH^-} = ?$

Yechish: Natriy gidroksidini ionlanish t`englamasini yozamiz:



Oldin natriy gidroksid eritmasining 1 l dagi mol` konsentrasiyasini aniqlaymiz. Ushbu reaksiyaga binoan eritmaning normal konsentrasiyasi molyar konsentrasiyaga tengdir.

$$T = \frac{q}{V}, C = \frac{T \cdot 1000}{\Theta}$$

$$C = \frac{8 \cdot 1000}{10000 \cdot 40} = 0,02n \approx 0,02m$$

Demak,  $[OH^-] = 0,02$  mol`/l ga teng. 0,02 m li NaOH eritmasining ion kuchini aniqlaymiz:

$$\mu = \frac{1}{2} \left( C_{Na^{+2}} Z_{Na^{+2}}^2 + C_{OH^-} Z_{OH^-}^2 \right) = \frac{1}{2} (0,02 \cdot 2^2 + 0,02 \cdot 1^2) = 0,02$$

$OH^-$  ionining aktivlik koeffisientini Debay-Gyukkel` formulasi yordamida aniqlaymiz:

$$\lg f_{OH^-} = -0,5Z^2 \sqrt{\mu} = -0,071$$

$$f_{OH^-} = 0,849 \approx 0,85$$

Shuningdek,  $OH^-$  ionining aktivligi quyidagicha bo`ladi

$$a_{OH^-} = f_{OH^-} \cdot C = 0,85 \cdot 0,02 = 1,7 \cdot 10^{-2} mol/l OH^-$$

### 7-masala

0,1 m li vodorod sianid kislota eritmasini 10 marta suyultirsak, ionlanish darajasi qanday o`zgaradi?

Berilgan: C=0,1 m HCN 10 marta suyultirilgan.

Topish kerak:

$$\frac{\alpha_2}{\alpha_1} = ?$$

Yechish:



Vodorod sianid kislotasining konsentrasiyalariga qarab, ionlanish darajalarini ( $\alpha_1$  va  $\alpha_2$ ) quyidagi formula yordamida hisoblaymiz:

$$\alpha = \sqrt{\frac{K}{C}}$$

6-jadvaldan HCN ning ionlanish konstantasini aniqlaymiz:

$$K_{HCN} = 6,5 \cdot 10^{-10}$$

Ostval`dning suyultirish qonuniga asosan ionlanish darajasini hisoblaymiz:

$$\alpha_1 = \sqrt{\frac{K}{C}} = \sqrt{\frac{6,5 \cdot 10^{-10}}{0,1}} = \sqrt{65 \cdot 10^{-10}} = 8,07 \cdot 10^{-5}$$

$$\text{yoki } 8,07 \cdot 10^{-5} \cdot 100\% = 0,008\%$$

HCN eritmasini 10 marta suyultirsak, uning konsentrasiyasi 0,01 m ga teng bo'ladi.

$\alpha_1$  ga o'xshash  $\alpha_2$  ni hisoblaymiz:

$$\alpha_2 = \sqrt{\frac{K}{C}} = \sqrt{\frac{6,5 \cdot 10^{-10}}{0,01}} = \sqrt{6,5 \cdot 10^{-8}} = 2,55 \cdot 10^{-4}$$

$$\text{yoki } 2,55 \cdot 10^{-4} \cdot 100\% = 0,026\%$$

Shundan kelib chiqib, ionlanish darajalarining nisbatlari quyidagiga teng bo'ladi:

$$\frac{\alpha_2}{\alpha_1} = \frac{0,026}{0,008} = \frac{26}{8} = 3,25 \quad \text{ya'ni ionlanish darjasи 3,25 marta oshar ekan.}$$


## 8-masala

0,1 m li vodorod sul`fid eritmasining I va II bosqichlar bo'yicha dissosiasiya darjasи hisoblansin.

Berilgan: C=0,1m li H<sub>2</sub>S

Topish kerak:  $\alpha_1 = ?$     $\alpha_2 = ?$

Yechish: N<sub>2</sub>S ning bosqichli ionlanishini yozamiz:



Ostval`dning suyultirish qonuniga asosan H<sub>2</sub>S eritmasining bosqichli ionlanish darajalarini hisoblaymiz:

$$\alpha = \sqrt{\frac{K}{C}} \text{ bundan } \alpha_1 = \sqrt{\frac{K_1}{C}} ; \quad \alpha_2 = \sqrt{\frac{K_2}{C}}$$

6-jadvaldan  $\text{H}_2\text{S}$  ning bosqichli ionlanish konstantasini aniqlaymiz:

$$K_{\text{HCN}}=6,5 \cdot 10^{-10}$$

$$\alpha_1 = \sqrt{\frac{K}{C}} = \sqrt{\frac{6,5 \cdot 10^{-10}}{0,1}} = \sqrt{65 \cdot 10^{-10}} = 8,07 \cdot 10^{-5}$$

$$\alpha_2 = \sqrt{\frac{K}{C}} = \sqrt{\frac{1,3 \cdot 10^{-13}}{0,1}} = \sqrt{1,3 \cdot 10^{-12}} = 1,14 \cdot 10^{-6} \text{ yoki}$$

$$1,14 \cdot 10^{-6} \cdot 100\% = 1,14 \cdot 10^{-4}\% = 0,0001\%$$


## 9-masala

0,01 m li  $\text{NH}_3$  eritmasidagi vodorod ionining muvozanat konsentrasiyasi hisoblansin.

Berilgan:  $C=0,01 \text{ m NH}_3$

Topish kerak:  $[\text{H}_3\text{O}^+]=?$

Yechish: Ammiak eritmasidagi ammiakning ionlanish reaksiyasini yozamiz:



Ionlanish reaksiyaning muvozanat konstanta tenglamasi quyidagiga teng:

$$K = \frac{[\text{NH}_4^+] \cdot [\text{OH}^-]}{[\text{NH}_3]}$$

Muvozanat tenglamasiga binoan ammoniy va gidroksil ionlarining muvozanat konsentrasiyalari bir-biriga teng, ya`ni  $[\text{NH}_4^+] = [\text{OH}^-] = X$  deb olsak, u holda ammiak molekulasining ionlangan konsentrasiyasi  $[\text{NH}_3] = C - X$  ga teng bo'ladi:

$$K = \frac{X^2}{C - X} \text{ teng.}$$

6-jadvalga asosan ammiakning eritmadiagi ionlanish konstantasi  $1,76 \cdot 10^{-5}$ . Tenglamadagi kattaliklarning son qiymatlarini tenglamaga qo'yib, X ga nisbatan echamiz:

$$1,8 \cdot 10^{-4} = \frac{X^2}{0,03 - X}$$

$$X^2 = 1,8 \cdot 10^{-4} (0,03 - X)$$

$$X^2 + 1,8 \cdot 10^{-4} X - 5,4 \cdot 10^{-6} = 0$$

$$X = \frac{-1,76 \cdot 10^{-5} \pm \sqrt{(1,76 \cdot 10^{-5})^2 + 4 \cdot 1,76 \cdot 10^{-7}}}{2} = \frac{-1,76 \cdot 10^{-5} \pm 8,4 \cdot 10^{-4}}{2} = \\ = 8,224 \cdot 10^{-4} \text{ mol/l} [\text{OH}^-]$$

Suvning ion ko'paytmasi tenglamasidan vodorod ionining muvozanat konsentrasiyasini hisoblaymiz:

$$[OH^-] \cdot [H_3O^+] = K_{H_2O} = 1,0 \cdot 10^{-14}$$

$$[H_3O^+] = \frac{K_{H_2O}}{[OH^-]} = \frac{1,00 \cdot 10^{-14}}{8,224 \cdot 10^{-4}} = 1,21 \cdot 10^{-11} mol/l$$

### 10-masala


$1,0 \cdot 10^{-2}$  m li anlin gidroxlorid eritmasidagi vodorod ionining muvozanat konsentrasiyasi hisoblansin.

Berilgan: C=0,01 m  $C_6H_5NH_3Cl$

Topish kerak:  $[H_3O^+] = ?$

Yechish: Birinchi variant.

Anilin gidroxlorid suvli eritmada  $Cl^-$  va  $C_6H_5NH^+$  ionlarga to'liq dissosialangan bo'ladi.  $C_6H_5NH^+$  kationi o'z navbatda kuchsiz elektrolit kabi dissosialanadi:



Yuqorida ko'rsatilgan gidroliz reaksiyasining muvozanat tenglamasi quyidagiga teng:

$$K_a = \frac{[C_6H_5NH_2] \cdot [H_3O^+]}{[C_6H_5NH^+]}$$

Ushbu adabiyotda

$C_6H_5NH_3^+$  uchun muvozanat konstanta qiymati berilmagan, lekin anilinning ionlanish konstatasi berilgan. ( $K_v = 3,31 \cdot 10^{-10}$ )

Anilinning gidrolizlanish tenglamasini yozamiz:



Shu reaksiyaning ionlanish konstanta tenglamasini yozamiz:

$$K_e = \frac{[C_6H_5NH_3^+] \cdot [OH^-]}{[C_6H_5NH_2]}$$

$K_a$  va  $K_e$  qiymatlarni bir-biriga ko'paytirib,  $[C_6H_5NH_2]$  va  $[C_6H_5NH_3^+]$  larning muvozanat konsentrasiyalarini qisqartiramiz:

$$K_a K_e = \frac{[C_6H_5NH_2] \cdot [H_3O^+] \cdot [C_6H_5NH_3^+] \cdot [OH^-]}{[C_6H_5NH^+] \cdot [C_6H_5NH_2]} = [H_3O^+] \cdot [OH^-]$$

ya'ni,

$$K_a K_e = K_{H_2O}$$

$$\text{Bundan, } K_a = \frac{K_{H_2O}}{K_e} = \frac{1,0 \cdot 10^{-14}}{3,31 \cdot 10^{-10}} = 3,02 \cdot 10^{-5}$$

Tenglama (1) dan  $[H_3O^+]$  va anlin bir-biriga teng bo'lganidan:

$[H_3O^+] = [C_6H_5NH_2] = X$  ga teng deb olsak, u holda  $[C_6H_5NH_3^+] = C - X$  ga teng bo'ladi. Bu qiymatlarni  $K_a$  tenglamasiga qo'yib X ga nisbatan echaniz:

$$K_a = \frac{X^2}{C - X};$$

$$3,02 \cdot 10^{-5} = \frac{X^2}{0,01 - X}$$

$$X^2 + 3,02 \cdot 10^{-5} - 3,02 \cdot 10^{-7} = 0$$

$$X = \frac{-3,02 \cdot 10^{-5} \pm \sqrt{(3,02 \cdot 10^{-5})^2 + 4 \cdot 3,02 \cdot 10^{-7}}}{2} = \frac{-3,02 \cdot 10^{-5} \pm \sqrt{9,12 \cdot 10^{-10} + 1,2 \cdot 10^{-6}}}{2} = \\ = \frac{-3,02 + 1,1 \cdot 10^{-5} 3}{2} = 5,35 \cdot 10^{-4} \text{ mol/l } [H_3O^+]$$

### Ikkinchi variant.

Amaliyotda ko'pincha taxminiy tenglash usulidan foydalaniladi ya'ni (1) tenglamadan  $[H_3O^+] = [C_6H_5NH_2] = X$  teng deb olsak, X ning qiymati juda kichik bo'lganligidan  $[C_6H_5NH_3^+] = C - X \approx C$  ga teng deb olamiz, u holda

$$K_a = \frac{[H_3O^+]^2}{0,01};$$

$$[H_3O^+] = \sqrt{3,02 \cdot 10^{-5} \cdot 0,01} = 5,35 \cdot 10^{-4} \text{ mol/l}$$

Ikkinchi variantning birinchi variant bo'yicha nisbiy xatoligini hisoblaymiz:

$$E = \frac{[H_3O^+]_1 - [H_3O^+]_2}{[H_3O^+]_1} \cdot 100\% = \left( \frac{5,35 \cdot 10^{-4} - 5,5 \cdot 10^{-4}}{5,35 \cdot 10^{-4}} \right) \cdot 100 = \frac{0,15 \cdot 10^{-4}}{5,35 \cdot 10^{-4}} \cdot 100 = 2,8\%$$

## 11-masala

Tarkibida 0,01 m natriy bromid va 0,01 m alyuminiy bromid bo'lgan eritmadiji bromid – ionning aktivligi hisoblansin.

Berilgan:  $C_1 = 0,01 \text{ mol/l}$ ;  $C_2 = 0,01 \text{ m}$

Topish kerak:  $a_{Br^-} = ?$

Yechish: NaBr va AlBr larning ionlanish tenglamasini yozamiz:



Eritmadagi ion-kuchini quyidagi formula yordamida hisoblaymiz:

$$\mu = \frac{1}{2} \left( C_{Na^+} Z_{Na^+}^{-2} + C_{Br^-} Z_{Br^-}^{-2} + C_{Al^{+3}} Z_{Al^{+3}}^{-2} + C_{Br^-} Z_{Br^-}^{-2} \right)$$

Natriy broimdda natriy va brom ionlarining konsentrasiyalari  $[Na^+] = [Br^-] = 0,01 \text{ mol/l}$  ga teng, alyuminiy bromidda alyuminiy ionining konsentrasiyası  $0,01 \text{ mol/l}$  ga,

brom ionining konsentrasiyasi  $0,01 \cdot 3 = 0,03$  mol/l ga teng. Shundan kelib chiqib:

$$\mu = \frac{1}{2} (0,01 \cdot 1^2 + 0,01 \cdot 1^2 + 0,01 \cdot 3^2 + 0,03 \cdot 1^2) = 0,07$$

Debay-Gyukkel` formulasi yordamida (suyultirilgan eritmalar uchun) bromid-ionining aktivlik koeffisientini aniqlaymiz:

$$\lg f_{OH^-} = -0,5Z^2 \sqrt{\mu} = -0,5 \cdot 1 \sqrt{0,07} = -0,13229$$

$$f = 0,7373 \approx 0,74$$

Eritmadagi bromid-ionining umumiy konsentrasiyasi  $0,01 + 0,03 = 0,74 \cdot 0,04 = 0,0296 \approx 0,03$  mol/l

Konsentrangshan eritmalar uchun Debay-Gyukkel`ning formulasi yordamida bromid-ionining aktivlik koeffisientini aniqlab ko'ramiz:

$$\lg f = \frac{-0,5Z^2 \sqrt{\mu}}{1 + \sqrt{\mu}} = -0,1046; f = 0,78$$

$$a = f \cdot C = 0,78 \cdot 0,04 = 0,0312 \text{ mol/l}$$

## 12-masala

Agar toza suvning haroratini  $10^\circ\text{C}$  dan  $25^\circ\text{C}$  gacha ko'tarsak, ionlarning soni necha marta ortadi?

Berilgan:  $t_1 = 10^\circ\text{C}$ ;  $t_2 = 25^\circ\text{C}$

Topish kerak:  $\frac{[H^+]_2}{[H^+]_1} = \frac{[OH^-]_2}{[OH^-]_1} = ?$

Yechish: Suvning ionlanish reaksiyasini yozamiz:



$$K_{H_2O} = [H^+] \cdot [OH^-]$$

$$K^a_{H_2O} = a_{H^+} \cdot a_{OH^-}$$

Haroratning o'zgarishi bilan suvning ko'paytmasi o'zgaradi. Masalan,  $10^\circ\text{C}$  da  $K_{H_2O} = 0,3 \cdot 10^{-14}$  ga teng,  $25^\circ\text{C}$  da  $K_{H_2O} = 1,0 \cdot 10^{-14}$  (Jadval 7). Shundan kelib chiqib,  $[H^+]_1 = [OH^-]_2 = \sqrt{1 \cdot 10^{-14}} = 0,5477 \cdot 10^{-7} \approx 0,55 \cdot 10^{-7}$  mol/l.

$$\frac{[H^+]_2}{[H^+]_1} = \frac{[OH^-]_2}{[OH^-]_1} = \frac{1,0 \cdot 10^{-7}}{0,55 \cdot 10^{-7}} = 1,818 \approx 1,82$$

Demak, toza suvning harorati  $10^\circ\text{C}$  dan  $25^\circ\text{C}$  gacha ko'tarilganda ionlarning soni 1,82 martaga oshar ekan.


## 13-masala

pH=2 ga teng bo'lgan 10 ml HCl ini 4 ga etkazish uchun eritmaning hajmini necha millitrgacha suyultirish kerak?

Berilgan:  $V_1=10 \text{ ml}$ ;  $\text{pH}_1=2$ ;  $\text{pH}_2=4$

Topish kerak:  $V_2=?$

Yechish: Masalaning shartidan kelib chiqib,  $\text{HCl}$  ning ionlanish tenglamasini yozamiz:



$$\text{pH}_1 = -\lg[\text{H}^+] = 2; [\text{H}^+]_1 = 10^{-\text{pH}} = 1 \cdot 10^{-2} \text{ mol/l}$$

$$\text{pH}_2 = -\lg[\text{H}^+] = 4; [\text{H}^+]_2 = 10^{-\text{pH}} = 1 \cdot 10^{-4} \text{ mol/l}$$

$\text{HCl}$  ning dissosiasiya tenglamasiga ko'ra ( $\alpha=1$ )  $[\text{H}^+] = [\text{Cl}^-] = C_{\text{HCl}}$

$C_1=0,01 \text{ mol/l HCl};$

$C_2=0,0001 \text{ mol/l HCl}$

$\text{HCl}$  ning pH i 4 ga teng bo'lishi uchun eritmani necha millitrga suyultirish kerakligini quyidagi tenglikdan aniqlash mumkin:

$$\frac{C_2}{C_1} = \frac{V_1}{V_2};$$

$$\frac{0,0001}{0,01} = \frac{10}{X};$$

$$X = \frac{0,01 \cdot 10}{0,0001} = 1000 \text{ ml}$$

Demak, eritmaning hajmini 1000 ml gacha suyultirish kerak.


#### Masala14

Quyida keltirilgan eritmalarining birinchi bosqich elektrolitik dissosiasiya konstantasi bo'yicha pH i hisoblansin.

Berilgan:  $C_1=0,1 \text{ mol/l H}_3\text{BO}_3$ ;  $C_1=0,1 \text{ mol/l H}_2\text{O}_2$

Topish kerak:  $\text{pH}_1=?$ ;  $\text{pH}_2=?$

Yechish:



Yuqorida ko'rsatilgan dissosiasiya tenglamalarining muvozant konstantalari quyidagiga teng:

$$K_1 = \frac{[\text{H}^+] \cdot [\text{H}_2\text{BO}_3^-]}{[\text{H}_3\text{BO}_3]}, \quad K_2 = \frac{[\text{H}^+] \cdot [\text{HO}_2^-]}{[\text{H}_2\text{O}_2]}$$

Adabiyot ma'lumotlariga asosan,  $K_1=5,75 \cdot 10^{-10}$ ,  $K_2=2,0 \cdot 10^{-12}$

Dissosiasiya tenglamasidan kelib chiqib, vodorod ionining konsentrasiyasini  $[\text{H}^+] = [\text{H}_2\text{BO}_3^-] = X_1$  ga,  $[\text{H}^+] = [\text{HO}_2^-] = X_2$  ga ionlanmagan molekulalarning konsentrasiyasini  $[\text{H}_2\text{BO}_3^-] \approx C_1$  ga,  $[\text{H}_2\text{O}_2] \approx C_2$  ga teng deb olsak, u holda

$$X_1 = [H^+]_1 = \sqrt{\frac{K_1}{C_1}} = \sqrt{\frac{5,75 \cdot 10^{-10}}{0,1}} = \sqrt{5,75 \cdot 10^{-10}} = 7,6 \cdot 10^{-6} \text{ mol/l}$$

$$X_2 = [H^+]_2 = \sqrt{\frac{K_2}{C_2}} = \sqrt{\frac{2,0 \cdot 10^{-12}}{0,1}} = \sqrt{2,0 \cdot 10^{-12}} = 4,48 \cdot 10^{-7} \text{ mol/l}$$

Bundan,

$$pH_1 = -\lg[H^+]_1 = -\lg 7,6 \cdot 10^{-6} = 5,12;$$

$$pH_2 = -\lg[H^+]_2 = -\lg 4,48 \cdot 10^{-7} = 6,36;$$


## 15-masala

Agar konsentrasiyasi  $10^{-5}$  mol/l ga teng bo'lgan NaOH eritmaning 1 litriga 0,001 mol/l. a) NaOH; b) HCl qo'shilsa, eritmaning pH i necha birlikka o'zgaradi?

Berilgan:  $C=1 \cdot 10^{-5}$  mol/l NaOH;  $V=1000$  ml;  $C_2=0,001$  mol/l NaOH;  $C_2=0,001$  mol/l HCl.

Topish kerak:  $(pH_1 - pH_0) = ?$ ;  $(pH_2 - pH_0) = ?$

Yechish:



$$[OH^-] = 1 \cdot 10^{-5} \text{ mol/l}; \quad -\lg[OH^-] = pOH = 5$$

Bizga ma'lumki,  $pH=14-pOH$  ga teng, bundan  $pH_0=14-pOH=14-5=9$ ;

a) variant uchun

$$[OH^-] = 1 \cdot 10^{-3} \text{ mol/l}$$

$$pH_1 = 14 - (-\lg 10^{-3}) = 14 - 3 = 11$$

$$pH_1 - pH = 11 - 9 = 2$$

Demak, birlamchi NaOH eritmasidan qo'shilsa, tekshirilayotgan eritmaning pH i 2 birlikka oshar ekan.

b) variant uchun

$$pH_2 = -\lg[H^+] = -\lg 10^{-3} = 3$$

$$pH_2 - pH_0 = 3 - 9 = -6$$

Demak, birlamchi NaOH eritmaga 0,001 mol/l HCl eritmasi qo'shilsa, tekshirilayotgan eritmaning pH i 6 birlikka kamayar ekan.

## V – bob. Gidroliz va amfoterlik


### 5.1. Gidroliz

Tahlilda tuzlarning gidrolizi nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo'lib, gidroliz jarayonni o'rGANISH qator murakkab jarayonlarning echimini aniqlashga yordam beradi. Gidroliz reaksiyalardan kation va anionlarni ochishda xususiy reaksiyalar sifatida,

Shuningdek eritmalarning pH va pOH muhitlarini muvozanatda ushlab turishda (regulyator sifatida) va boshqalarda foydalaniladi.

Gidrolizga misol qilib, har xil kimyoviy birikmalarni, ya`ni tuzlar, gidridlar, nitridlar va boshqa organik birikmalarni olish mumkin.


Suv tarkibida  $H^+$  va  $OH^-$  ionlari bilan barcha ionlanmagan molekulalari ham bo`lib, ular o`zaro muvozanatda bo`ladilar:



Agar suvda tuz yoki boshqa moddalar erigan bo`lsa, ularning suv ionlari bilan ularning o`zaro ta`sirlashishi natijasida muvozanat o`zgaradi. Tuz ionlarining suv ionlari bilan o`zaro reaksiyaga kirishishiga- gidroliz deb ataladi. Bu neytrallash reaksiyaga teskari bo`lgan jarayondir. Har xil kimyoviy birikmalar har xil gidrolizga uchraydi. Arreniusning elektrolitik dissosiasiya nazariyasiga asosan – bu gidrolizlanuvchi tuzning kation va anionlari yordamida suvning vodorod va gidroksil ionlarini bog`lash jarayonidir. Protolitik nazariyaga asosan gidratlangan kationlar kislota vazifasini bajarsa, kislota anionlari esa asos vazifasini bajaradilar. Suv esa amfiprot modda turkumiga kiradi.

Tuz turkumiga kiruvchi gidridlar ( $NaH$ ,  $KH$ ,  $RbH$ ,  $CsH$ ,  $CaH_2$ ,  $CrH_2$ , va boshqalar) gidrolizga uchrab, erkin vodorod ajralib chiqadi, hamda metallarning gidratlangan ioni va gidroksil ionlari hosil bo`ladi:



Masalan,




Shuningdek, boshqa misollarni keltirish mumkin, masalan, azot gidridini olsak, u suv bilan reaksiyaga kirishib, ammoniy gidroksidini hosil qiladi:



Oksidlarning gidrolizi:



Kaliy sul`fidning gidrolizi va boshqalar:




Odatda uch xil tuzlar gidrolizga uchraydi:

1. Kuchli asos va kuchsiz kislotadan hosil bo`lgan tuzlar gidrolizga uchraydi.




Bunday tuzlarning gidrolizini anion bo`yicha gidroliz deyiladi va eritmaning pH muhiti ishqoriy bo`ladi.

Bu turga kiruvchi ko'p asosli tuzlar bosqichli gidrolizlanadi. Bunda asosan gidroliz birlamchi bosqichda keyingi bosqichlarga nisbatan kuchli boradi. Masalan:




2. Kuchli kislota va kuchsiz asosdan hosil bo'lgan tuzlar gidrolizga uchraydi. Masalan,



Bunday tuzlarning gidrolizini kation bo'yicha gidroliz deyiladi va eritmaning pH muhiti kislotali bo'ladi.


3. Kuchsiz asos va kuchsiz kislotadan hosil bo'lgan tuzlar gidrolizga uchraydi. Bunday tuzlarga misol qilib, ammoniy, temir, alyuminiy, mis ionlarining karbonatlari, asetalrasi, sianidlarini va boshqalarni olish mumkin. Bunday tuzlarning gidrolizlanishi natijasida avval gidroksoakovkompleks, so'ngra gidratlangan ionlar hosil bo'ladi.

Masalan,




Gidroliz jarayoni ham kation ham anion bo'yicha uch bosqichda boradi.


I bosqich gidrolizi:




II bosqich gidrolizi:



III bosqich gidrolizi:



Anion bo'yicha gidrolizi:




Eritmaning pH i gidroliz natijasida hosil bo'lgan kislota va asoslarning kuchiga bog'liq bo'ladi. Bizning misolimizda eritmaning pH i kuchsiz kislotali bo'ladi, chunki asos ( $K=1,38 \cdot 10^{-9}$ ) kislotaga ( $K=1,75 \cdot 10^{-5}$ ) nisbatan ancha kuchsizdir. Bunday jarayoni kation va anion bo'yicha gidrolizi deyiladi. Miqdoriy jihatdan gidroliz qaytar jarayon bo'lib, ikki kattalik bilan xarakterlanadi: gidroliz konstantasi va gidroliz darajasi. Gidroliz konstantasi deb, gidroliz natijasida hosil bo'lgan modda konsentrasiyalari ko'paytmasini gidrolizlanmagan tuz ionlarining konsentrasiyalariga nisbatiga aytildi.

$$K = \frac{C_{gidr}}{C_{um}}$$

Gidrolizlanuvchi tuz eritmalarining gidroliz konstantasi ( $K_{gidr}$ ), gidroliz darajasi ( $\alpha$ ) va pH ini hisoblash tenglamalari bilan misollar yordamida tanishib chiqamiz:

1. Bir asosli kuchsiz kislota va kuchli asosdan hosil bo'lgan tuz (HAn) faqat anion bo'yicha gidrolizlanadi:



Bunday tuz uchun gidroliz konstantasi tenglamasining oxirgi ifodasi quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

$$K_{gidr} = \frac{K_{H_2O}}{K_{HAn}}$$

Bunday tuzning konsentrasiyasini C (mol/l) ga teng deb olsak, gidroliz darajasi (agar 10% kichik bo'lsa) quyidagi tenglama bilan ifodalanadi:

$$\alpha = \sqrt{\frac{K_{gidr}}{C}} = \sqrt{\frac{K_{H_2O}}{CK_{HAn}}}$$

Gidrolizlangan tuz eritmasining pH i quyidagi tenglama bilan ifodalanadi:

$$pH = \frac{1}{2} pK_{H_2O} + \frac{1}{2} pK_{HAn} + \frac{1}{2} \lg C$$

Agar gidroliz darajasi 10% dan katta bo'lsa, u holda  $\alpha$  va pH kattaliklar ancha aniq formulalar yordamida hisoblanadi:

$$\alpha = \frac{-K_{H_2O}}{2CK_{HAn}} + \sqrt{\left(\frac{-K_{H_2O}}{2CK_{HAn}}\right)^2 + \frac{K_{H_2O}}{CK_{HAn}}};$$

$$pH = pK_{H_2O} - pOH = pK_{H_2O} - p(C \cdot \alpha)$$

2) Bir asosli kuchli kislota va kuchsiz asosdan hosil bo'lgan tuz (masalan NH<sub>4</sub>OH) faqat kation bo'yicha gidrolizlanadi:



Bunday tuz uchun gidroliz konstanta tenglamasining oxirgi ifodasi quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

$$K_{gidr} = \frac{K_{H_2O}}{K_{NH_4OH}}$$

Gidroliz darajasi (agar 10% dan kichik bo'lsa) quyidagi tenglama orqali ifodalanadi:

$$\alpha = \sqrt{\frac{K_{H_2O}}{C}} = \sqrt{\frac{K_{H_2O}}{CK_{NH_4OH}}};$$

Gidrolizlangan tuz eritmasining pH i quyidagi tenglama orqali ifodalanadi:


$$pH = \frac{1}{2} pK_{H_2O} - \frac{1}{2} pK_{NH_4OH} - \frac{1}{2} \lg C$$

Agar gidroliz darajasi 10% dan katta bo'lsa, u holda ( $\alpha$ ) va pH kattaliklar ancha aniq formulalar yordamida hisoblanadi:

$$\alpha = \frac{-K_{H_2O}}{2CK_{NH_4OH}} + \sqrt{\left(\frac{K_{H_2O}}{2CK_{NH_4OH}}\right)^2 + \frac{K_{H_2O}}{CK_{NH_4OH}}};$$

$$pH = pK_{H_2O} - p(C \cdot \alpha)$$

3) Kuchsiz kislota va kuchsiz asosdan hosil bo'lgan tuz (masalan  $CH_3COONH_4$ ) ham kation ham anion bo'yicha gidrolizlanib, reaksiya tenglamasi quyidagi ko'rinishda bo'ladi:



Gidroliz konstanta formulasi quyidagicha yoziladi:

$$K_{gidr} = \frac{K_{H_2O}}{K_{CH_3COOH} \cdot K_{NH_4OH}}$$

Gidroliz darajasi (agar  $\alpha < 1$  bo'lsa)

$$\alpha = \sqrt{K_{gidr}},$$

$$\text{Agar } \alpha > 1 \text{ bo'lsa, } \alpha = \frac{\sqrt{K_{gidr}}}{1 + \sqrt{K_{gidr}}}$$

Eritmaning pH i quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$pH = \frac{1}{2} pK_{H_2O} + \frac{1}{2} pK_{CH_3COOH} - \frac{1}{2} pK_{NH_4OH}$$


## 5.2. Amfoterlik

Bizga ma'lumki, tipik metallarning gidroksidlari asos xususiyatlarini namoyon etsa, nometallar va yuqori oksidlanish darajalariga ega bo'lgan ayrim metallar (marganes, xrom, vanadiy va boshqalar)ning gidroksidlari kislotali xususiyatlarni namoyon etadilar. Shunday gidroksidlар ham borki, ham kislota, ham asos xususiyatlarini namoyon etadi. Bunday gidroksidlarni amfoter gidroksidlар deyiladi. Elektrolitlarning ma'lum sharoitda boradigan reaksiyalarda kislota va asos xususiyatlarini namoyon etishiga amfoterlik deyiladi. Amfoter birikmaga misol qilib, suvni ham olish mumkin. Suvning o'zi quyidagi sxema bo'yicha ionlarga parchalanib, eritmada gidroksoniya va gidroksil ionlarini hosil qiladi:




Har qanday kislota yoki asosni ma'lum darajada amfoter birikma deyish mumkin. Tipik amfoter xususiyatlarini namoyon etuvchi amfoter elektrolitlarga misol qilib, quyidagi gidroksidlarni olish mumkin:

$\text{Be}(\text{OH})_2$ ,  $\text{Al}(\text{OH})_3$ ,  $\text{Cr}(\text{OH})_2$ ,  $\text{Zn}(\text{OH})_2$ ,  $\text{Ga}(\text{OH})_3$ ,  $\text{Jn}(\text{OH})_3$ ,  $\text{As}(\text{OH})_3$ ,  $\text{Sb}(\text{OH})_3$ ,  $\text{Pb}(\text{OH})_2$ ,  $\text{Sn}(\text{OH})_2$  va boshqalar. Agar berilliy gidroksidini kislotada eritsak, u asos xususiyatini namoyon etib, kislotalarda eriydi:



Lekin u kislotali xususiyatni ham namoyon etib ishqorlarda eriydi:



Amfoter gidroksidlar kislota ( $K_{\text{kislota}}$ ) va asos ( $K_{\text{asos}}$ ) bo'yicha ionlanish konstanta kattaliklariga ega bo'lib, bu kattaliklarning qiymatlariga qarab, ularning kislotali va asos xususiyatlarini ko'proq namoyon etishini bilib olish mumkin. Masalan, rux gidroksidining ionlanish konstantalari  $K_{\text{Zn(OH)}_2} = 1,5 \cdot 10^{-9}$  va  $K_{\text{H}_2\text{ZnO}_2} = 7,1 \cdot 10^{-12}$  larga teng.

Bu qiymatlardan rux gidroksidining asos xususiyati kislotali xususiyatidan katta ekanligini ko'rsatadi.

### 5.3. Gidroliz va amfoterlikka oid namunaviy masalalar

#### 1-masala

0,01 n li KSN eritmasining gidroliz konstantasi va gidroliz darajasini hisoblang.

Berilgan:  $C=0,01$  n KSN

Topish kerak:  $K_{\text{gidr}} = ? a_{\text{gidr}}^- = ?$

Yechish: KSN ning anion bo'yicha gidrolizi reaksiyasini yozamiz:



$$K_{\text{gidr}} = \frac{[\text{HCN}] \cdot [\text{OH}^-]}{[\text{CN}^-]} = \frac{K_{\text{H}_2\text{O}}}{K_{\text{HCN}}} = \frac{1 \cdot 10^{-14}}{6,2 \cdot 10^{-10}} = 1,6 \cdot 10^{-5}$$

Gidroliz darajasini quyidagi formula yordamida hisoblaymiz:

$$\alpha_{\text{gidr}} = \sqrt{\frac{K_{\text{H}_2\text{O}}}{C \cdot K_{\text{HCN}}}} = \sqrt{\frac{1 \cdot 10^{-14}}{0,01 \cdot 6,2 \cdot 10^{-10}}} = \sqrt{16,12 \cdot 10^{-4}} = 4,015 \cdot 10^{-2} = 0,0401 \approx 4,01\%$$

#### 2-masala

Qo'rg'oshin asetatning I bosqich bo'yicha ionlanish konstantasi  $K_{[\text{Pb}(\text{OH})]^{+}} = 3,8 \cdot 10^{-8}$  ga teng. Gidroliz konstantasi va gidroliz darajasi hisoblansin

Berilgan:  $K_{[\text{Pb}(\text{OH})]^{+}} = 3,8 \cdot 10^{-8}$

Topish kerak:  $K_{\text{gidr}} = ? a_{\text{gidr}}^- = ?$

Yechish:  $\text{Pb}(\text{CH}_3\text{COO})_2$  tuzi ham kation ham anion bo'yicha gidrolizlanadi.  $\text{Pb}(\text{CH}_3\text{COO})_2$  ning I bosqich gidroliz tenglamasini yozamiz:



I bosqich bo'yicha gidroliz konstantasini quyidagi formula yordamida hisoblaymiz:

$$K_{gidr} = \frac{K_{H_2O}}{K_{CH_3COOOH} \cdot K_{[Pb(OH)]}}$$

$$6- \text{ va } 7- \text{ jadvallar bo'yicha } K_{H_2O} = 1 \cdot 10^{-14} \quad K_{CH_3COOOH} = 1,75 \cdot 10^{-5}$$

$$K_{gidr} = \frac{1 \cdot 10^{-14}}{1,75 \cdot 10^{-5} \cdot 3,8 \cdot 10^{-8}} = 1,91 \cdot 10^{-2}$$

Gidroliz darajasini quyidagi formula yordamida hisoblaymiz:

$$\alpha_{gidr} = \sqrt{K_{gidr}} = \sqrt{1,91 \cdot 10^{-2}} = 0,138 \approx 13,8\%$$


### 3-masala

0,05 m li ammoniy xlorid eritmasining pH i va pOH i hisoblansin.

Berilgan: C=0,05 NH<sub>4</sub>Cl

Topish kerak: pH =? pOH =?

Yechish: NH<sub>4</sub>Cl tuzi kation bo'yicha gidrolizlanadi:



Gidroliz nazariyasiga asosan NH<sub>4</sub>Cl tuzi eritmasini quyidagi formula yordamida hisoblaymiz:

$$pH = 7 - \frac{1}{2} pK_{NH_4OH} - \frac{1}{2} \lg C_{NH_4Cl}$$

6-jadvaldan pK<sub>NH<sub>4</sub>OH</sub> ning son qiymatini topib, formulaga qo'yib hisoblaymiz:

$$pH = 7 - \frac{1}{2} \cdot 11,76 - \frac{1}{2} \lg 0,05 = 7 - 2,38 + 1,15 = 5,77$$

u holda, pOH=14-pH=14-5,77=8,23

### 4-masala

30 ml suvgaga 5 ml 3 m li KNO<sub>2</sub> eritmasi qo'shildi. Eritmaning pH i va darajasi hisoblansin.

Berilgan: V=30 ml H<sub>2</sub>O; V<sub>1</sub>=30 ml KNO<sub>2</sub>; C<sub>1</sub>=3m KNO<sub>2</sub>

Topish kerak: pH =?

Yechish: KNO<sub>2</sub> tuzi anion bo'yicha gidrolizlanadi:



KNO<sub>2</sub> eritmasining umumiy hajmi V<sub>2</sub>= V+V<sub>1</sub>=30+5= 35 ml

KNO<sub>2</sub> tuz eritmasining suyultirilgandan keyingi konsentrasiyani quyidagi formula yordamida hisoblaymiz:

$$\frac{V_2}{V_1} = \frac{C_1}{C_2}$$

Bundan:  $C_2 = \frac{V_1 C_1}{V_2} = \frac{5 \cdot 3}{35} = 0,43 \text{m } \text{KNO}_2$

Tuzning gidroliz darajasini quyidagi formula yordamida hisoblaymiz:

$$\alpha_{gidr} = \sqrt{\frac{K_{H_2O}}{K_{HNO_2} \cdot C_{KNO_2}}}$$

6- va 7- jadvallardan  $K_{H_2O}$  va  $K_{HNO_2}$  larning son qiymatlarini topib formulaga qo'yamiz:

$$\alpha_{gidr} = \sqrt{\frac{1 \cdot 10^{-4}}{6,2 \cdot 10^{-4} \cdot 0,4286}} = 6,135 \cdot 10^{-6}$$

yoki  $6,135 \cdot 10^{-4} \%$

$0,43 \text{ m li KNO}_2$  eritmasining pH ini quyidagi formula yordamida xisoblaymiz:

$$pH = 7 - \frac{1}{2} K_{HNO_2} + \frac{1}{2} \lg C_{KNO_2}$$

$$pH = 7 - \frac{(-3,21)}{2} + \frac{1}{2} \lg 0,43 = 7 - (-1,605) + (-0,184) = 8,42$$

### 5-masala

pH i 11,10 ga teng bo'lgan 10 ml eritmasidagi KCN ning gramm miqdori nechaga teng?

Berilgan:  $V_1=10 \text{ ml KCN; pH}=11,10$

Topish kerak:  $q_{KCN}=?$

Yechish: KCN tuzi anion bo'yicha gidrolizlanadi:



Bunday tuzlarning pH i quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$pH = 7 - \frac{1}{2} pK_{H_2O} + \frac{1}{2} pK_{HCN} + \frac{1}{2} \lg C$$

Bu formuladan tuzning konsentrasiyasini aniqlaymiz:

$$\frac{1}{2} \lg C = pH - \frac{1}{2} pK_{H_2O} - \frac{1}{2} pK_{HCN}$$

$$\lg C = 2(pH - \frac{1}{2} pK_{H_2O} - \frac{1}{2} pK_{HCN}) = 2(11,10 - 7 - \frac{1}{2} \cdot 9,19) = -0,99$$

$$C = 0,1026 \text{ M}$$

$0,1026 \text{ M li KSN}$  ning 10 ml eritmasidagi gramm miqdorini proporsiya tuzib aniqlaymiz:

$$1 \text{ M} — 0,6512 \text{ g KCN} / 10 \text{ ml eritmada}$$

$$0,1026 \text{ M} — X \text{ g KCN} / 10 \text{ ml eritmada}$$

$$X = \frac{0,1026 \cdot 0,6512}{1} = 6,68 \cdot 10^{-2} \text{ gramm}$$


### 6-masala

Agar  $\text{HCOONH}_4$  tuz eritmasining konsentrasiyasi  $0,1 \text{ M}$  ga,  $\text{pH}$  6,50 ga teng bo'lsa,  $\text{HCOOH}$  0,01 n li  $\text{KCN}$  eritmasining gidroliz konstantasi va gidroliz darajasini hisoblang.

Berilgan:  $C=0,01 \text{ M}$   $\text{KCN}$

Topish kerak:  $K_{\text{HCOOH}} = ?$   $a_{\text{HCOO}^-} = ?$

Yechish:  $\text{HCOONH}_4$  tuzi ham anion, ham anion bo'yicha gidrolizlanadi:



Shu tuz eritmasinig  $\text{pH}$  i quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$\text{pH} = \frac{1}{2} pK_{\text{H}_2\text{O}} + \frac{1}{2} pK_{\text{HCOOH}} - \frac{1}{2} pK_{\text{NH}_4\text{OH}}$$

Shu formuladan  $pK_{\text{CHOOH}}$  ni aniqlab, son qiymatlarni qo'yib hisoblaymiz:

$$\frac{1}{2} pK_{\text{HCOOH}} = \text{pH} - \frac{1}{2} pK_{\text{H}_2\text{O}} + \frac{1}{2} pK_{\text{NH}_4\text{OH}}$$

$$pK_{\text{HCOOH}} = 2(\text{pH} - \frac{1}{2} pK_{\text{H}_2\text{O}} + \frac{1}{2} pK_{\text{NH}_4\text{OH}}) = 2(6,50 - 7 + 2,38) = 3,76$$

$$pK_{\text{HCOOH}} = -\lg K_{\text{HCOOH}};$$

$$K_{\text{HCOOH}} = 10^{-pK_{\text{HCOOH}}} = 10^{-3,76} = 1,74 \cdot 10^{-4}$$

Ostval`dning suyultirish qonuniga asosan:

$$\alpha_{\text{HCOOH}} = \sqrt{\frac{K_{\text{HCOOH}}}{C_{\text{HCOOH}}}} = \sqrt{\frac{1,74 \cdot 10^{-4}}{0,1}} = 4,17 \cdot 10^{-2} \text{ eku} 4,17\%$$


### 7-masala

Agar natriy gidrosilikatning ( $\text{NaHSiO}_3$ ) ning birinchi biosqich ionlanish konstantasi  $1 \cdot 10^{-10}$  ga, ikkinchi bosqichi  $2 \cdot 10^{-12}$  ga teng bo'lsa, natriy gidrosilikat eritmasining  $\text{pH}$  i hisoblansin.

Berilgan:  $K^1_{\text{H}_2\text{SiO}_3} = 1 \cdot 10^{-10}, K^2_{\text{H}_2\text{SiO}_3} = 2 \cdot 10^{-12}$

Topish kerak:  $\text{pH} = ?$

Yechish:  $\text{NaHSiO}_3$  tuzi anion bo'yicha gidrolizlanadi:



Shu eritmaning  $\text{pH}$  i quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$\text{pH} = -\frac{1}{2} \lg K_1 - \frac{1}{2} \lg K_2$$

Formulaga  $K_1$  va  $K_2$  larning son qiymatlarini qo'yib eritma  $\text{pH}$  ini hisoblaymiz:

$$\text{pH} = -\frac{1}{2} \lg 1 \cdot 10^{-10} - \frac{1}{2} \lg 2 \cdot 10^{-12} = 5 + 5,8495 = 10,8495 \approx 10,85$$

## 8-masala

$H_2SO_3$  ning ionlanish konstantalarini ( $K_1=1,7 \cdot 10^{-2}$ ;  $K_2=6,2 \cdot 10^{-8}$ ) bilgan holda, konsentrasiyasi 1 m bo'lgan  $NaHSO_3$  eritmasining gidroliz darajasi hisoblansin.

Berilgan:  $K^1_{H_2SO_3} = 1,7 \cdot 10^{-2}$ ;  $K^2_{HSO_3^-} = 6,2 \cdot 10^{-8}$ ;  $C = 1 M_{NaHSO_3}$

Topish kerak:  $a = ?$

Yechish:  $NaHSO_3$  tuzining gidroliz darajasi quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$\alpha = 2 \cdot \sqrt{\frac{K_{HSO_3^-}}{K_{H_2SO_3}}} \cdot 100\%$$

Formulaga  $K_1$  va  $K_2$  larning son qiymatlarini qo'yib, gidroliz darajasini hisoblaymiz:

$$\alpha = 2 \sqrt{\frac{1,7 \cdot 10^{-2}}{6,2 \cdot 10^{-8}}} \cdot 100 = 2 \sqrt{3,65 \cdot 10^{-6}} \cdot 100 = 0,38\%$$

## 9-masala

0,005 m li kaliy sianid (KCN) eritmasidagi vodorod ionining aktivligi va rN i hisoblansin.

Berilgan:  $C = 0,005 \text{ m KCN}$

Topish kerak:  $a_{H^+} = ?$   $p_aH = ?$

Yechish: KSN tuzi anion bo'yicha gidrolizlanadi:



$$[H^+] = \sqrt{\frac{K_{H_2O} \cdot K_{HCN}}{C_{HCN}}}$$

Agar  $a=f \cdot C$  (a-aktivlik, f-aktivlik koefisienti)ga tengligini hisobga olib,  $K_{H_2O}$  va  $K_{HCN}$  larni  $K^a_{H_2O}$  va  $K^a_{HCN}$  larga almashtirsak, u holda tenglama quyidagi ko'rinishga keladi:

$$\begin{aligned} K_{H_2O} &= \frac{K^a_{H_2O}}{f^2}; \quad K_{HCN} = \frac{K^a_{HCOOH}}{f^2} \\ [H^+] &= \sqrt{\frac{K^a_{H_2O} \cdot K^a_{HCOOH}}{f^2 f^2 C}} = \frac{1}{f^2} \sqrt{\frac{K^a_{H_2O} \cdot K^a_{HCOOH}}{C}} \\ a_{H^+} &= [H^+] \cdot f_{H^+} = \frac{1}{f} \sqrt{\frac{K^a_{H_2O} \cdot K^a_{HCOOH}}{C}} \end{aligned}$$

Vodorod ionning aktivlik koefisientini topish uchun KCN eritmasining ion kuchini quyidagi formula yordamida hisoblaymiz:

$$\mu = \frac{1}{2} \sum C_i Z_i^2; \quad \mu = \frac{1}{2} (0,005 \cdot 1^2 + 0,005 \cdot 1^2) = 0,005$$

KCN eritmasining ion kuchini bilgan holda 5-jadvaldan vodorod ionining aktivlik koeffisienti 0,93 ga teng ekanligini aniqlaymiz. U holda:

$$a_{H^+} = \frac{1}{0,93} \sqrt{\frac{1 \cdot 10^{-14} \cdot 6,5 \cdot 10^{-10}}{0,005}} = 3,88 \cdot 10^{-11} \text{ моль/л}$$

Bundan,

$$p_a H = -\lg a_{H^+} = -\lg 3,88 \cdot 10^{-11} = -(\lg 3,88 + \lg 10^{-11}) = -(0,58 - 11) = 10,42$$


## 10-masala

Konsentrasiyasi 0,002 m ga teng bo`lgan NH<sub>4</sub>NO<sub>3</sub> eritmasidagi vodorod ionining aktivligi va pH i hisoblansin.

Berilgan: S=0,002 m NH<sub>4</sub>NO<sub>3</sub>

Topish kerak:  $a_{H^+}=?$  pH=?

Yechish: NH<sub>4</sub>NO<sub>3</sub> tuzi kation bo`yicha gidrolizlanadi:



Shu tuz uchun vodorod ionining konsentrasiyasini quyidagi formula yordamida hisoblaymiz:

$$[H^+] = \sqrt{\frac{K_{H_2O} \cdot C_{NH_4NO_3}}{K_{NH_4OH}}}$$

Ionlarning aktivligini hisobga olingan vodorod ionining konsentrasiyasini quyidagi formula orqali hisoblaymiz:

$$K_{H_2O} = \frac{K^a_{H_2O}}{f^2}; \quad K_{NH_4OH} = \frac{K^a_{NH_4OH}}{f^2}$$

$$[H^+] = \sqrt{\frac{K^a_{H_2O} \cdot C^a_{NH_4NO_3} \cdot f^2}{f^2 C}} = \sqrt{\frac{K^a_{H_2O} \cdot C_{NH_4NO_3}}{K^a_{NH_4NO_3}}}$$

Bizga ma`lumki,

$$a_{H^+} = [H^+] \cdot f_{H^+} = f_{H^+} \sqrt{\frac{K^a_{H_2O} \cdot C_{NH_4NO_3}}{K^a_{NH_4NO_3}}}$$

$$\mu = \frac{1}{2} \sum C_i Z_i^2; \quad \mu = \frac{1}{2} (0,002 \cdot 1^2 + 0,002 \cdot 1^2) = 0,002$$

Ion kuchi  $\mu=0,002$  ga teng bo`lgan vodorod ionining aktivlik koeffisientini 5-jadvaldan topamiz ( $f_{H^+}=0,93$ ) va son qiymatlarni  $a_{H^+}$  tenlamasiga qo`yib hisoblaymiz:

$$a_{H^+} = 0,96 \sqrt{\frac{1 \cdot 10^{-14} \cdot 0,002}{1,76 \cdot 10^{-5}}} = 1,023 \cdot 10^{-6} \text{ mol/l}$$

$$p_a H = -\lg a_{H^+} = -\lg 1,023 \cdot 10^{-6} = -(\lg 1,023 + \lg 10^{-6}) = -(0,0098 - 6) = 5,99$$


## 11-masala

Ammoniy sianid eritmasidagi vodorod ionining aktivligi va pH i hisoblansin.

Berilgan:  $K^a_{H_2O} = 1 \cdot 10^{-14}$ ;  $K^a_{HCN} = 6,5 \cdot 10^{-10}$ ;  $K^a_{NH_4OH} = 1,76 \cdot 10^{-5}$

Topish kerak:  $a_{H^+} = ?$   $p_a H = ?$

Yechish:  $NH_4OH$  tuzi ham kation ham anion bo'yicha gidrolizlanadi:



Bu turga kiruvchi tuzdagi vodorod ionining konsentrasiyasini quyidagi formula yordamida hisoblaymiz:

$$[H^+] = \sqrt{\frac{K_{H_2O} \cdot K_{HCN}}{K_{NH_4OH}}}$$

Ionlarning aktivligini hisobga olingan formuladan foydalanib, vodorod ionining konsentrasiyasini hisoblaymiz:

$$K_{H_2O} = \frac{K^a_{H_2O}}{f^2}; \quad K_{HCN} = \frac{K^a_{HCN}}{f^2}; \quad K_{NH_4OH} = \frac{K^a_{NH_4OH}}{f^2}$$

$$[H^+] = \sqrt{\frac{K^a_{H_2O} \cdot K^a_{HCN} \cdot f^2}{f^2 f^2 K^a_{NH_4OH}}} = \frac{1}{f} \sqrt{\frac{K^a_{H_2O} \cdot K^a_{HCN}}{K^a_{NH_4OH}}}$$

Bizga ma'lumki,

$$a_{H^+} = [H^+] \cdot f_{H^+} = f_{H^+} \sqrt{\frac{K^a_{H_2O} \cdot K^a_{HCN}}{K^a_{NH_4OH}}}$$

Son qiymatlarni  $a_{H^+}$  tenlamasiga qo'yib, vodorod ionining aktivligini hisoblaymiz:


$$a_{H^+} = 0,96 \sqrt{\frac{1 \cdot 10^{-14} \cdot 6,5 \cdot 10^{-10}}{1,76 \cdot 10^{-5}}} = 6,077 \cdot 10^{-10} \text{ мол/л}$$


$$pH = -\lg a_{H^+} = -\lg 6,077 \cdot 10^{-10} = -(\lg 6,077 + \lg 10^{-10}) = -(0,7837 - 10) = 9,22$$

## 12-masala

Agar temir (III) xlorid eritmasining a) harorati oshirsak; b) eritmani suv bilan suyultirsak; v) eritmaga xlorid kislota qo'shsak  $FeCl_3$  ning I bosqich bo'yicha gidroliz reaksiyasi yo'nalishini sxematik ko'rsating.

Yechish:  $FeCl_3$  ning I bosqich bo'yicha gidroliz reaksiyasi quyidagicha boradi:





Eritmaning pH<7 bo'ladi.

Bizga ma'lumki gidroliz jarayon qaytar jarayon bo'lib, muvozanatga olib keladi. Lekin gidroliz reaksiyasing sharoitiga (harorati, konsentrasiyasi, pH muhiti va boshqalar) qarab, muvozanatni siljитish mumkin:

1) Agar haroratni oshirsak, suvning ionlanishi, ion ko'paytmasi oshib, gidroliz darajasi kuchayadi. Natijada gidroliz reaksiyasi o'ng tomonga siljiydi.



2) Eritmani suv bilan suyultirsak, suvning miqdori oshib, gidroliz kuchayadi, natijada gidroliz reaksiyasi o'ng tomonga siljiydi:



3) Eritmaga HCl qo'shsak, massalar ta'siri qonuniga binoan muvozanat chap tomonga siljiydi:





## VI - bob. Cho'kmalarni hosil bo'lish va erish nazariyasi.

### 6.1. Eruvchanlik ko'paytmasi

Analitik kimyoda ko'pincha cho'kma hosil qilish va erish reaksiyalaridan foydalanib, ayrim ion yoki ionlar guruxlarini ochish mumkin. Cho'kmalarning ko'paytmasi kattaligi yordamida sifat va miqdor tahlilning muhim jarayonlarini boshqarish mumkin.

Erish jarayon-bu qaytar jarayon bo'lib, doim cho'kish jarayon bilan birga boradi. Ma'lum vaqt o'tgandan so'ng qarama-qarshi jarayonlar tezliklari tenglashib, dinamik muvozanat yuzaga keladi. Dinamik muvozanatdagi eritma bilan cho'kma birgalikda to'yigan eritma deyiladi.

Masalan:



To'yigan eritmalar-murakkab geterogen sistemalar bo'lib, bir necha fazalarni tashkil etadi (suyuq faza-eritma, qattiq faza -cho'kma). Eritma bilan cho'kma orasidagi yuzani faza deyiladi. Muvozanat yuzaga kelganda, o'zgarmas haroratda qattiq faza kattaligi ham o'zgarmas bo'lib 1 ga teng deb olsak, u holda massalar ta'siri qonuniga asosan cho'kmaning erish tezligi  $V_1=K_1$  ga teng deb olish mumkin. Bunday holda cho'kmaning erish tezligi o'zgarmas haroratda ( $t=\text{const}$ ) moddaning tabiatiga bog'liq bo'ladi. Eritmadagi ionlarning cho'kish jarayon tezligi ( $V_2$ ) esa shu ionlar aktivliklarining ko'paytmasiga teng bo'ladi, ya`ni:

$$V_2 = K_2 \cdot a_{k^-} - a_{An^-}$$

Muvozanat yuzaga kelganda erish va cho'kish tezliklar tenglashadi: ( $V_1=V_2$ ) ya`ni,  $K_1 = K_2 \cdot a_{k^+} \cdot a_{An}$  bundan,

$$a_{k^+} \cdot a_{An^-} = \frac{K_1}{K_2}$$

$K_1$  va  $K_2$  kattaliklar o'zgarmas haroratda o'zgarmas kattaliklar bo'lgani uchun, ularning nisbatlari ham o'zgarmas kattalik hisoblanadi.

Kam eruvchan elektrolitning to'yigan eritmasidagi ( $t=\text{const}$ ) aktiv ionlar ko'paytmasiga eruvchanlik ko'paytmasi (EK) deyiladi.

Masalan:

$$EK_{AgCl}^a = a_{Ag^+} \cdot a_{Cl^-}$$

$$EK_{MgNH_4PO_4}^a = a_{Mg^{+2}} \cdot a_{NH_4^+} \cdot a_{PO_4^{-3}}$$

Ionlarning akivligi ularning molyar konsentrasiyalarini aktivlik koeffisientiga teng bo'lgani uchun cho'kmalarning eruvchanlik ko'paytmasini quyidagi tenglama bilan ifodalanadi:

Masalan:

$$EK_{AgCl}^a = [Ag^+]f_{Ag^+} \cdot [Cl^-]f_{Cl^-}$$

Kam eruvchan elektrolitlarning eruvchanlik ko'paytma qiymatlari  $10^{-8}$  kichik bo'lgan hollarda  $f_{K^+} = f_{An^-} = 1$  ga teng deb olsak, u holda eruvchanlik ko'paytma tenglamasini sodda ko'rinishda yozish mumkin, ya`ni

Masalan:  $EK_{AgCl} = [Ag^+] \cdot [Cl^-]$

Ervchanlik ko'paytmasi qoidasiga binoan kam eruvchan elektrolit eritmasidagi aktivliklarning ko'paytmasi elektrolit eritmaning eruvchanlik ko'paytmasiga teng bo'lganda berilgan haroratda eritma to'yigan bo'ladi. Ervchanlik ko'paytmasidan kichik bo'lsa, eritma to'yinmagan bo'ladi, eruvchanlik ko'paytmasidan katta bo'lsa eritma o'ta to'yigan bo'lib, cho'kma tusha boshlaydi. Ya`ni:<>

$$a_{Ag^+} \cdot a_{Cl^-} = EK_{AgCl}^a \text{ to'yigan eritma}$$

$$a_{Ag^+} \cdot a_{Cl^-} < EK_{AgCl}^a \text{ to'yinmagan eritma}$$

$$a_{Ag^+} \cdot a_{Cl^-} > EK_{AgCl}^a \text{ o'ta to'yigan eritma}$$

## 6.2. Elektrolitlarning eruvchanligi (E) ga bir ismli ionlarning ta'siri

Agar biron-bir elektrolitning to'yinmagan eritmasiga bir ismli ion bo'lgan kuchli elektrolit qo'shsak, masalan AgCl ning to'yinmagan eritmasiga HCl yoki KCl, NaCl qo'shilsa, AgCl ning eruvchanligi kamayadi, sababi Shundaki, eritmadi elektritolit ionlarini konsentrasiyalarining ko'paytmasi avval ( $[Ag^+] \cdot [Cl^-] \geq EK_{AgCl}$ ) elektritolitning eruvchanlik ko'paytmasiga tenglashib, to'yigan eritma hosil bo'ladi, so'ngra eruvchanlik ko'paytmasidan oshib, o'ta to'yigan eritma hosil bo'ladi, cho'kma tusha boshlaydi.

Agar har xil ismli ion bo'lgan kuchli elektrolit qo'shilsa (masalan, KNO<sub>3</sub>, NaNO<sub>3</sub>), cho'kma eriy boshlaydi. Bunga sabab, Debay va Gyukkel qonuniga binoan eritmaning ion kuchi oshib, aktivlik koeffisienti kamayadi. Natijada eletrolit ionlari konsentrasiyalarining ko'paytmasi elektritolitning eruvchanlik ko'paytmasidan kichik bo'lib qoladi va cho'kma eriy boshlaydi. Ana shu hodisani tuz effekti deb ataladi.

Elektrolit ionlarning to'liq cho'kish jarayonlari quyidagi omillarga bog'liq bo'ladi:

1. Eletrolitning eruvchanlik ko'paytmasi qancha kichik bo'lsa, uning ionlari shuncha to'liq cho'kadi;

2. Eletrolit ionlarini to'liq cho'ktirish uchun cho'ktiruvchi reagent miqdori reaksiya tenglamasi bo'yicha bir yarim baravar ortiq bo'lishi kerak. Undan ortiq qo'shilsa, tuz effekti hodisasi yuz berishi mumkin.

3. Ayrim elektrolit ionlarini gidroksid ko'rinishida to'liq cho'ktirish uchun (masalan, Mg<sup>+2</sup>, Ba<sup>+2</sup> va boshqa) cho'ktirish jarayonlari ma'lum pH da olib borish kerak bo'ladi, aks holda bunday ionlar to'liq cho'kmaydi chunki, ularning eruvchanlik ko'paytmalari oshib ketishi mumkin.

Suvda qiyin eriydigan elektrolitlarning (masalan, AgCl, BaSO<sub>4</sub>, PbCrO<sub>4</sub>, Ca<sub>3</sub>(PO<sub>4</sub>)<sub>2</sub> va boshqalar) eruvchanligini (E) ularning eruvchanlik ko'paytmalari orqali hisoblash mumkin. Masalan, AgCl, Ag<sub>2</sub>CrO<sub>4</sub>, Ca(PO<sub>4</sub>)<sub>2</sub> larning eruvchanliklarini quyidagi formulalar orqali hisoblash mumkin:

$$E_{AgCl} = [Ag^+] = [Cl^-] = \sqrt{EK_{AgCl}}$$

$$E_{Ag_2CrO_4} = \frac{[Ag^+]}{2} = [CrO_4^{-2}] = \sqrt[3]{\frac{EK_{Ag_2CrO_4}}{4}}$$

$$E_{Ca_3(PO_4)_2} = \frac{[Ca^{+2}]}{3} = \frac{[PO_4^{-3}]}{2} = \sqrt[3+2]{\frac{EK_{Ca_3(PO_4)_2}}{3^3 \cdot 2^2}}$$

Ervchanlikni umumiy ko'rinishda  $Aa Bb$  tur elektrolitlar uchun quyidagi formula orqali hisoblash mumkin:

$$E_{A_aB_b} = \sqrt[a+b]{\frac{EK_{A_aB_b}}{a^a \cdot b^b}}$$

### **6.3. Cho'kmalarning hosil bo'lish va erish nazariyalariga oid namunaviy masalalar**


#### **1-masala**

Kal'siy karbonatning 1 1 to'yingan eritmasida  $6,9 \cdot 10^{-3}$  g tuz bor. Kal'siy karbonatning eruvchanlik ko'paytmasini hisoblang.

Berilgan: V=1l; q=  $6,9 \cdot 10^{-3}$  g CaCO<sub>3</sub>

Topish kerak: EK<sub>CaCO<sub>3</sub></sub> = ?

Yechish:



Avval kal'siy karbonatning eruvchanligini quyidagi formula yordamida aniqlaymiz (CaCO<sub>3</sub> ning molyar massasi 100,09 g/mol` ga teng).

$$E_{CaCO_3} = \frac{q_{CaCO_3}}{mol \cdot massa \cdot CaCO_3} = \frac{6,9 \cdot 10^{-3}}{100,09} = 6,89 \cdot 10^{-5} mol/l$$

CaCO<sub>3</sub> ning ionlanish tenglamasiga binoan 1 mol` CaCO<sub>3</sub> dissosialanganda 1 mol` Ca<sup>+2</sup> va 1 mol` CO<sub>3</sub><sup>-2</sup> hosil bo'ladi. Demak, ionlarning muvozanat konsentrasiyalari CaCO<sub>3</sub> ning konsentrasiyasiga teng bo'ladi, ya`ni  $[Ca^{+2}] = [CO_3^{-2}] = 6,89 \cdot 10^{-5}$

CaCO<sub>3</sub> tuzi kam eruvchan kuchsiz elektrolit bo'lganidan uning eruvchanlik ko'paytmasini soddalashgan formula yordamida hisoblaymiz:

$$EK_{CaCO_3} = [Ca^{+2}] \cdot [CO_3^{-2}] = 6,8936 \cdot 10^{-5} \cdot 6,8936 \cdot 10^{-5} = 4,75 \cdot 10^{-9} \approx 4,8 \cdot 10^{-9}$$


#### **2-masala**

Magniy gidroksidning 25°C haroratda eruvchanligi  $3,1 \cdot 10^{-2}$  g/l ga teng. Eruvchanlik ko'paytmasini hisoblang.

Berilgan: E<sub>Mg(OH)<sub>2</sub></sub> =  $3,1 \cdot 10^{-2}$  g/l; t = 25°C

Topish kerak: EK<sub>Mg(OH)<sub>2</sub></sub> = ?

Yechish: Birinchi variant: ionlanish reaksiyasi



Magniy gidroksidning eruvchanligini mol`/l da quyidagi formula yordamida ifodalaymiz:

$$E_1 = \frac{E}{Mol \cdot massa} = \frac{3,1 \cdot 10^{-2}}{58,320} = 5,32 \cdot 10^{-4} mol/l$$

Magniy gidroksidning eruvchanlik ko`paytmasini quyidagi soddalashgan formulasi yordamida hisoblaymiz:

$$EK_{Mg(OH)_2} = [Mg^{+2}] \cdot [OH^-]^2$$

$Mg(OH)_2$  ning ionlanish reaksiyasiga binoan magniy ionining ionlanish konsentrasiyasi  $[Mg^{+2}] = 5,32 \cdot 10^{-4}$  mol`/l ga teng.  $[OH^-]$  ionining muvozanat konsentrasiyasi 2 baravar katta, ya`ni  $1,064 \cdot 10^{-3}$  mol`/l ga teng. Topilgan son qiymatlarni eruvchanlik ko`paytmasi formulasiga qo'yib hisoblaymiz:

$$EK_{Mg(OH)_2} = 5,32 \cdot 10^{-4} \cdot (1,064 \cdot 10^{-3})^2 = 6,02 \cdot 10^{-10}$$

### Ikkinchi variant:

$Mg(OH)_2$  ning eruvchanlik ko`paytmasini uning eruvchanlik formulasidan ham aniqlash mumkin:

$$E_{Mg(OH)_2} = \sqrt[3]{\frac{EK_{Mg(OH)_2}}{4}}$$

$$\text{Bundan } EK_{Mg(OH)_2} = 4 \cdot (E_{Mg(OH)_2})^3 = 4 \cdot (5,32 \cdot 10^{-4})^3 = 6,02 \cdot 10^{-10}$$


### **3-masala**

1 litr to`yingan eritmada  $1,121 \cdot 10^{-4}$  g stronsiy fosfat bor. Shu tuzning eruvchanlik ko`paytmasini hisoblang.

Berilgan: V=1000 ml; q=  $1,121 \cdot 10^{-4}$  g  $Sr(PO_4)_2$

Topish kerak:  $EK_{Sr_3(PO_4)_2} = ?$

Yechish: Birinchi variant: ionlanish reaksiyasi



$Sr(PO_4)_2$  ning molyar massasi 452,803 g/mol` ga teng.

Uning eruvchanligini quyidagi formula yordamida hisoblaymiz:

$$E_{Sr_3(PO_4)_2} = \frac{q}{Mol \cdot massa} = \frac{1,121 \cdot 10^{-4}}{452,803} = 2,48 \cdot 10^{-7} mol/l$$

Dissosiasiya reaksiyasiga binoan 1 mol`  $Sr(PO_4)_2$  dan 3 mol`/l  $Sr^{+2}$  va 2 mol`/l  $PO_4^{-3}$  ionlari hosil bo'ladi. Bu ionlarning konsentrasiyasini hisoblash uchun proporsiya tuzamiz:

$$1\text{mol/l} Sr(PO_4)_2 \text{-----} 3\text{mol/l} Sr^{+2}$$

$$2,48 \cdot 10^{-7} \text{mol/l} Sr(PO_4)_2 \text{-----} X \text{mol/l} Sr^{+2}$$

$$X = \frac{3 \cdot 2,48 \cdot 10^{-7}}{1} = 7,44 \cdot 10^{-7} \text{mol/l} Sr^{+2}$$

Xuddi shunday  $PO_4^{3-}$  ionining konsentrasiyasini hisoblaymiz:

$$1\text{mol/l} Sr(PO_4)_2 \text{-----} 2\text{mol/l} PO_4^{3-}$$

$$2,48 \cdot 10^{-7} \text{mol/l} Sr(PO_4)_2 \text{-----} X \text{mol/l} PO_4^{3-}$$

$$X = \frac{2 \cdot 2,48 \cdot 10^{-7}}{1} = 4,96 \cdot 10^{-7} \text{mol/l} PO_4^{3-}$$

$Sr(PO_4)_2$  ning eruvchanlik ko'paytmasini soddalashgan formulasi yordamida hisoblaymiz:

$$EK_{Sr_3(PO_4)_2} = [Sr^{+2}]^3 \cdot [PO_4^{3-}]^2 = (7,44 \cdot 10^{-7})^3 \cdot (4,96 \cdot 10^{-7})^2 = 1,01 \cdot 10^{-31}$$

Ikkinchi variant: Stronsiy fosfatning eruvchanlik ko'paytmasini uning eruvchanlik formulasidan ham hisoblash mumkin.

$$E_{Sr_3(PO_4)_2} = \sqrt[3+2]{\frac{\partial K_{Sr_3(PO_4)_2}}{3^3 \cdot 2^2}}$$

$$EK_{Sr_3(PO_4)_2} = 108E^5 = 108 \cdot (2,48 \cdot 10^{-7})^5 = 108 \cdot 93,812 \cdot 10^{35} = 10131,69 \cdot 10^{-35} = 1,01 \cdot 10^{-31}$$

#### 4-masala

Kumush arsenatning eruvchanlik ko'paytmasi  $1,0 \cdot 10^{-22}$  ga teng. Kumush va arsenat ionlarning aktivligi hisoblansin.

Berilgan:  $EK_{Ag_3AsO_4} = 1,0 \cdot 10^{-22}$

Topish kerak:  $a_{Ag^+} = ?, a_{AsO_4^{3-}} = ?$

Yechish:

$$Ag_3AsO_4 \rightleftharpoons 3Ag^+ + AsO_4^{3-}$$

$$EK_{Ag_3AsO_4} = a_{Ag^+} + a_{AsO_4^{3-}} = C_{Ag^+}^3 \cdot f_{Ag^+}^3 + C_{AsO_4^{3-}} \cdot f_{AsO_4^{3-}}$$

$Ag_3AsO_4$  tuzi qiyin eriydigan elektrolit bo'lganligi uchun eritmada uning ionlari juda oz bo'ladi va  $f=1$ ,  $a=C$  deb olish mumkin.

Agar arsenat ionining konsentrasiyasini  $x$  bilan belgilasak, u holda kumush ionining konsentrasiyasi  $3x$  ga teng bo'ladi.

$$EK_{Ag_3AsO_4}^a \approx EK_{Ag_3AsO_4} = [Ag^+]^3 \cdot [AsO_4^{3-}] = (3x)^3 \cdot x$$

$$1,0 \cdot 10^{-22} = 27x^4$$

$$x = \sqrt[4]{\frac{1,0 \cdot 10^{-22}}{27}} = 1,387 \cdot 10^{-6} \text{ mol/l AsO}_4^{-3}$$

$$a_{\text{AsO}_4^{-3}} = \frac{1,387 \cdot 10^{-6}}{1} \text{ mol/l}$$

$$a_{\text{Ag}^+} = 3 \cdot 1,387 \cdot 10^{-6} = 4,161 \cdot 10^{-6} \text{ mol/l}$$

## 5-masala

Xrom (III) gidroksidining eruvchanlik ko'paytmasi  $6,3 \cdot 10^{-31}$  ga teng. 100 ml to'yigan eritmasidagi xrom (III) va gidroksid-ionlarining gram miqdori hisoblansin.

Berilgan:  $EK_{Cr(OH)_3} = 6,3 \cdot 10^{-31}; V = 100 \text{ ml}$

Topish kerak:

$$q_{Cr^{+3}} = ?$$

$$q_{OH^-} = ?$$

Yechish: Birinchi variant:

$$\begin{aligned} Cr(OH)_3 &\Leftrightarrow Cr^{+3} + 3OH^- \\ EK_{Cr(OH)_3} &= [Cr^{+3}] \cdot [OH^-]^3 \\ [Cr^{+3}] &= x \\ [OH^-]^3 &= 3x \end{aligned}$$

ga teng deb olsak, u holda

$$EK_{Cr(OH)_3} = x(3x)^3 \text{ ga teng bo'ladi.}$$

Ervchanlik ko'paytmäsining son qiymatlarini qo'yib, tenglamani x ga nisbatan echamiz.

$$6,3 \cdot 10^{-31} = 27x^4$$

$$x = \sqrt[4]{\frac{6,3 \cdot 10^{-31}}{27}} = 1,23 \cdot 10^{-8} \text{ mol/l Cr}^{+3}$$

$$\text{Gidroksid-ionining konsentrasiyasi } [OH^-] = 1,23 \cdot 10^{-8} \cdot 3 = 3,69 \cdot 10^{-8} \text{ mol/l}$$

1 mol/l  $Cr^{+3}$  ioni 1000 ml da 51,996 g bo'lisa,

$1,23 \cdot 10^{-8}$  mol/l  $Cr^{+3}$  ioni 1000 ml da x g bo'ladi

$$X = \frac{51,996 \cdot 1,23 \cdot 10^{-8}}{1} = 64 \cdot 10^{-8} \text{ g Cr}^{+3}$$

1000 ml eritmada ——  $64 \cdot 10^{-8}$  g  $Cr^{+3}$  bo'lisa,

100 ml eritmada —— Y g  $Cr^{+3}$  bo'ladi.

$$Y = \frac{64 \cdot 10^{-8} \cdot 100}{1000} = 6,4 \cdot 10^{-8} \text{ g Cr}^{+3}$$

Xuddi shunday 1 mol/l  $OH^-$  ioni 1000 ml da 17 g bo'lisa,

$3,69 \cdot 10^{-8}$  mol/l OH<sup>-</sup> ioni 1000 ml da x g bo'ladi

$$X = \frac{17 \cdot 3,69 \cdot 10^{-8}}{1} = 63 \cdot 10^{-8} \text{ gOH}^-$$

1000 ml eritmada —— 63 · 10<sup>-8</sup> g OH<sup>-</sup> bo'lsa,

100 ml eritmada —— Y g OH<sup>-</sup> bo'ladi.

$$Y = \frac{63 \cdot 10^{-8} \cdot 100}{1000} = 6,3 \cdot 10^{-8} \text{ gOH}^-$$

Ikkinchi variant Xrom (III) gidroksidining eruvchanligini quyidagi formula yordamida hisoblaymiz.

$$\begin{aligned} E_{Cr(OH)_3} &= \sqrt[4]{\frac{EK_{Cr(OH)_3}}{1^1 \cdot 3^3}} = \sqrt[4]{\frac{6,3 \cdot 10^{-31}}{27}} = \sqrt[4]{2,3 \cdot 10^{-32}} = 1,23 \cdot 10^{-8} \text{ mol/l} \\ [Cr^{+3}] &= E_{Cr(OH)_3} = 1,23 \cdot 10^{-8} \text{ mol/l} \\ [OH^-]^3 &= 3 \cdot E_{Cr(OH)_3} = 1,23 \cdot 10^{-8} \text{ mol/l} \end{aligned}$$

Xrom va gidroksid-ionlarini 100 ml eritmadiagi gramm miqdorlari quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$q_{Cr^{+3}} = \frac{[Cr^{+3}] \cdot M_{Cr^{+3}} \cdot V}{1000} = \frac{1,23 \cdot 10^{-8} \cdot 17 \cdot 100}{1000} = 6,3 \cdot 10^{-8} \text{ g}$$

## 6-masala

Kal'siy sul`fitning 100 g suvda, 20° C haroratdagi eruvchanligi  $4,3 \cdot 10^{-3}$  g/l ga teng. Aktivlik koeffisienti hisobga olingan tuzning eruvchanlik ko'paytmasini hisoblansin.

Berilgan:  $q = 100 \text{ g}; E_{CaSO_3} = 4,3 \cdot 10^{-3} \text{ g}; t = 20^\circ C$

Topish kerak:  $EK_{CaSO_3}^a = ?$

Yechish:  $CaSO_3 \Leftrightarrow Ca^{+2} + SO_3^{-2}$

$CaSO_3$  ning mol/l da eruvchanligini quyidagi formula yordamida ifodalaymiz:

$$E_{CaSO_3}^1 = \frac{E_{CaCO_3} \cdot 10}{Mol \cdot massa}$$

$CaSO_3$  ning molyar massasi 120,14 ga teng. Bundan,

$$E_{CaSO_3}^1 = \frac{4,3 \cdot 10^{-3} \cdot 10}{120,14} = 3,54 \cdot 10^{-4} \text{ mol/l} [Ca^{+2}]_sa [SO_3^{-2}]$$

ionlariga teng. Eritmaning ion kuchini quyidagi formula yordamida hisoblaymiz:

$$\mu = \frac{1}{2} (C_{Ca^{+2}} \cdot Z_{Ca^{+2}}^2 + C_{SO_3^{-2}} \cdot Z_{SO_3^{-2}}^2)$$

$$\mu = \frac{1}{2} (3,58 \cdot 10^{-4} \cdot 4 + 3,58 \cdot 10^{-4} \cdot 4) = 0,001432 = 1,432 \cdot 10^{-3}$$

$Ca^{+2} \text{BaSO}_3^{-2}$  ionlarining zaryadlari bir xil bo'lgani uchun  $f_{Ca^{+2}} = f_{SO_3^{-2}}$  ga teng bo'ladi.

$$\lg f = -0,5 \cdot 2^2 \sqrt{1,432 \cdot 10^{-3}} = -0,0758$$

$$f = 0,84$$

$$f_{Ca^{+2}} = f_{SO_3^{-2}} = 0,84$$

Kal'siy sul`fitning eruvchanlik ko'paytmasini quyidagi formula bo'yicha hisoblaymiz:

$$EK_{CaSO_3}^a = [Ca^{+2}] \cdot f_{Ca^{+2}} \cdot [SO_3^{-2}] \cdot f_{SO_3^{-2}}$$

$$EK_{CaSO_3}^a = (3,58 \cdot 10^{-4})^2 \cdot (0,84)^2 = 9,04 \cdot 10^{-8}$$

### 7-masala

Bariy sul`fat tuzining suvdagi molyar eruvchanligi 0,05 m li natriy sul`fat eritmasidagi molyar eruvchanligidan necha marta yuqori bo'ladi.  $EK_{BaSO_4} = 1,1 \cdot 10^{-10}$

Berilgan:  $C = 0,05 \text{ mol/l Na}_2\text{SO}_4$ ;  $EK_{BaSO_4} = 1,1 \cdot 10^{-10}$

Topish kerak:

$$\frac{E_1}{E_2} = ?$$

Yechish:

$E_1$ -  $BaSO_4$  ning suvdagi eruvchanligi;

$E_2$ -  $BaSO_4$  ning 0,05 m li  $Na_2SO_4$  eritmasidagi eruvchanligi;




$$E_1 = [Ba^{+2}] = \sqrt{EK_{BaSO_4}} = \sqrt{1,1 \cdot 10^{-10}} = 1,05 \cdot 10^{-5} \text{ mol/l}$$

Natriy sul`fatning 0,05 m li eritmasidagi

$[SO_4^{-2}]$  ionning konsentrasyaisini aniqlaymiz:

$Na_2SO_4$  suvli eritmada quyidagicha dissosiyalanadi:



$$[SO_4^{-2}] = 0,05 \text{ mol/l}.$$

$[Ba^{+2}]$  ionining konsentrasiyasi 0,05 m  $Na_2SO_4$  eritmada quyidagiga teng bo'ladi.

$$EK_{BaSO_4} = [Ba^{+2}] \cdot [SO_4^{-2}]$$

$$[Ba^{+2}]_2 = \frac{EK_{BaSO_4}}{[SO_4^{-2}]} = \frac{1,1 \cdot 10^{-10}}{5 \cdot 10^{-2}} = 2,2 \cdot 10^{-9} \text{ mol/l}, demak$$

$$E_2 = [Ba^{+2}]_2 = 2,2 \cdot 10^{-9} mol/l$$

$$\frac{E_1}{E_2} = \frac{1,05 \cdot 10^{-5}}{2,2 \cdot 10^{-9}} = 4772.$$


### 8-masala

$Ba^{+2}$ ,  $Sr^{+2}$  va  $Ca^{+2}$  ionlarining konsentrasiyalari 0,5 m bo'lgan eritmalardan bir xil miqdorda olingan aralashmaga soda eritmasidan birday qo'shib borilganda ionlar qanday ketma-ketlikda va karbonat-ionining qanday konsentrasiyalarda cho'ka boshlaydi?

Berilgan:  $C = 0,5m$  (bariy, kal'siy va stronsiy tuzlari)

Topish kerak:  $[CO_3^{-2}] = ?$

Yechish: bariy, kal'siy va stronsiy karbonatlar suvli eritmada quyidagicha dissosialanadi:



Bu yerda  $Me$  -  $Ba^{+2}$ ,  $Cr^{+2}$ ,  $Ca^{+2}$

Masalaning shartiga ko'ra,  $[Ba^{+2}] = [Cr^{+2}] = [Ca^{+2}] = 0,5 mol/l$

8-jadvaldan bariy, stronsiy va kal'siy karbonatlarning eruvchanlik ko'paytmalarini aniqlaymiz:

$$EK_{BaCO_3} = [Ba^{+2}] \cdot [CO_3^{-2}] = 5,1 \cdot 10^{-9}$$

$$EK_{SrCO_3} = [Sr^{+2}] \cdot [CO_3^{-2}] = 1,1 \cdot 10^{-10}$$

$$EK_{CaCO_3} = [Ca^{+2}] \cdot [CO_3^{-2}] = 4,8 \cdot 10^{-9}$$

Bariy, stronsiy va kal'siy karbonat tuzlaridagi karbonat ionining konsentrasiyalarini umumiy formula yordamida aniqlaymiz:

$$[CO_3^{-2}] = \frac{EK}{[Me^{+2}]}$$

Topilgan son qiymatlarini formulaga qo'yib, har bir tuzdagи karbonat-ionlarining konsentrasiyalarini hisoblaymiz:

$$[CO_3^{-2}]_{BaCO_3} = \frac{5,1 \cdot 10^{-9}}{0,5} = 1,02 \cdot 10^{-8} mol/l$$

$$[CO_3^{-2}]_{CaCO_3} = \frac{1,1 \cdot 10^{-10}}{0,5} = 9,6 \cdot 10^{-10} mol/l$$

$$[CO_3^{-2}]_{SrCO_3} = \frac{4,8 \cdot 10^{-9}}{0,5} = 2,2 \cdot 10^{-10} mol/l$$

Topilgan konsentrasiyalardan shuni xulosa qilish mumkinki, birinchi bo'lib stronsiy karbonat cho'ka boshlaydi, chunki uning cho'kishi uchun karbonat ionining

minimal konsentrasiyasi ( $2,2 \cdot 10^{-10} mol/l$ ) etarlik hisoblanadi, ikkinchi bo'lib kal'siy karbonati, uchinchi bo'lib bariy karbonati cho'ka boshlaydi.

### **9-masala**



Karbonat anionining qanday konsentrasiyasida bariy sul`fat cho'kmasi bariy karbonat cho'kmasiga aylanishi mumkin?

Berilgan:  $EK_{BaSO_4} = 1,1 \cdot 10^{-10}$ ;  $EK_{BaCO_3} = 5,1 \cdot 10^{-9}$

Topish kerak:  $[CO_3^{2-}] = ?$ ,  $[SO_4^{2-}] = ?$ ,  $\frac{[CO_3^{2-}]}{[SO_4^{2-}]} = ?$

Yechish:

$BaCO_3$  va  $BaSO_4$  larning ionlanish reaksiyalarini yozamiz:



Karbonat va sul`fat anionlarining konsentrasiyalarini eruvchanlik ko'paytmalari orqali aniqlaymiz. Ionlanish reaksiyalariga binoan:

$$[Ba^{+2}] = [CO_3^{2-}] \text{ va } [Ba^{+2}] = [SO_4^{2-}] \text{ larga teng.}$$

Shundan kelib chiqib:

$$[CO_3^{2-}] = \sqrt{EK_{BaCO_3}} = \sqrt{5,1 \cdot 10^{-9}} = 7,14 \cdot 10^{-5} mol/l$$

$$[SO_4^{2-}] = \sqrt{EK_{BaSO_4}} = \sqrt{1,1 \cdot 10^{-10}} = 1,05 \cdot 10^{-5} mol/l$$

$BaSO_4$  ning  $BaCO_3$  ga aylanishi uchun karbonat anioni sul`fat anionidan necha marta katta bo'lishini aniqlaymiz:

$$\frac{[CO_3^{2-}]}{[SO_4^{2-}]} = \frac{5,1 \cdot 10^{-9}}{1,1 \cdot 10^{-10}} = 46,36 marta$$

Demak, karbonat anionining konsentrasiyasi sul`fat anionining konsentrasiyasidan 46,36 marta katta bo'lishi uchun sodaning konsentrasiyasi  $1,05 \cdot 10^{-5} \cdot 46,36 = 4,87 \cdot 10^{-4} mol/l$  ga teng bo'lishi kerak.

### **10-masala**

$KCl$  ning  $0,01 m$  li eritmasiga, kumush nitratning  $0,001 m$  li eritmasi bir xil hajmda qo'silsa, kumush xlorid cho'kmasi hosil bo'ladimi?  $EK_{AgCl} = 1,78 \cdot 10^{-10}$

Berilgan:  $C_1 = 0,01 m KCl$ ;  $C_2 = 0,001 m AgNO_3$ ;  $EK_{AgCl} = 1,78 \cdot 10^{-10}$

Topish kerak:  $[Ag^+] \cdot [Cl^-] \geq EK_{AgCl} = ?$

Yechish:



$KCl$  va  $AgNO_3$  eritmaları bir xil hajmda qo'shilganda umumiyligi hajmi 2 marta oshadi, demak ularning konsentrasiyalari 2 marta kamayadi.

Shundan kelib chiqib,  $[Ag^+]$ -va  $[Cl^-]$  ionlarining konsentrasiyalari:  $[Ag^+] = 0,0005 \text{ mol/l}$  va  $[Cl^-] = 0,005 \text{ mol/l}$  ga teng bo'ladi.  $[Ag^+]$ -va  $[Cl^-]$  ionlarining konsentrasiyalari quyidagiga teng bo'ladi:

$$[Ag^+] \cdot [Cl^-] = 0,0005 \cdot 0,005 = 2,5 \cdot 10^{-6} \text{ ga teng.}$$

Demak,  $2,5 \cdot 10^{-6} > 1,78 \cdot 10^{-10}$  bo'lgani uchun eritma o'ta to'yingan bo'lib,  $\cdot AgCl$  cho'kmaga tushadi.


## 11-masala

Temir (II) tuzining 0,1 m li eritmasidan temir (II) ioni qanday pH kattalikda temir gidroksid ko'rinishda cho'kmaga tusha boshlaydi va qanday pH kattalikda amaliy jihatdan to'liq cho'kkon hisoblanadi?  $EK_{Fe(OH)_2} = 7,94 \cdot 10^{-16}$

Berilgan:  $C = 0,1 \text{ m}$  temir (II);  $EK_{Fe(OH)_2} = 7,94 \cdot 10^{-16}$

Topish kerak:  $pH_{bosh} = ?$ ;  $pH_{oxirgi} = ?$

Yechish:



Temir (II) gidroksidning qanday pH kattaligida cho'kmaga tusha boshlashini, uning eruvchanlik ko'paytmasi formulasidan foydalanib hisoblaymiz:

$$EK_{Fe(OH)_2} = [Fe^{+2}] \cdot [OH^-]_{bundan}$$

$$[OH^-] = \sqrt{\frac{EK_{Fe(OH)_2}}{[Fe^{+2}]}} = \sqrt{\frac{7,94 \cdot 10^{-16}}{0,1}} = 8,91 \cdot 10^{-8} \text{ mol/l}$$

$$pOH = -\lg 8,91 \cdot 10^{-8} = -(\lg 8,91 + \lg 10^{-8}) = -(0,9499 - 8) = 7,05$$

bundan

$$pH = 14 - pOH = 14 - 7,05 = 6,95$$

$[Fe^{+2}]$  ioni gidroksid ko'rinishda to'liq cho'kishi uchun  $[Fe^{+2}]$  ning konsentrasiyasini  $10^{-6} \text{--} 10^{-7} \text{ mol/l}$  gacha kamayishi kerak. Shundan kelib chiqib, pH oxirgi kattalikni hisoblaymiz:

$$[OH^-] = \sqrt{\frac{7,94 \cdot 10^{-16}}{1 \cdot 10^{-7}}} = 8,91 \cdot 10^{-4}$$

$$pOH = -\lg 8,91 \cdot 10^{-4} = -(\lg 8,91 + \lg 10^{-4}) = -(0,95 - 4) = 3,05$$

$$pH = 14 - pOH = 14 - 3,05 = 10,95$$

Shunday qilib, temir (II) tuzining 0,1 m li eritmasidan temir (II) ioni gidroksid ko'rinishda pH=7,05 kattalikda cho'kmaga tusha boshlaydi, pH=10,95 kattalikka etganda amaliy jihatdan to'liq cho'kkан hisoblanadi.

## 12-masala

$\text{CaC}_2\text{O}_4$ ning eruvchanligiga 0,1 m li KCl eritmasi qanday ta'sir ko'rsatadi?

Berilgan:  $EK_{\text{CaC}_2\text{O}_4} = 2,6 \cdot 10^{-9}$ ;  $C = 0,1 \text{m } \text{KCl eritmasi}$

Topish kerak:  $E_2 = ?$ ;  $E_1 = ?$ ;  $\frac{E_1}{E_2} = ?$

Yechish:  $E_1$ - $\text{CaC}_2\text{O}_4$ ning eruvchanligi;

$E_2$ -  $\text{CaC}_2\text{O}_4$  ning 0,1 m li KCl eritmasidagi eruvchanligi



$\text{CaC}_2\text{O}_4$  ning eruvchanlik ko'paytmasini quyidagi formula orqali hisoblaymiz:

$$EK_{\text{CaC}_2\text{O}_4} = [\text{Ca}^{+2}] \cdot [\text{C}_2\text{O}_4^{-2}]$$

$$[\text{Ca}^{+2}] = [\text{C}_2\text{O}_4^{-2}] = x$$

$$E_1 = \sqrt{EK_{\text{CaC}_2\text{O}_4}} = \sqrt{2,6 \cdot 10^{-9}} = 5,099 \cdot 10^{-5} \text{ demak}$$

$$E_1 = [\text{Ca}^{+2}] = [\text{C}_2\text{O}_4^{-2}] = 5,099 \cdot 10^{-5} \text{ mol/l}$$

Bu  $\text{CaC}_2\text{O}_4$  ning eruvchanligi, ya`ni  $E_1 = 5,099 \cdot 10^{-5} \text{ моль/л}$

$\text{CaC}_2\text{O}_4$  cho'kmaga KCl eritmasi kiritilganda tuz effekti hodisasiga binoan eritmaning ion kuchi ortadi, bu esa aktivlik koefisientini kamayishiga, cho'kmaning eruvchanligini oshishiga olib keladi (toza suvgaga nisbatan).

$$[\text{Ca}^{+2}] \cdot [\text{C}_2\text{O}_4^{-2}] = \frac{EK_{\text{CaC}_2\text{O}_4}}{f_{\text{Ca}^{+2}} \cdot f_{\text{C}_2\text{O}_4^{-2}}}$$

0,1 m li KCl eritmasining ion kuchini quyidagi formula yordamida hisoblaymiz:

$$\mu = \frac{1}{2} (C_{\text{K}^+} \cdot Z_{\text{K}^+}^2 + C_{\text{Cl}^-} \cdot Z_{\text{Cl}^-}^2)$$

$$\mu = \frac{1}{2} (0,1 \cdot 1^2 + 0,1 \cdot 1^2) = 0,1$$

5-jadvaldan  $\mu=0,1$  ion kuchiga to'g'ri kelgan  $f_{\text{Ca}^{+2}}$  va  $f_{\text{C}_2\text{O}_4^{-2}}$  aktivlik koefisientlarining qiymatlarini toramiz:

$$E_2 = \sqrt{\frac{EK_{\text{CaC}_2\text{O}_4}}{f_{\text{Ca}^{+2}} \cdot f_{\text{C}_2\text{O}_4^{-2}}}} = \sqrt{\frac{2,6 \cdot 10^{-9}}{0,33 \cdot 0,33}} = 1,54 \cdot 10^{-4}$$

$$\text{Ya`ni } [Ca^{+2}] = [C_2O_4^{-2}] = 1,54 \cdot 10^{-4} \text{ mol/l. Demak,}$$







$$E_2 = 1,54 \cdot 10^{-4} \text{ mol/l}$$

$$\frac{E_2}{E_1} = \frac{1,54 \cdot 10^{-4}}{5,10 \cdot 10^{-4}} = 3,02 \text{ marta}$$


Demak, kal`siy oksalatning eruvchanligi 0,1 m KCl eritmasida toza suvgaga nisbatan 3,02 marta ortar ekan.


## **VII - bob. Bufer aralashmalar. Bufer aralashmalarning pH ini hisoblash**

Agar toza suvgaga kuchli kislota yoki kuchli ishqordan oz miqdorda qo'shilsa, suvning pH-i keskin o'zgaradi. Xuddi shunday kuchli kislota va kuchli ishqorning suyultirilgan eritmalariga kuchli kislota va kuchli ishqordan oz miqdorda qo'shilganda ham eritma pH-i keskin o'zgaradi. Kuchsiz kislota yoki kuchsiz assoslarning konsentrangan eritmalariga kuchli kislota yoki kuchli asoslardan oz miqdorda qo'shilsa ham epitma pH-i keskin o'zgaradi. Lekin kuchsiz kislota va uning tuzidan iborat aralashmalargsha kuchli kislota va kuchli asos eritmalaridan oz miqdorda qo'shilsa, aralashmalarning pH-i deyarli o'zgarmaydi. Bunday aralashmalarni reguliyator yoki bufer aralashmalar deyiladi. Bufer aralashmalarga misol qilib quyidagilarni olish mumkin:



Bufer aralashmalar pH ining o'zgarmaslik sababi, qo'shilgan kuchli kislota yoki kuchli ishqorlar neytrallanib, kuchsiz elektrolitga aylanishidir. Masalan:






### 7.1. Bufer aralshmalarining pH ini hisoblash formulalari:

1. Kuchsiz kislota va uning tuzidan hosil bo'lgan bufer aralashmaning pH ini hisoblash:

Misol:  $\begin{cases} CH_3COOH - \text{kuchsiz elektrolit} \\ CH_3COONa - \text{kuchiли elektrolit} \end{cases}$

$CH_3COOH$  kuchsiz elektrolit bo'lgani uchun massalar ta'sirni qonuniga bo'y sunadi va ionlanish konstantasi quyidagicha ifodalanadi:



$$K_{CH_3COOH} = \frac{[CH_3COO^-] \cdot [H^+]}{[CH_3COOH]} \text{ bundan}$$

$$[H^+] = K_{CH_3COOH} \cdot \frac{[CH_3COO^-]}{[CH_3COOH]} \text{ gateng}$$

Bu tenglamadan  $[CH_3COOH]$  va  $[CH_3COO^-]$  larning muvozanat konsentrasiyalarini taxminan boshlang'ich konsentrasiyalariga teng deb olsak, ya`ni

$[CH_3COOH] \approx C_{CH_3COOH}$  va  $[CH_3COO^-] \approx C_{CH_3COONa}$  u holda,


$$[H^+] = K_{CH_3COOH} \cdot \frac{[CH_3COO^-]}{[CH_3COOH]} = \frac{C_{kislota}}{C_{tuz}}$$

Bu tenglamani logarifmlasak:  $-\lg[H^+] = -\lg K_{CH_3COOH} - \lg \frac{C_{k-ma}}{C_{my3}}$  bundan

$$pH = pK_{CH_3COOH} - \lg \frac{C_{k-ma}}{C_{my3}}$$

2. Kuchsiz asos va uning tuzidan hosil bo'lgan aralashmaning pH ini hisoblash:  
Misol:

$\begin{cases} NH_4OH - \text{kuchsiz asos} \\ NH_4Cl - \text{kuchiли elektrolit} \end{cases}$



Massalar ta'siri qonuniga asosan:

$$K_{NH_4OH} = \frac{[NH_4^+] \cdot [OH^-]}{[NH_4OH]} \text{ bundan}$$

$$[OH^-] = K_{NH_4OH} \cdot \frac{[NH_4OH]}{[NH_4^+]}$$

Bu tenglamadagi  $[NH_4OH]$  va  $[NH_4^+]$  muvozanat konsentrasiyalarini quyidagiga teng deb olsak,  $[NH_4OH] \approx C_{NH_4OH}$  va  $[NH_4^+] \approx C_{NH_4Cl}$ , u holda  $[OH^-] = K_{NH_4OH} \cdot \frac{C_{NH_4OH}}{C_{NH_4Cl}}$  bu tenglamani logariflasak,  $-\lg[OH^-] = -\lg K_{NH_4OH} - \lg \frac{C_{NH_4OH}}{C_{NH_4Cl}}$  yoki  $pOH = pK_{NH_4OH} - \lg \frac{C_{NH_4OH}}{C_{NH_4Cl}}$  lekin,  $pH = 14 - pOH = 14 - pK_{NH_4OH} + \lg \frac{C_{NH_4OH}}{C_{NH_4Cl}}$

## 7.2. Bufer sig'im

Bufer aralashmaning pH ini ko'pi bilan birlikka o'zgartira oladigan kuchli kislota yoki ishqorning miqdoriga bufer sig'im deyiladi va mol`/l larda ifodalanadi. Bufer aralashmalarning sig'imini quyidagi formulalar yordamida hisoblash mumkin:

$$1) \quad \beta = \frac{\Delta B}{\Delta pH} \text{ yoki } \beta = \frac{B}{pH}, \text{ mol`/l}$$

bu yerda,  $\Delta B$ -bufer aralashmaga kislota yoki ishqor konsentrasiyalarining kamayishi,

$\Delta pH$  - kislota yoki ishqor qo'shilgandan so'ng bufer aralashma pH ining o'zgarishi,

$B$  -bufer aralashmaga qo'shiladigan kislota yoki ishqorning konsentrasiyasi,  $pH$  -bufer aralashmaning pH-i.

$$2) \quad \beta = 2,3 \cdot \frac{C_A \cdot C_B}{C_A + C_B}; \text{ mol` /l}$$

Bu yerda,  $C_A$  va  $C_B$  lar bufer aralashma komponentlarining konsentrasiyaları.

## 7.3. Bufer aralashmalarning pHini hisoblashga oid namunaviy masalalar

### 1-masala

0,01 mol`/l sırka kislota va 0,5 mol`/l natriy asetatdan iborat bufer aralashmaning pH-i hisoblansin.

Berilgan:

$$C_{k-ta} = 0,01 \text{ mol`/l}$$

$$C_{tuz} = 0,5 \text{ mol`/l}$$

Topish kerak: pH=?

Yechish: Bunday aralashmaning pH i quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$pH = pK_{k-ma} - \lg \frac{C_{k-ma}}{C_{myz}}$$

6-jadvaldan foydalanib  $K_{CH_3COOH}$  ning qiymatini topib,

$$pK_{CH_3COOH} - \lg K_{CH_3COOH} = -\lg 1,75 \cdot 10^{-5} = 4,75$$

$$\begin{aligned} pH &= 4,75 - \lg \frac{0,01}{0,5} = 4,75 - \lg 2,0 \cdot 10^{-2} = 4,75 - (\lg 2,0 + \lg 10^{-2}) = 4,75 - (0,3010 - 2) = \\ &= 4,75 + 1,699 = 6,45 \end{aligned}$$

## 2-masala

0,01 m li sirka kislota eritmasidagi natriy asetatning konsentrasiyasi nechaga teng bo'lishi kerak, vodorod ionining muvozanat konsentrasiyasi  $[H^+] = 10^{-5} \text{ mol/l}$  ga teng bo'lishi uchun.

Berilgan:

$$C_{CH_3COOH} = 0,01 \text{ m}$$

$$[H^+] = 1 \cdot 10^{-5} \text{ mol/l}$$

Topish kerak:  $C_{CH_3COONa} = ?$

Yechish: Masalaning shartidan kelib chiqib, vodorod ionining muvozanat konsentrasiyasini quyidagi formula yordamida hisoblaymiz:

$$[H^+] = K_{k-ta} \cdot \frac{C_{k-ta}}{C_{tuz}}$$

Bu tenglamadan tuzning konsentrasiyasini hisoblaymiz:

$$C_{tuz} = \frac{K_{k-ta} \cdot C_{k-ta}}{[H^+]} = \frac{1,75 \cdot 10^{-5} \cdot 0,01}{1 \cdot 10^{-5}} = 1,75 \cdot 10^{-2} \text{ mol/l}$$

## 3-masala

25 ml 0,03 m ftorid kislota eritmasiga 40 ml 0,2 m kaliy ftorid eritmasi qo'shilsa, aralashmadagi vodorod ionining konsentrasiyasi va pH i hisoblansin.

Berilgan:

$$V_1 = 25 \text{ ml}$$

$$C_1 = 0,03 \text{ m } HF$$

$$V_2 = 40 \text{ ml}$$

$$C_2 = 0,2 \text{ m } KF$$

Topish kerak:  $[H^+] = ?$   $pH = ?$

Yechish:

$$[H^+] = K_{k-ta} \cdot \frac{C_{k-ta}}{C_{tuz}}$$

bundan

$$pH = pK_{k-ta} - \lg \frac{C_{k-ta}}{C_{tuz}}$$

Ftorid kislota va kaliy ftorid tuzlari bir-biriga qo'shilgandan so'ng konsentrasiyalari quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$\begin{aligned}\frac{V_1}{V_{um}} &= \frac{C_{um}}{C_1} \\ V_{um} &= V_1 + V_2 = 65ml \\ C_{um} &= \frac{V_1 \cdot C_1}{V_{um}} = \frac{25 \cdot 0,03}{65} = 0,012mHF\end{aligned}$$

Shuningdek,

$$\begin{aligned}\frac{V_2}{V_{um}} &= \frac{C_{um}}{C_2} \\ C_{um} &= \frac{V_2 \cdot C_2}{V_{um}} = \frac{40 \cdot 0,2}{65} = 0,123mKF\end{aligned}$$

6-jadvaldan K<sub>NF</sub> va pK qiymatlarni topamiz:

$$K_{HF} = 6,5 \cdot 10^{-4}$$

$$pK = 3,19$$

$$[H^+] = K_{k-ta} \cdot \frac{C_{k-ta}}{C_{tuz}} = \frac{6,5 \cdot 10^{-4} \cdot 0,012}{0,123} = 6,4 \cdot 10^{-5} mol/l$$

$$pH = -\lg [H^+] = -\lg 6,4 \cdot 10^{-5} = -(\lg 6,4 + \lg 10^{-5}) = -(0,8062 - 5) = 4,2$$

#### 4-masala

Konsentrasiyalari 0,1 mol` ammoniy hidroksid va 0,01 mol` ammoniy xloriddan iborat bufer aralashmaning pH<sub>i</sub> va pOH<sub>i</sub> hisoblansin.

Berilgan:

$$C_2 = 0,01mol/NH_4Cl$$

$$C_1 = 0,1mol/NH_4OH$$

Topish kerak: pOH = ? pH = ?

Yechish:

Bufer eritmaning pOH<sub>i</sub> quyidagi formula yordamida hisoblash mumkin:

$$pOH = pK_{NH_4OH} - \lg \frac{C_{NH_4OH}}{C_{NH_4Cl}}$$

$$pK_{NH_4OH} = 4,76$$

$$pOH = 4,76 - \lg \frac{0,1}{0,01} = 4,76 - \lg 10 = 4,76 - 1 = 3,76$$

bundan

$$pH = 14 - pOH = 14 - 3,76 = 10,24$$

## 5-masala

Bufer aralashma digidrofosfat va gidrofosatlardan tashkil topgan. Shu tuzlarga tegishli kislotaning ionlanish konstantasi  $K_{H_3PO_4}^2 = 6,17 \cdot 10^{-8}$  gateng

Agar  $C_{\text{k-ta}} : C_{\text{tuz}} = 10 : 0,1$  nisbatlarda o'zgarsa, bufer aralashmaning samarali pH oralig'i hisoblansin.

Berilgan:

$$K_{H_3PO_4}^2 = 6,17 \cdot 10^{-8}$$

$$C_{\text{k-ta}}^1 : C_{\text{tuz}}^1 = 10$$

$$C_{\text{k-ta}}^2 : C_{\text{tuz}}^2 = 0,1$$

Topish kerak:  $pH_1 = ?$   $pH_2 = ?$

Yechish:

Fosfat kislotaning 2-bosqich ionlanish reaksiyasini yozamiz:



2-bosqich ionlanish reaksiyasining ionlanish konstantasi quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$K_{H_2PO_4}^2 = \frac{[H^+] \cdot [HPO_4^{2-}]}{[H_2PO_4^-]}$$

$$[H^+] = K_{H_2PO_4}^2 \cdot \frac{[HPO_4^{2-}]}{[H_2PO_4^-]} = K_{H_2PO_4}^2 \cdot \frac{C_{\text{k-ta}}}{C_{\text{tuz}}}$$

$$[H^+] = 6,17 \cdot 10^{-8} \cdot 10 = 6,17 \cdot 10^{-7}$$

$$pH_1 = -\lg[H^+] = -\lg 6,17 \cdot 10^{-7} = -(\lg 6,17 + \lg 10^{-7}) = -(0,79 - 7) = 6,21$$

$$[H^+]_2 = 6,17 \cdot 10^{-8} \cdot 0,1 = 6,17 \cdot 10^{-9}$$

$$pH_2 = -\lg[H^+]_2 = -\lg 6,17 \cdot 10^{-9} = -(\lg 6,17 + \lg 10^{-9}) = -(0,79 - 9) = 8,21$$

Demak, fosfatlari bufer aralashmaning samarali pH oralig'i 6,21-8,21 ga teng.

## 6-masala

Eritmaning pH 4 ga teng bo'lishi uchun 0,5 l 1 n li sirkaga necha gramm natriy asetat tuzidan qo'shish kerak? Sirkaga kislotaning ionlanish konstantasi  $K_{CH_3COOH} = 1,8 \cdot 10^{-5}$  gateng.

Tuzning ionlanish darajasi 1 ga teng.

Berilgan:

$$K_{CH_3COOH} = 1,8 \cdot 10^{-5}$$

$$V = 0,5 \text{ l} CH_3COOH$$

$$C = 1 \text{ n} CH_3COOH$$

$$pH = 4$$

$$\alpha = 1$$

Topish kerak:  $m_{CH_3COONa} = ?$

Yechish:

$$pH = -\lg[H^+] = 4 = -\lg[H^+]$$

yoki

$$[H^+] = 1 \cdot 10^{-4} \text{ mol/l}$$

Sirka kislotaning natriy tuzini  $C_{CH_3COONa}$  deb belgilaymiz. U holda quyidagi formuladan  $C_{CH_3COONa}$  tuzining konsentrasiyasini aniqlaymiz:

$$[H^+] = K_{CH_3COOH} \cdot \frac{C_{CH_3COOH}}{C_{CH_3COONa}}$$

$$C_{CH_3COONa} = \frac{K_{CH_3COOH} \cdot C_{CH_3COOH}}{[H^+]} = \frac{1,8 \cdot 10^{-5} \cdot 1}{1 \cdot 10^{-4}} = 0,18 \text{ mol/l}$$

$$m_{CH_3COONa} = \frac{M \cdot C \cdot V}{1000} = \frac{0,18 \cdot 82 \cdot 500}{1000} = 7,38 \text{ g } CH_3COONa$$

Demak, 0,5 l  $CH_3COOH$  ga 7,38 g suvsiz  $CH_3COONa$  tuzidan qo'shish kerak.

## 7-masala

Bufer aralashmaning pHini 1 birlikka o'zgartirish uchun 10 ml asetatli bufer aralashmaga 0,52 ml 1 n li ishqor eritmasi qo'shildi. Shu aralashmani bufer sig'imi topilsin.

Berilgan:

$$\Delta pH = 1$$

$$V_1 = 10 \text{ ml} \text{ (asetetli bufer aralashma)}$$

$$V_2 = 0,52 \text{ ml ishqor}$$

$$C_2 = 1 \text{ n (ishqor)}$$

Topish kerak:  $\beta(bufer sigim) = ?$

Yechish: Bufer sig'imi quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$\beta = \frac{C_1}{\Delta pH}$$

Bu yerda,  $C_1$ -ishqorning aralashmaga qo'shilgandan keyingi miqdori, mol/l.

Masalaning shartidan kelib chiqib, aralashmaga 1 n ishqor qo'shilgandan so'ng, uning konsentrasiyası ( $C_1$ ) qanachaga o'zgaganligini bilish uchun proporsiya tuzamiz:

$$\frac{C_1}{C_2} = \frac{V_1}{V_2}$$

Son qiymatlarni qo'yib,  $C_1$  ni hisoblaymiz:

$$\frac{1}{C_1} = \frac{10}{0,52}$$

Bundan

$$C_1 = \frac{1 \cdot 0,52}{10} = 0,052n = 0,052mol/l$$

Shundan so'ng, aralashmaning bufer sig'imini quyidagi formula yordamida hisoblaymiz:

$$\beta = \frac{C_1}{\Delta pH} = \frac{0,052}{1} = 0,052mol/l$$

### 8-masala

Konsentrasiyalari 0,1 m sirka kislota va 0,1 m natriy asetatdan iborat aralashmaning bufer sig'imi hisoblansin.

Berilgan:

$$C_A = 0,1mCH_3COOH$$

$$C_B = 0,1mCH_3COONa$$

Topish kerak:  $\beta = ?$

Yechish: Asetatli bufer aralashmaning bufer sig'imini quyidagi formula yordamida hisoblash mumkin:

$$\beta = 2,3 \cdot \frac{C_A \cdot C_B}{C_A + C_B} = 2,3 \cdot \frac{0,1 \cdot 0,1}{0,1 + 0,1} = 0,115mol/l$$

### 9-masala

Konsentrasiyalari 0,1 n ga teng bo'lgan ammoniy gidroksid va ammoniy xlorid eritmalaridan 1:9 nisbatda olib, sirka kislota va 0,1 m natriy asetatdan iborat aralashmaning bufer aralashma tayyorlangan. Shu aralashmaning pH-i hisoblansin.

$$K_{NH_4OH} = 1,8 \cdot 10^{-5} \text{ gateng}$$

Tuz to'liq dissosiyalangan deb hisoblansin.

Berilgan:

$$C_1 = 0, n$$

$$C_2 = 0, n$$

$$C_1 : C_2 = NH_4OH$$

$$K_{NH_4OH} = 5$$

$$\alpha = 1$$

Topish kerak:  $pH = ?$

Yechish:  $NH_4ON$  va  $NH_4Cl$  larning 1:9 nisbatda qo'shilgandan keyin ularning o'zgargan konsentrasiyalarini hisoblaymiz:

$$X_1 = \frac{0,1 \cdot 1}{10} = 0,01nNH_4OH$$

$$X_2 = \frac{0,1 \cdot 9}{10} = 0,09nNH_4Cl$$

Ammoniyli bufer aralashmaning pH qiymatini quyidagi tenglama bo'yicha hisoblaymiz:

$$pH = 14 - pK_{NH_4OH} + \lg \frac{C_{NH_4OH}}{C_{NH_4Cl}}$$

$$pH = 14 - (5 + 0,2553) + \lg \frac{0,01}{0,09} = 4,76 - \lg 10 = 14 - 4,7447 - 0,9547 = 8,3006$$

## 10-masala

Bufer aralashmaning  $pH \approx 9,0$  ga teng bo'lishi uchun  $\begin{cases} CH_3COOH \\ CH_3COONa \end{cases}$  va  $\begin{cases} NH_4OH \\ NH_4Cl \end{cases}$

lardan iborat qaysi aralashmadan tayyorlash mumkin. Tuz to'liq dissosiyalangan deb hisoblansin.

Berilgan:

$$pH = 9,0 \quad CH_3COOH \text{ va } CH_3COONa, \quad NH_4OH \text{ va } NH_4Cl$$

Topish kerak:  $pH_1 = ?$   
 $pH_2 = ?$

Yechish: asetatli bufer aralashmaning pH ini  $pH_1$  deb hisoblasak, u holda ammiakli bufer aralashmaning pH ini  $pH_2$  deb belgilaymiz:

$$\begin{aligned} \text{Agar } & [CH_3COOH] = [CH_3COONa] \text{ va} \\ & [NH_4OH] = [NH_4Cl] \end{aligned}$$

ga teng deb olsak, u holda  $pH_1$  va  $pH_2$  lari ham o'zaro teng bo'ladi:

$$pH_1 = pK_{CH_3COOH} - \lg \frac{C_{CH_3COOH}}{C_{CH_3COONa}} = pK_{CH_3COOH} - \lg 1 = pK_{CH_3COOH}$$

$$pH_2 = 14 - pK_{NH_4OH} + \lg \frac{C_{NH_4OH}}{C_{NH_4Cl}} = 14 - K_{NH_4OH} + \lg 1 = 14 - pK_{NH_4OH}$$

$$pK_{CH_3COOH} = 4,75$$

$$pK_{NH_4OH} = 4,76$$

$$pH_1 = 4,75$$

$$pH_2 = 14 - 4,76 = 9,24$$

Demak, bufer aralashmaning  $pH \approx 9$  bo'lishi uchun ammiakli bufer aralashmani

ishlatish mumkin. Ammiakli bufer aralashmaning  $pH \approx 9,24$  ga teng.

## VIII - bob. Kompleks birikmalar.

### 8.1. Kompleks ionlarning dissosiasiyasi va beqarorlik konstantasi


Sifat va miqdor tahlillarda kompleks birikmalardan keng foydalaniladi. Masalan, metall ionlarini cho'kma ko'rinishida kompleks birikma hosil qilib ochishda ( $K^+$  kationini  $K_3[Co(NO_2)_6]$  ko'rinishda,  $Fe^{+3}$  kationini  $Fe_4[Fe(CN)_6]_3$ ,  $Cu^{+2}$  kationini  $Cu_2[Fe(SN)_6]$  ko'rinishda va hokazo yoki bu ionlarni rangli eruvchan kompleks birikmalarga o'tkazishda:  $[Cu(NH_3)_4]^{+2}$ ,  $[Ni(NH_3)_4]^{+2}$ ,  $Fe(CNS)_3$  va hokazo. Shuningdek, halaqt etuvchi ionlarni niqoblashda ayniqsa, cho'kmalarni eritish uchun kompleks hosil qilish reaksiyalaridan samarali va tez-tez foydalaniladi. Masalan,  $AgCl$  kislotalarda ham, ishqorlarda ham erimaydi, lekin ammiak ta'sirida kompleks birikma hosil qilib  $[Ag(NH_3)_2]Cl$  eriydi, shuningdek,  $Co(II)$ ,  $Ni(II)$ ,  $Cu(II)$  va hokazolarning gidroksidlari ham xuddi shunday eriydi. Ayrim xollarda kompleks hosil qilish bilan muhitni kislotaliliginini yoki ionlarning oksidlanish-qaytarilish funksiyalarini o'zgartirish mumkin. Simob sul'fidini eritish uchun bir vaqtda kuchli oksidlovchi (azot kislotasi) va kompleks hosil qilish reagentlaridan (xlorid kislotasi) foydalaniladi:




Kompleks hosil qilish eritmalarida odatda yuqori tezlikda muvozanatga erishishi bilan xarakterlanadi. Kompleks hosil qilish reaksiyalarida ko'pincha yuqori molekula massali birikmalar hosil bo'ladi, bu esa o'z navbatida elementlarning kichik miqdorini aniqlashga imkon beradi.

*Kompleks birikmalar* - bu aniq molekulali birikma bo'lib, kristallarda ham, eritmalarida ham musbat yoki manfiy zaryadli murakkab ionlardan tashkil topgan birikmalardir.

Kompleks birikmalar suvli eritmalarida dinamik muvozanatda mavjud bo'ladi. Kompleks birikmalar suvli eritmalarida kuchli elektrolit kabi dissosiyalanib, kompleks ion bilan tashqi koordinatsion sferali ionlardan iborat bo'ladi:



Kompleks ionlar suvli eritmalarida murakkab sistema kabi ikkilamchi ionlanadi va kuchsiz elektrolit kabi massalar ta'siri qonuni asosida ionlarga parchalanadi:



$$K_{[Ag(NH_3)_2]^+} = \frac{[Ag^+][2NH_3]^2}{[Ag(NH_3)_2]^+}$$

$$K_{[PtCl_6]^{-2}} = \frac{[Pt^{+4}] \cdot [Cl^-]^6}{[PtCl_6]^{-2}}$$

bu yerda,

$$K_{[Ag(NH_3)_2]^+}, K_{[PtCl_6]^{-2}}$$

kompleks ionlarning beqarorlik konstantalari. Ular kompleksning qarorligini xarakterlaydi, uning tarkibiy qismlarga ionlanish qobiliyatini ko'rsatadi.

Termodinamik beqarorlik konstantasi quyidagi ko'rinishda bo'ladi:


$$K^a_{[Ag(NH_3)_2]^+} = \frac{a_{Ag^+} \cdot a_{NH_3}^2}{a_{[Ag(NH_3)_2]^+}}$$

Agar kompleks ionlar bosqichli ionlansa, oraliq reaksiyalarning muvozanat konstantalari bosqichli beqarorlik konstantalari deb ataladi.


Masalan:



$$K_1 = 4,8 \cdot 10^{-5}$$



$$K_2 = 3,8 \cdot 10^{-5}$$



$$K_3 = 6,6 \cdot 10^{-6}$$

$$K_{yu} = K_1 K_2 K_3 \dots K_n$$

Beqarorlik konstantasiga teskari bo'lgan kattalikka qarorli umumiy konstanta deyiladi:

$$K_{qaror} = \frac{1}{K_{beqaror}}$$

Har xil komplekslarning beqarorlik konstantalari orqali eritmadiagi kompleks birikma tarkibidagi oddiy ionlarning konsentrasiyalarini hisoblash mumkin yoki aksincha, kompleks birikma tarkibidagi ionlarning umumiy va muvozanat konsentrasiyalari orqali komplekslanganligini ( $F$ ) aniqlash mumkin (yoki eritmadiagi tuzning umumiy konsentrasiyasini muvozanat konsentrasiyasiga bo'lgan nisbatlarga aytildi):

$$F = \frac{C_{um}}{M} \text{ yoki}$$

$$f = 1 + \beta_1[h] + \beta_2[h]^2 + \dots + \beta_n[h]^n$$

bu yerda,  $\beta_1, \beta_2, \dots, \beta_n$  -oraliq komplekslarning qarorli konstantalari.

Cho'ktirish reaksiyalarda kompleks tuzlarning kompleks hosil qilish qobiliyatları ularning beqarorlik konstanta va eruvchanlik ko'paytmalarining nisbatlari bilan aniqlanadi. Kam eruvchan tuzlarning eruvchanligi ularning metall ionlari bog'lanib, kompleks birikma hosil bo'lishi hisobiga ortadi (VI bobda qayd etilgan). Kam eruvchan tuzlarning eruvchanlik ko'paytmalari qancha katta bo'lib, metall ionlarining hosil qilgan kompeks birikmalarini beqarorlik konstantalir qancha kichik bo'lsa, kam eruvchan tuzlarning eruvchanliklari shuncha katta bo'ladi. Sifat tahlilning amaliyotida halaqit etuvchi ionlarni tahlil qilinayotgan aralashmadan ajratmasdan, balki ularni mustahkam kompleks hosil qilib bog'lanadi. Bunday usulga "Niqoblash" deb nom berilgan. Niqoblash reaksiyalarda niqoblanuvchi ion bilan niqblovchi reagentlarning nisbiy konsentrasiyalari katta ahamiyatga egadir. Niqoblangan ion kompeksining qarorligi, uning beqarorlik konstantasini eruvchanlik ko'paytmasiga bo'lgan nisbatlari orqali belgilanadi. Cho'kmaning eruvchanlik ko'paytmasi qanchalik kichik bo'lsa, uni eritish uchun niqblovchi reagentni topish Shunchalik qiyin bo'ladi.

Kompleks birikmalarning asosiy nazariyalari bilan namunaviy masalalar yordamida tanishib chiqamiz.

## 8.2. Kompleks birikmalarga oid namunaviy masalalar

### 1-masala

Tetraamin-mis (II) sul`fatning 0,1 m li eritmasidagi kompleks hosil qiluvchi mis (II) va ammiakning muvozanat konsentrasiyasini hisoblang.


Berilgan:  $C = 0,1m[Cu(NH_3)_4]SO_4$

Topish kerak:

$$[Cu^{+2}] = ?$$

$$[NH_3] = ?$$


Yechish: Tetraamin mis (II) sul`fat kompleks birikmasi bosqichli ionlanadi. Birinchi bosqich bo'yicha u kuchli elektrolit kabi ionlanadi:



Ionlanish reaksiyasidan ko'rinish turibdiki, ionlarning muvozanat konsentrasiyalari kompleks birikmaning konsentrasiyasiga tengdir:

$$[Cu(NH_3)_4]^{+2} = [SO_4^{-2}] = 0,1mol/l$$

So'ngra hosil bo'lgan kompleksion ion kuchsiz elektrolit kabi ionlarga ajraladi:



Kompleks ionning bu bosqichdagи ionlanish reaksiyasi o'zining beqarorlik konstanta qiymatiga egadir:

$$K_{[Cu(NH_3)_4]^{+2}} \Leftrightarrow \frac{[Cu^{+2}] \cdot [NH_3]^4}{[Cu(NH_3)_4]^{+2}}$$

Agar kompleks hosil qiluvchi mis (II) ning muvozanat konsentrasiyasini x ga teng deb olsak, u holda  $[NH_3]^4$  ning muvozanat konsentrasiyasi 4 x ga teng bo'ladi.

$$(K_{bekaror} = 9,33 \cdot 10^{-13})$$

$$9,33 \cdot 10^{-13} = \frac{x \cdot (4x)^4}{0,1}$$

$$x = \sqrt[5]{\frac{9,33 \cdot 10^{-14}}{256}} = 8,2 \cdot 10^{-4} mol/l [Cu^{+2}]$$

Shunday qilib, mis (II) ionining muvozanat konsentrasiyasi  $8,2 \cdot 10^{-4} mol/l$  ga teng ekan. Ammiakning konsentrasiyasi esa  $8,2 \cdot 10^{-4} \cdot 4 = 3,28 \cdot 10^{-3} mol/l$  ga teng.

## 2-masala

Qaysi eritmada kadmiy (II) ionining muvozanat konsentrasiyasi yuqori:  $K_2[Cd(CN)_4]$  ning 0,1 m li eritmasidami yoki  $[Cd(NH_3)_4]SO_4$  ning 0,1 m li eritmasidami?

Berilgan:

$$C_1 = 0,1m K_2[Cd(CN)_4]$$


$$C_2 = 0,1m [Cd(NH_3)_4]SO_4$$

Topish kerak:


$$[Cd^{+2}]_1 = ?$$

$$[Cd^{+2}]_2 = ?$$

Yechish:



1-masalaga o'xshash kompleks ionlarning muvozanat konsentrasiyalari ham 0,1 mol/l ga teng.



Bu reaksiyalarning beqarorlik konstantalari quyidagi ko'rinishda ifodalanadi:

$$K_{[Cd(CN)_4]^{-2}} \Leftrightarrow \frac{[Cd^{+2}] \cdot [CN^-]^4}{[Cd(CN)_4]^{-2}}$$

$$K_{[Cd(NH_3)_4]^{+2}} \Leftrightarrow \frac{[Cd^{+2}] \cdot [NH_3]^4}{[Cd(NH_3)_4]^{+2}}$$

Ikki holat uchun ham kadmiy ionining muvozanat konsentrasiyasini x ga teng deb olsak, u holda

$[CN^-] = 4x$  va  $[NH_3] = 4x$  ga teng bo'ladi.

9-jadval ma'lumoti bo'yicha kompleks ionlarning beqarorlik konstantalari  $K_{[Cd(CN)_4]^{+2}} = 7,76 \cdot 10^{-18}$  va  $K_{[Cd(NH_3)_4]^{+2}} = 2,75 \cdot 10^{-7}$  ga teng.

Beqarorlik konstantalari tenglamalaridan foydalanib, kadmiy ionining muvozanat konsentrasiyalarini hisoblaymiz:

$$[Cd^{+2}]_1 = \frac{K_{[Cd(CN)_4]^{+2}} \cdot [Cd(CN)^{-2}]}{[CN^-]^4}$$

$$x_1 = \frac{7,76 \cdot 10^{-18} \cdot 0,1}{(4x_1)^4}$$

$$256x_1^5 = 7,76 \cdot 10^{-19}$$

$$x_1 = \sqrt[5]{\frac{7,76 \cdot 10^{-19}}{256}} = 7,875 \cdot 10^{-5} \text{ mol/l} [Cd^{+2}]$$

$$[Cd^{+2}]_2 = \frac{K_{[Cd(NH_3)_4]^{+2}} \cdot [Cd(NH_3)_4]^{+2}}{(NH_3)^4}$$

$$x_2 = \frac{2,75 \cdot 10^{-7} \cdot 0,1}{(4x_2)^4}$$

$$256x_2^5 = 2,75 \cdot 10^{-8}$$

$$x_2 = \sqrt[5]{\frac{2,75 \cdot 10^{-8}}{256}} = 1,014 \cdot 10^{-2} \text{ mol/l} [Cd^{+2}]$$

$$\frac{x_2}{x_1} = \frac{1,014 \cdot 10^{-2}}{7,875 \cdot 10^{-5}} = 129$$

Shunday qilib, kadmiyning ammiakli kompleks ionida kadmiy ionining konsentrasiyasi sianidli kompleks ionidan 129 marta katta ekan.

### 3-masala

Tarkibida 0,2 m ammiak bo'lgan 0,3 m li  $[Co(NH_3)_6](NO_3)_3$  ning eritmasidagi kobal't ionining muvozanat konsentrasiyasi hisoblansin.


Berilgan:

$$C_1 = 0,3 \text{ mol } [Co(NH_3)_6](NO_3)_3$$

$$C_2 = 0,2 \text{ mol } NH_3$$


Topish kerak:  $[Co^{+3}] = ?$

Yechish: Kompleks tuzi 1 bosqich bo'yicha quyidagicha dissosialanadi:



Reaksiya tenglamasi bo'yicha hosil bo'lgan kompleks ionining muvozanat konsentrasiyasi  $[Co(NH_3)_6]^{+3} = 0,3 \text{ mol/l}$  ga teng.

Kompleks ion 2 bosqich bo'yicha dissosiyalanib, kuchsiz elektrolit kabi beqarorlik konstantaga ega:



$$K_{[Co(NH_3)_6]^{+3}} = \frac{[Co^{+3}] \cdot [NH_3]^6}{[Co(NH_3)_6]^{+3}}$$

Ionlanish tenglamasidan ko'rinish turibdiki, kompleks iordan bir molekula kobal't ioni va 6 molekula ammiak hosil bo'lgan. Agar kobal't ionining muvozanat konsentrasiyasini x ga teng deb olsak, u holda masalaning shartiga ko'ra ammiak molekulasining muvozanat konsentrasiyasi ( $0,2-6x$ ) ga teng bo'ladi. Kompleks ionning ionlanmagan qismining muvozanat konsentrasiyasi ( $0,3-x$ ) ga teng bo'ladi. Kompleks ion kuchsiz elektrolit bo'lgani uchun x ning qiymati juda kichik bo'ladi,  $(6x)^6$  qiymat esa undan ham kichik bo'lgani uchun ammiak molekulasining muvozanat konsentrasiyasini taxminan  $0,2 \text{ mol/l}$  ga teng deb olish mumkin. U holda kompleks ionning beqarorlik konstanta qiymatini 9-jadvaldan topib, uning tenglamasini sodda ko'rinishda quyidagicha yozish mumkin:

$$K_{[Co(NH_3)_6]^+} = 6,2 \cdot 10^{-36}$$

$$6,2 \cdot 10^{-36} = \frac{(0,2)^6 \cdot x}{0,3}$$

$$x = \frac{1,86 \cdot 10^{-36}}{6,4 \cdot 10^{-5}} = 2,9 \cdot 10^{-32} \text{ mol/l} [Co^{+3}]$$



#### 4-masala

$[Zn(NH_3)_4]Cl_2$  kompleks tuzining  $0,1 \text{ m}$  li eritmasidan boshlashg'ich konsentrasiyasi  $10^{-10} \text{ mol/l}$  ga teng bo'lsa, sul`fid ioni o'tkazilgan. Kompleks ion parchalanib, rux sul`fid ko'rinishida cho'kma tushadimi yoki yo'qmi?

Berilgan:  $C_1=0,1 \text{ m} [Zn(NH_3)_4]Cl_2$ ;  $[S^-]=10^{-10} \text{ mol/l}$ .

Topish kerak: ZnS cho'kma hosil tushadimi yoki yo'qmi?

Yechish:



$$K_{[Zn(NH_3)_4]^{+2}} = \frac{[Zn^{+2}] \cdot [NH_3]^4}{[Zn(NH_3)_4]^{+2}}$$

9-jadval ma'lumotiga ko'ra  $K_{[Zn(NH_3)_4]^{+2}} = 2,0 \cdot 10^{-9}$ . Agar rux ionining muvozanat konsentrasiyasini x ga deb teng olsak, u holda ammiak molekulasining muvozanat konsentrasiyasi  $4x$  ga teng bo'ladi. Beqarorlik konstanta tenglamasiga ko'ra rux ionining muvozant konsentrasiyasi quyidagiga teng.

$$[Zn^{+2}] = \frac{K_{[Zn(NH_3)_4]^{+2}} \cdot [Zn(NH_3)_4]^{+2}}{(NH_3)_4}$$

Tenglamaga son qiymatlarni qo'yib, x ga nisbatan hisoblaymiz:

$$x = \frac{2,0 \cdot 10^{-9} \cdot 0,1}{256x^4}$$

$$256x^5 = 2,0 \cdot 10^{-10}$$

$$x = \sqrt[5]{\frac{2,0 \cdot 10^{-10}}{256}} = 3,789 \cdot 10^{-3} mol/l [Zn^{+2}]$$

Eruvchanlik ko'paytmasining qoidasiga binoan  $[Zn] \cdot [S^{-2}] \succ K_{ZnS}$

bo'lsa, cho'kma tushadi. Ionlar konsentrasiyalarining ko'paytmasini hisoblaymiz:

$$[Zn] \cdot [S^{-2}] = 3,789 \cdot 10^{-3} \cdot 1 \cdot 10^{-10} = 3,789 \cdot 10^{-13} mol/l.$$

8-jadvalning ma'lumotiga ko'ra,  $K_{ZnS} = 1,6 \cdot 10^{-24}$  ga teng. Demak,  $3,789 \cdot 10^{-13} \succ 1,6 \cdot 10^{-24}$  bo'lgani uchun  $[Zn(NH_3)_4]Cl_2$  kompleks tuzi parchalanib, ZnS cho'kmasi tushadi.

### 5-masala

0,1 m li ammiak eritmasidagi kumush xloridning eruvchanligi hisoblansin.

Berilgan: C=0,1 m NH<sub>3</sub>

Topish kerak: E<sub>AgCl</sub>=?

Yechish: Kumush xlorid 0,1 m li ammiak eritmasida quyidagi o'zaro bog'langan jarayonlar ta'sirida eriydi:

1) Erituvchining molekulalari (H<sub>2</sub>O) ta'sirida eriydi:



2) Kompleks hosil qilish jarayonida kumush ionlarining ammiak molekulasi bilan bog'lanib, mutahkam kompleks ion hosil qilib eriydi:



Massalar ta'siri qonuniga asosan bu jarayonning eruvchanlik konstantasi quyidagi formula bilan ifodalanadi:

$$K_E \rightleftharpoons \frac{[Ag(NH_3)_2]^+ \cdot [Cl^-]}{[NH_3]^2}$$

Bunda,  $[AgCl] = const$ , qiyin eruvchi elektrolit.

Bizga ma'lumki,  $[Ag^+] \cdot [Cl^-] = EK_{AgCl} = 1,78 \cdot 10^{-10}$  (8-jadval bo'yicha)

$$K_{[Ag(NH_3)_2]^+} = \frac{[Ag^+] \cdot [NH_3]^2}{[Ag(NH_3)_2]^+} = 5,75 \cdot 10^{-8} \quad (9-jadval bo'yicha)$$

Eruvchanlik ko'paytmasi tenglamasidan xlor ionining muvozanat konsentrasiyasi:

$$[Cl^-] = \frac{EK_{AgCl}}{[Ag^+]}$$

Bu kattalikni eruvchanlik konstanta formulasiga qo'yamiz:

$$K_E \Leftrightarrow \frac{[Ag(NH_3)_2]^+ \cdot EK_{AgCl}}{[Ag^+] \cdot [NH_3]^2} = \frac{EK_{AgCl}}{K_{[Ag(NH_3)_2]^+}} \text{ yoki}$$

$$\frac{EK_{AgCl}}{K_{[Ag(NH_3)_2]^+}} = \frac{[Ag(NH_3)_2]^+ \cdot [Cl^-]}{[NH_3]^2}$$

$AgCl$  ning ammiakda erish tenglamasiga binoan xlor ionining muvozanat konsentrasiyasi kumushning ammiakli kompleks ionining muvozanat konsentrasiyasiiga teng. Agar  $[Cl^-] = x$  ga t`eng deb olsak, u holda ammiak molekulasining kompleks ion bilan bog`lanmagan muvozanat konsentrasiyasi  $(0,1-x)$  ga teng deb olish mumkin. Son qiyatlarni oxirgi tenglamasiga qo'yib, x ga nisbatan echaniz:

$$\frac{EK_{AgCl}}{K_{[Ag(NH_3)_2]^+}} = \frac{[Ag(NH_3)_2]^+ \cdot [Cl^-]}{[NH_3]^2}$$

$$\frac{1,78 \cdot 10^{-10}}{5,75 \cdot 10^{-8}} = \frac{x^2}{(0,1-x)^2}$$

$$0,31 \cdot 10^{-2} \cdot (0,01 - 0,2x + x^2) = x^2$$

$$3,1 \cdot 10^{-5} - 6,2 \cdot 10^{-4}x + 3,1 \cdot 10^{-3}x^2 = x^2$$

$$0,9969x^2 + 6,2 \cdot 10^{-4}x - 3,1 \cdot 10^{-5} = 0$$

$$x = \frac{-6,2 \cdot 10^{-4} \pm \sqrt{(6,2 \cdot 10^{-4})^2 + 4 \cdot 0,9969 \cdot 3,1 \cdot 10^{-5}}}{2 \cdot 0,9969} =$$

$$= \frac{-6,2 \cdot 10^{-4} \pm 1,11 \cdot 10^{-2}}{1,9938} = \frac{1,05 \cdot 10^{-2}}{1,9938} = 0,526 \cdot 10^{-2} = 0,005261 mol/l$$

Demak, kumush xloridning 0,1 m li ammiak eritmasidagi eruvchanligi  $0,00526 mol/l$  ga teng.

## 6-masala

Agar kumush bromidni natriy tiosul`fatning 10 ml 4 m li eritmasi bilan chayqatilsa, uning necha milligrami eriydi?


Berilgan:  $V_1 = 10 ml$   $Na_2S_2O_3$ ;  $C_1 = 4 m$   $Na_2S_2O_3$

Topish kerak:


$$q_{AqBr} = ?$$

Yechish: Kumush bromid ikki jarayon ta`sirida eriydi:

- 1) Erituvchi ( $H_2O$ ) ta`sirida kumush bromid eriydi:



2) Kumush ionlari bilan tiosul`fat ionlari o`zaro ta`sirlashib, kompleks ion hosil qilib eriydi:



Hosil bo`lgan kompleks ion kuchsiz elektrolit bo`lib, massalar ta`siri qonuniga asosan eruvchanlik konstantasiga egadir:

$$K_E \Leftrightarrow \frac{[AgS_2O_3^-] \cdot [Br^-]}{[S_2O_3^{-2}]} \\ [AgBr] = const$$

Kumush bromid qiyin eruvchan elektrolit bo`lib, eruvchanlik ko`paytmasiga ega:

$$EK_{AgBr} = [Ag^+] \cdot [Br^-] = 5,3 \cdot 10^{-13} \text{ (8-jadval)}$$

9-jadval ma`lumotiga ko`ra, kompleks ionining beqarorlik konstantasi qiymati quyidagiga teng:

$$K_{[AgS_2O_3^-]} \Leftrightarrow \frac{[Ag^+] \cdot [S_2O_3^{-2}]}{[AgS_2O_3^-]} = 1,51 \cdot 10^{-9}$$

Kumush ionining muvozanat konsentrasiyasini eruvchanlik ko`paytmasi kattaligidan topish mumkin:

$$[Br^-] = \frac{EK_{AgBr}}{[Ag]} \text{ u holda} \\ K_E \Leftrightarrow \frac{EK_{AgBr} \cdot [AgS_2O_3^-]}{[Ag^+] \cdot [S_2O_3^{-2}]} = \frac{EK_{AgBr}}{K_{[AgS_2O_3^-]}} \\ \frac{EK_{AgBr}}{K_{[AgS_2O_3^-]}} = \frac{[AgS_2O_3^-] \cdot [Br^-]}{[S_2O_3^{-2}]}$$

Bromid ionining eritmaga o`tgan konsentrasiyasini  $x$  ga teng deb olsak, u holda tiosul`fat ionning eritmadagi konsentrasiyasi

$[S_2O_3^{-2}] = 4 - x$  ga teng bo`ladi. Son qiyatlarini tenglamaga qo`yib  $x$  ga nisbatan yechamiz:

$$\frac{5,3 \cdot 10^{-13}}{1,51 \cdot 10^{-9}} = \frac{x^2}{4 - x}$$

$$3,51 \cdot 10^{-4} \cdot (4 - x) = x^2$$

$$x^2 + 3,51 \cdot 10^{-4} - 1,404 \cdot 10^{-3}$$

$$x = \frac{-3,51 \cdot 10^{-4} \pm \sqrt{(3,51 \cdot 10^{-4})^2 + 4 \cdot 1,404 \cdot 10^{-3}}}{2} = \frac{-3,51 \cdot 10^{-4} \pm 7,49 \cdot 10^{-2}}{2} = 3,73 \cdot 10^{-2} mol/l$$

Demak, kumush bromidning 4 m li natriy tiosul`fat eritmasidagi eruvchanligi  $3,73 \cdot 10^{-2} \text{ mol/l}$  ga teng ekan yoki  $E_{AgBr} = 3,73 \cdot 10^{-2} \cdot 187,8 = 7,005 \text{ g/l}$  ga teng. U holda,  $EK_{AgBr}$  10 ml li 4 m li natriy tiosul`faat eritmasidagi eruvchanligi 0,07 g (70 mg) ga teng bo`ladi.

## 7-masala

0,2 g kumush bromidni 100 ml 1 m li ammiak eritmasida eriydimi?


Berilgan:  $m = 10,2 \text{ g AgBr}$ ;  $C_1 = 1 \text{ M } NH_4OH$ ;  $V = 100 \text{ ml } NH_4OH$

Topish kerak:

$$E_{AgBr} = ?$$

Yechish: Kumush bromidning 100 ml 1 m li ammiak eritmasida (5- va 6- masalalarga o`xshash) quyidagi jarayonlar ta`sirida eriydi:

1)



2)



Bu jarayonlarni umumlashtirib quyidagicha yozish mumkin:



Kumush ioni ammiak molekulasi bilan kompleks ion hosil qilib, cho`kmani erishga olib keladi. Erish jarayoni massalar ta`siri qonuniga asosan o`zining eruvchanlik konstantasiga ( $E_k$ ) egadir.

$$K_E \Leftrightarrow \frac{[Ag(NH_3)_2]^+ \cdot [Br^-]}{[NH_3]^2}$$

$$EK_{AgBr} = [Ag^+] \cdot [Br^-] = 5,3 \cdot 10^{-13} \quad (8\text{-jadvaldan ma`lumot})$$

$$K_{[Ag(NH_3)_2]^+} = \frac{[Ag^+] \cdot [NH_3]^2}{[Ag(NH_3)_2]^+} = 5,75 \cdot 10^{-8} \quad (9\text{-jadvaldan ma`lumot})$$

Eruvchanlik ko`paytmasining tenglamasidan  $[Br^-]$  ni aniqlaymiz:

$$[Br^-] = \frac{EK_{AgBr}}{[Ag^+]} \text{ va eruvchanlik konstanta tenglamasiga qo'yamiz:}$$

$$K_E \Leftrightarrow \frac{[Ag(NH_3)_2]^+ \cdot EK_{AgBr}}{[Ag^+] \cdot [NH_3]^2} = \frac{EK_{AgBr}}{K_{[Ag(NH_3)_2]^+}}$$

Eruvchanlikni hisoblashning oxirgi ishchi formulasi quyidagi ko`rinishda bo`ladi:

$$\frac{EK_{AgBr}}{K_{[Ag(NH_3)_2]^+}} = \frac{[Ag(NH_3)_2]^+ \cdot [Br^-]}{[NH_3]^2}$$

Agar  $[Br^-]$  va  $[Ag(NH_3)_2]^+$  ionlarning muvozanat konsentrasiyalarini x ga teng deb olsak, uholda ammiakning muvozanat konsentrasiyasi  $(1-x)$  ga teng bo'ladi. Ammiakning kuchsiz ionlanishini va x ning qiymati juda juda kichik bo'laganini hisobga olib  $1-x \approx 1$  ga teng deb olsak, u holda tenglama yanada soddalashadi:

$$\frac{5,3 \cdot 10^{-13}}{5,75 \cdot 10^{-8}} = \frac{x^2}{1^2}$$

$$9,22 \cdot 10^{-6} = x^2$$

$$x = \sqrt{9,22 \cdot 10^{-6}} = 3,04 \cdot 10^{-3} mol/l$$

Demak, kumush bromidning 1 m li ammiak eritmasidagi eruvchanligi  $3,04 \cdot 10^{-3} mol/l$  ga teng ekan. Bu kattalikni  $AgBr$  ning molekulyar massa (187,8 g)ga ko'paytirsak, eruvchanlik  $E_{AgBr} = 3,04 \cdot 10^{-3} \cdot 187,8 = 0,570 g/l$  da ifodalanadi. Shunday qilib, 100 ml 1 m ammiak eritmasida 0,057 g  $AgBr$  erir ekan. Demak, 0,2 g  $AgBr$  100 ml 1 m ammiak eritmasida to'liq erimas ekan.

### 8-masala

10 mg kumush xloridni eritish uchun 5 ml ammiak eritmasi etarli bo'lsa, ammiakning boshlang'ich konsentrasiyasini mol/l da hisoblang.

Berilgan:  $V_{NH_3} = 5 M$ ;  $q_{AgCl} = 10 M$

Topish kerak:

$[NH_3]_{bosh} = ?$

Yechish: 5-7 masalalarga o'xshab echamiz:

1)



2)



Bu jarayonlarni umumlashtirib quyidagicha yozish mumkin:



$$K_E \Leftrightarrow \frac{[Ag(NH_3)_2]^+ \cdot [Cl^-]}{[NH_3]^2}$$

$$EK_{AgCl} = [Ag^+] \cdot [Cl^-] = 1,78 \cdot 10^{-10} \quad (8-jadval bo'yicha)$$

Beqarorlik konstantasi :

$$K_{[Ag(NH_3)_2]^+} = \frac{[Ag^+] \cdot [NH_3]^2}{[Ag(NH_3)_2]^+} = 5,75 \cdot 10^{-8} \quad (9-jadvaldan ma'lumot)$$

Ervchanlik ko'paytmasining tenglamasidan  $[Cl^-]$  ni aniqlaymiz:

$[Cl^-] = \frac{EK_{AgCl}}{[Ag^+]}$  ga teng bo'lsa, u holda  $K_e$  quyidagi ko'rinishga keladi:

$$K_E \Leftrightarrow \frac{[Ag(NH_3)_2]^+ \cdot EK_{AgCl}}{[Ag^+] \cdot [NH_3]^2} = \frac{EK_{AgCl}}{K_{[Ag(NH_3)_2]^+}}$$

yoki

$$\frac{EK_{AgCl}}{K_{[Ag(NH_3)_2]^+}} = \frac{[Ag(NH_3)_2]^+ \cdot [Cl^-]}{[NH_3]^2}$$

Masalaning shartidan kelib chiqib, agar 5 ml ammiak eritmasi 10 mg  $AgCl$  ni erita olsa, u holda 1000 ml ammiak eritmasi x mg  $AgCl$  ni eritish kerak. Proporsiya tuzamiz:

$$\begin{aligned} 5 \text{ ml } NH_3 & \text{ --- } 10 \text{ mg } AgCl \\ 1000 \text{ ml } NH_3 & \text{ --- } x \text{ mg } AgCl \\ x & = \frac{10 \cdot 1000}{5} = 2000 \text{ mg } AgCl \end{aligned}$$

Demak,  $AgCl$  ning ammiakda eruvchanligi:

$$E = \frac{q_{AgCl}}{M_{AgCl}} = \frac{2}{143,321} = 0,0139 \text{ mol/l}$$

ga teng bo'ladi.

Ammiakning kompleksga bog'tangan konsentrasiyasi:

$[NH_3] = 2 \cdot 0,0139 = 0,0278 \text{ mol/l}$  teng bo'lsa, eritmadagi muvozanat konsentrasiyasi:

$$[NH_3] = C - 0,0278 \text{ mol/l} \text{ ga teng bo'ladi.}$$

Bu yerda, C-ammiakning boshlang'ich konsentrasiyasi.

Topilgan qiymatlarni oxirgi ishchi formulaga qo'yib, ammiakning boshlang'ich konsentrasiyasiga nisbatan echamiz:

$$\frac{1,78 \cdot 10^{-10}}{5,75 \cdot 10^{-8}} = \frac{(0,0139)^2}{(C - 0,0278)^2}; \quad 3,1 \cdot 10^{-3} = \frac{(0,0139)^2}{(C - 0,0278)^2}$$

$$\sqrt{3,1 \cdot 10^{-3}} = \frac{0,0139}{C - 0,0278}; \quad 5,57 \cdot 10^{-2} = \frac{0,0139}{C - 0,0278}$$

$$0,0139 = 0,056C - 0,0016; \quad 0,0154 = 0,056C$$

$$C = \frac{0,0154}{0,056} = 0,275 \text{ mol/l } NH_3$$

## Masala 9

10 ml 0,25 M li kumush nitrat eritmasiga 40 ml 0,5 M li kaliy sianid eritmasi

qo'shilsa, aralashmadagi kumushning muvozanat konsentrasiyasi hisoblansin.

Berilgan:  $V_1 = 10 \text{ ml } AgNO_3$

$$C_1 = 0,25 \text{ M } AgNO_3$$

$$V_2 = 40 \text{ ml } KCN$$

$$C_2 = 0,5 \text{ M } KCN$$

Topish kerak:

$$[Ag^+] = ?$$

Yechish:

$$\frac{V_1}{V_2} = \frac{C_0}{C_1} \text{ bu yerda, } C_0 - \text{kumush nitratning suyultirish hisobga olingan}$$

konsentrasiyasi.


$V_0$ - aralashmaning umumiy hajmi ( $V_1 + V_2$ ).

$$\text{Bu tenglamadan } C_0 = \frac{C_1 \cdot V_1}{V_0} = \frac{0,25 \cdot 10}{50} = 50 \text{ mol/l}$$

Xuddi shunday kaliy sianidning suyulgandan keyingi konsentrasiyasi ( $C_2^1$ ) :

$$C_2^1 = \frac{0,5 \cdot 40}{50} = 0,4 \text{ mol/l}$$

Kaliy sianid eritmasi kumush nitrat eritmasiga nisbatan ortiqcha miqdorda olingani uchun aralashmada kompleks hosil bo'lish jarayoni kuzatiladi:



Bir vaqtda teskari jarayon kuzatilib, beqarorlik konstanta qiymatiga ega bo'ladi:

$$K_{[Ag(CN)_2]} = \frac{[Ag^+] \cdot [CN^-]^2}{[Ag(CN)_2]} = 1,0 \cdot 10^{-2} \text{ (9-jadvaldan ma'lumot)}$$

Bu tenglamadan  $[Ag^+]$ ning muvozanat konsentrasiyasini x ga teng deb olsak, u holda kumush sianid kompleks ionining ionlanish tenglamasidan  $[Ag(CN)_2]^- \Leftrightarrow Ag^+ + 2CN^-$  sianid ionini va  $[Ag(CN)_2]^-$  kompleks ionining muvozanat konsentrasiyalarini topishimiz mumkin:

$$[CN^-] = C_{CN^-} - 2(C_{Ag^+} - x) = 0,4 - 2(5 \cdot 10^{-2}) \approx 0,4 \text{ mol/l}$$

$$[Ag(CN)_2]^- = C_{Ag^+} - x = 5 \cdot 10^{-2} - x \approx 5 \cdot 10^{-2} \text{ mol/l}$$

Bu yerda,  $C_{CN^-} = C_{KCN}$

$$C_{Ag^+} = C_{AgNO_3}$$

Topilgan muvozanat konsentrasiyalarining son qiymatlarini beqarorlik konstanta tenglamasiga qo'yib, x ga nisbatan hisoblaymiz:

$$K_{beqaror} = \frac{[Ag^+] \cdot [CN^-]^2}{[Ag(CN)_2]} = 1,0 \cdot 10^{-21} = \frac{x(0,4)^2}{0,05}$$

$$x = \frac{5 \cdot 10^{-19}}{1,6 \cdot 10^{-1}} = 3,1 \cdot 10^{-18} \text{ mol/l} [Ag^+]$$

## 10-masala

Ushbu ko'rsatilgan kompleks ionlarning-  $[HgBr_4]^{-2}$ ;  $[HgJ_4]^{-2}$ ;  $[Hg(CN)_4]^{-2}$

qaysi birining mustahkamligi kam? Shu kompleks ionlarga tegishli kompleks tuzlarning 0,2 M eritmasida ionlanish darajalarini foizlarda hisoblang.

Berilgan:  $C = 0,2 \text{ mol/l}$

Topish kerak:

$$\alpha = ? \text{ (foizlarda)}$$

Yechish: 9-jadvaldan ko'rsatilgan kompleks ionlarning beqarorlik konstanta qiymatlarini aniqlaymiz:

$$K_{[HgBr_4]^{-2}} = 2,2 \cdot 10^{-22}$$

$$K_{[HgJ_4]^{-2}} = 5 \cdot 10^{-31}$$

$$K_{[Hg(CN)_4]^{-2}} = 4 \cdot 10^{-42}$$

Kompleks ionlarning ionlanish darjasini deb, uning ionlangan qismining konsentrasiyasini umumiy konsentrasiyaga nisbatiga aytildi va foizlarda hisoblanadi:

$$\frac{[Hg^{+2}]}{[HgBr_4]^{-2}} = 4 \cdot 10^{-42}$$

Masalaning shartiga ko'ra  $[HgBr_4]^{-2}$  kompleks ionning konsentrasiyasi 0,2 M ga teng bo'lib, quyidagicha ifodalanadi:

$$[HgBr_4]^{-2} \Leftrightarrow Hg^{+2} + 4Br^-$$

$$[Hg^{+2}] = x$$

$$[Br^-] = 4x$$

Beqarorlik konstantasi:

$$K_{[HgBr_4]^{-2}} = \frac{[Hg^{+2}] \cdot [Br^-]^4}{[HgBr_4]^{-2}}$$

Yozilgan kattaliklarning son qiymatlarini Shu formulaga qo'yib, x ga nisbatan hisoblaymiz:

$$2,2 \cdot 10^{-22} = \frac{x(4x)^4}{0,2}$$

$$265x^5 = 4,4 \cdot 10^{-22}$$

$$x = \sqrt[5]{\frac{4,4 \cdot 10^{-22}}{265}} = \sqrt[5]{0,0172 \cdot 10^{-23}} = \sqrt[5]{1,72 \cdot 10^{-25}} = 1,12 \cdot 10^{-25} \text{ mol/l}$$

$[HgBr_4]^{-2}$  kompleks ionning ionlanish darajasi:

$$\alpha_{[HgBr_4]^{-2}} = \frac{1,12 \cdot 10^{-5}}{0,2} \cdot 100 = 5,6 \cdot 10^{-3} / \%$$

ga qolgan kompleks ionlarning darajalarini

xuddi shunday hisoblaymiz:

$$K_{[HgJ_4]^{-2}} \frac{[Hg^{+2}] \cdot [J^-]^4}{[HgJ_4]^{-2}}$$

$$5 \cdot 10^{-31} = \frac{x(4x)^4}{0,2}$$

$$256x^5 = 1,0 \cdot 10^{-31}$$

$$x = \sqrt[5]{\frac{1 \cdot 10^{-31}}{256}} = \sqrt[5]{0,0039 \cdot 10^{-31}} = \sqrt[5]{39 \cdot 10^{-35}} = 2,08 \cdot 10^{-7} mol/l [Hg^{+2}]$$

$$\alpha_{[HgJ_4]^{-2}} = \frac{2,08 \cdot 10^{-7}}{0,2} \cdot 100 = 1,04 \cdot 10^{-4} / \%$$

$$K_{[HgJ_4]^{-2}} \frac{[Hg^{+2}] \cdot [J^-]^4}{[HgJ_4]^{-2}}$$


$$5 \cdot 10^{-31} = \frac{x(4x)^4}{0,2}$$

$$256x^5 = 1,0 \cdot 10^{-31}$$

$$x = \sqrt[5]{\frac{1 \cdot 10^{-31}}{256}} = \sqrt[5]{0,0039 \cdot 10^{-31}} = \sqrt[5]{39 \cdot 10^{-35}} = 2,08 \cdot 10^{-7} mol/l [Hg^{+2}]$$

$$\alpha_{[Hg(CN)_4]^{-2}} = \frac{1,26 \cdot 10^{-9}}{0,2} \cdot 100 = 6,3 \cdot 10^{-7} / \%$$

Hisoblash ma`lumotlaridan shuni hulosa qilish muminki, mustahkamligi eng kam bo`lgan kompleks ion- bu simobning bromidli kompleks ioni ekan. Ularning ionlanish darajalariga qarab ionlanishni quydagi qatorga joylashtirish mumkin:



## 11-masala

Tarkibida  $1 \cdot 10^{-3}$  M kumush nitrat va 0,022 M ammiak bo`lgan eritmaning kompleksliligi (F) va kumush ionining muvozanat konsentrasiyasi hisoblansin.

Berilgan:

$$C_1 = 1 \cdot 10^{-3} MAgNO_3$$

$$C_2 = 2,2 \cdot 10^{-2} mol / l NH_4OH$$

$$\mu = 0,5$$

Topish kerak:

$$F = ?$$

$$[Ag^+] = ?$$

Yechish:



Adabiyot ma`lumotlaridan foydalanib,  $\mu = 0,5$  dagi kumushning ammiakli kompleksi bo'yicha quyidagi kattaliklarning son qiymatlarini topamiz:

$$\lg \beta_1 = 3,24 \cdot [Ag(NH_3)]^+ \text{ ioni uchun, } \lg \beta_2 = 7,05 \cdot [Ag(NH_3)]^+ \text{ ioni uchun, } \beta_1 = 1,74 \cdot 10^3, \\ \beta_2 = 1,12 \cdot 10^7$$

Eritmadagi ammiakning miqdori kumush nitratnikiga nisbatan ortiqcha bo`lgani uchun uning muvozanat konsentrasiyasini umumiyl konsentrasiyasiga teng deb olish mumkin:

$$(C_2 = 2,2 \cdot 10^{-2} mol/l).$$

U holda, kumush ionining kompleksliligi quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$\Phi = 1 + \beta_1[\bar{L}] + \beta_2[\bar{L}]^2$$

Bu yerda,  $\bar{L}$ -ligandning konsentrasiysi, ya`ni suvli ammiak eritmasining konsentrasiysi. Yozilgan kattaliklarning son qiymatlarini formulaga qo'yib hisoblaymiz:

$$F = 1 + 1,74 \cdot 10^3 \cdot 0,022 + 1,12 \cdot 10^7 \cdot (0,022)^2 = 1 + 38,28 + 5420,8 = 5460,08 = 5,46 \cdot 10^3$$

Kumush ionining muvozanat konsentrasiyasini quyidagi formula yordamida hisoblaymiz:

$$[Ag^+] = \frac{C_1}{F} = \frac{1 \cdot 10^{-3}}{5,46 \cdot 10^3} = 1,83 \cdot 10^{-7} mol/l$$

## IX - bob. Gravimetriya

### 9.1. Gravimetrik tahlilning mohiyati va undagi hisoblashlar

Gravimetrik (tortma) usuli miqdoriy tahlilda keng miqyosda qo'llanilsa ham, ko'pchilik ximiklar imkonicha tezkor usullardan ya`ni titrimetrik, fotometrik va boshqa fizik usullardan foydalanishni ma`qul ko'radilar.

Xalq xo'jaligining amaliyotida ko'pincha gigroskopik va kristallizasion suvlarni (ruda, silikat, ko'mir, yog'och, yog' va boshqalardagi), oltingugurt (oltingugurt kolchedani, metall rudalar, toshko'mir, torf, neft` va boshqalardagi), fosfori (fosforit,

apatit, fosfor o'g'itlaridagi), magniy va kal'siylni (karbonat, silikat va boshqa xomashyolardagi), temir, alyuminiy, kremniy va boshqalarni tortma usul bilan aniqlaydilar, Shuningdek, har xil modda tarkibidagi mis, kadmiy, simob, kumush va boshqa metallarni gravimetrik usuldan foydalanib aniqlaydilar.

Aniqlanuvchi modda tarkibida komponent massasini aniq o'lchashga asoslangan usulni gravimetrik usul deyiladi.

Gravimterik usulga quyidagilar kiradi:

1) *Haydash usuli*

- a) to'g'ri;
- b) bilvosita;

2) *cho'ktirish usuli*

- a) cho'ktiruvchi – noorganik reagent;
- b) cho'ktiruvchi organik ragent;
- d) elektrodda cho'ktirish (elektrogravimetriya);

3) *Termogravimetriya usullari kiradi*

Haydash usuli universal emas, bu usul bilan modda tarkibidagi uchuvchan komponentlarni aniqlashda foydalaniladi. Lekin hamma modda tarkibida uchuvchan komponent bo'lmaydi. Shuning uchun ko'pincha cho'ktirish va termogravimetriya usullaridan foydalaniladi.

Gravimetrik tahlil ikkita eksperimental o'lchashlardan tashkil topgan: namuna va namunadagi aniq tarkibli mahsulotni o'lchashdan iborat. Buning asosida aniqlanuvchi komponentning foiz miqdorini quyidagi formula yordamida aniqlash mumkin:

$$\% A = \frac{A \cdot \text{ning} \cdot \text{massasi}}{\text{namunaning} \cdot \text{massasi}} \cdot 100$$

Gravimetrik tahlilda ko'pincha modda tarkibidagi A komponentning massasini o'lchamasdan, balki A komponentga kimyoviy bog'langan modda massasini o'lchashga to'g'ri keladi. Bunday hollarda A komponentning massasini aniqlash uchun kimyoviy bog'langan modda massasiga qayta hisob gravimetrik faktori kiritiladi. ( $F$ ) gravimetrik faktor deb, aniqlanuvchi moddaning molekulyar massasini o'lchanadigan moddaning molekulyar massasiga bo'lgan nisbatiga aytiladi:

$$F = \frac{a \cdot M(\text{aniqlanuvchi} \cdot \text{mod daning} \cdot \text{molekulyar} \cdot \text{massasi})}{\epsilon \cdot M_1(\text{olchanadigan} \cdot \text{mod daning} \cdot \text{molekulyar} \cdot \text{massasi})}$$

bu yerda,  $a$  va  $\nu$  lar butun sonlar bo'lib, bu sonni molekulyar massaga ko'paytirganda sur'at va maxrajdagi mollar soni kimyoviy ekvivalent bo'lishi kerak.

Aniqlanuvchi birikmaning foiz miqdori quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$\% A = \frac{A \cdot \text{ning} \cdot \text{massasi} \cdot \left( \frac{a \cdot M_{\text{ning}} \cdot \text{mol} \cdot \text{massasi}}{\epsilon \cdot M_1 \cdot \text{ning} \cdot \text{mol} \cdot \text{massasi}} \right) \cdot 100}{\text{namunaning} \cdot \text{massasi}}$$

Gravimetrik tahlilda ko'pincha absolyut quruq moddaga nisbatan qayta hisoblashga to'g'ri keladi. Bunday holda, aniqlanuvchi komponentning miqdori quruq moddaga nisbatan foizlarda quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$C = \frac{a \cdot 100}{100 - e}; \%$$

Bu yerda, a - nam namunadagi tarkibiy qisimning miqdori, % ;

$e$  – namunaning namligi, % ;




C – aniqlanuvchi komponentning quruq modda bo'yicha miqdori, %.

## 9.2. Elektrogravimetrik tahlil




Elektrogravimetrik usul fizik-kimyoviy tahlilga oid bo'lib, elektrolit eritmadan tok o'tganda elektrodda ajralib chiqqan cho'kmaning og'irligini aniq o'lchashga asoslangan.

Elektrolit eritmalaridan tok o'tganda elektrodda har xil moddalar (metallar, nometallar, oksidlar va boshqalar) ajralib chiqadi.

Bunda katorra oksidlovchilarining qaytarilish jarayoni sodir bo'ladi:



Anodda qaytaruvchilarining oksidlanish jarayoni sodir bo'ladi:



Gravimetrik elektrotahlilda tok manbaidagi kuchlanishni sozlab, tok kuchini doim o'zgarmas holda ushlab turiladi. Tok manbaidagi maksimal kuchlanishni va berilayotgan elektr yurituvchi kuchning (E.Yu.K.) minimal qiymatini to'g'ri hisob qilib, aniqlanayotgan elementni qo'shimchalarsiz toza holda cho'ktirish mumkin. Eritma bilan metall orasida paydo bo'lgan E.Yu.K. ning muvozanat potensiali Nernst tenglamasi bilan ifodalanadi:

$$E = E^0 + \frac{0,059}{n} \cdot \lg C$$

Elektroliz uchun kerak bo'lgan kuchlanishni quyidagi formula yordamida hisoblash mumkin:

$$E = (E_a + \eta_a) - (E_k + \eta_k) + JR$$

bu yerda,  $E_a$ ,  $E_k$  – anod va katodning Nernst tenglamasi yordamida hisoblangan muvozanat potensiallari;

$\eta_a$ ,  $\eta_k$ -anod va katodlardagi ortiqcha kuchlanishlar;

$J$  -tok kuchi, Amper;

$R$  -zanjirning qarshiligi, Om.

Elektroddagi ortiqcha kuchlanish quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$\eta = E - E_{hosil}$$

bu yerda,  $E_{hosil}$  - Nernst formulasi yordamida hisoblangan yacheykaning E.Yu.K.si.

### 9.3. Gravimetrik tahlilga oid namunaviy masalalar

#### 1-masala

Tabiiy silikatdagi alyuminiyni  $Al_2O_3$  ko'rinishda gravimetrik faktori nechaga teng?

Yechish: Gravimetrik faktor quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$F_{Al} = \frac{2A_{Al}}{M_{Al_2O_3}}$$

Bu yerda,  $A_{Al}$  -alyuminiy elementining atom massasi;

$M_{Al_2O_3}$  -alyuminiy oksidining molyar massasi.

Kattaliklarning son qiymatlarini formulaga qo'yib hisoblaymiz:

$$F_{Al} = \frac{2 \cdot 26,9815}{101,9612} = 0,5293$$

#### 2-masala

1 g o'g'it tarkibidagi fosfat-ioni magniy-ammoniyfosfat ( $MgNH_4PO_4$ ) ko'rinishda cho'ktiriladi. Cho'kmani  $900^{\circ}\text{C}$  haroratda qizdirib, magniy pirofosfat ko'rinishga o'tkazildi va massasi analistik tarozida o'lchandi ( $0,2552$  g). Fosforning o'g'itdagi foiz miqdori hisoblansin.

Berilgan:  $m=1,0000$  g. o'g'it;  $m_1=0,2550$  g  $Mg_2P_2O_7$

Topish kerak: %R=?

Yechish: O'g'itdagi fosforning foiz konsentrasiyasini quyidagi formula yordamida hisoblash mumkin:

$$\% P = \frac{m_1 \cdot F_p \cdot 100}{m};$$

Bu yerda,

$$F_p = \frac{2A_p}{M_{Mg_2P_2O_7}} = \frac{2 \cdot 30,9738}{222,5533} = 0,2783$$

$F_p$  -fosforning gravimetrik faktori;

$A_p$ -fosforning atom massasi, 30,9738 g;

$M_{Mg_2P_2O_7}$ -magniy pirofosfatning molyar massasi, 222,5533g

Yozilgan kattaliklarning son qiymatlarini formulaga qo'yib hisoblaymiz:

$$\% P = \frac{0,2550 \cdot 0,2783}{1,0000} = 7,0980 \approx 7,10\% .$$

### 3-masala

Sul`fat kislota eritmasining 100 ml hajmdagi qismidan  $SO_4^{2-}$  anioni  $BaSO_4$  ko'rinishda cho'ktirib standartlashtirilgan. Qizdirilgan  $BaSO_4$  cho'kmasing massasi 0,4730 g ga teng. Sul`fat kislota eritmasining molyar konsentrasiyasi nechaga teng?

Berilgan: V=100 ml  $BaSO_4$ ;  $m_1=0,4730$  g  $BaSO_4$

Topish kerak:  $C_{H_2SO_4}=?$

Yechish: Bariy sul`fatdagi sul`fat-anionining massasini quyidagi formula yordamida hisoblaymiz:

$$m_{SO_4^{2-}} = \frac{m_{BaSO_4} \cdot M_{SO_4^{2-}} (\text{molyarmassa})}{M_{BaSO_4} (\text{molyarmassa})};$$

$$m_{SO_4^{2-}} = \frac{0,4730 \cdot 96,0576}{233,3976} = 0,19472$$

Xuddi shunday sul`fat kislotaning massasini ham aniqlaymiz:

$$m_{H_2SO_4} = \frac{m_{SO_4^{2-}} \cdot M_{H_2SO_4} (\text{molyarmassa})}{M_{SO_4^{2-}} (\text{molyarmassa})};$$

$$m_{H_2SO_4} = \frac{0,1947 \cdot 98,0734}{96,0576} = 0,1988 \text{ g } H_2SO_4;$$

100 ml eritmada 0,1988 g  $H_2SO_4$  bo'lsa,

1000 ml eritmada 1,1988 g  $H_2SO_4$  bo'ladi.

$$C_{H_2SO_4} = \frac{m_{H_2SO_4}}{M_{H_2SO_4}} = \frac{1,9880}{98,0734} = 0,0203 \text{ mol/l; } H_2SO_4$$

### 4-masala

Agar tahlil bo'yicha havoda quritilgan ohak tarkibidagi komponentlarning miqdori 64,77%  $CaO$ ; 25,1% qum; 10,13% namni tashkil etgan bo'lsa, absolyut quritilgan ohak tarkibidagi kal'siy oksidi va qumning foiz konsentrasiyalari aniqlansin:

Berilgan:  $a_{CaO} = 64,77\%$ ;  $a_{SiO_2} = 25,1\%$ ;  $a_{H_2O} = 10,13\%$

Topish kerak:  $C_{CaO} = ?$ ;  $C_{SiO_2} = ?$

Yechish: Tahlilning absolyut quruq modda bo'yicha qayta hisoblash formulasini yozamiz:

$$C = \frac{a \cdot 100}{(100 - \epsilon)};$$

Bu yerda,  $a$  -ohakning namolidagi komponentlarning ( $\text{CaO}$ ,  $\text{SiO}_2$ ) miqdori;  $\epsilon$  - namunaning namligi.

$$C_{\text{CaO}} = \frac{64,77 \cdot 100}{(100 - 10,13)} = \frac{6477,00}{89,87} = 72,02\% \text{ CaO};$$

$$C_{\text{SiO}_2} = \frac{25,1 \cdot 100}{(100 - 10,13)} = \frac{2510,00}{89,87} = 29,93\% \text{ SiO}_2;$$

### 5-masala

Massasi 2,6248 g ga teng bo'lgan toshko'mir namunasi, quritilgandan so'ng uning o'zgarmas massasi 2,5420 g ga teng bo'ldi. Namunaning namligi necha foizni tashkil etgan?

Berilgan:  $q = 2,6448 \text{ g}$ ;  $q_1 = 2,5420 \text{ g}$

Topish kerak:  $\%_{H_2O} = ?$

Yechish: Namunaning  $q$  g umumi og'irligini 100% deb olsak, namunadagi suvning og'irligi  $(q - q_1)$  g X % ga teng bo'ladi.

Proporsiya tuzamiz:

$$\begin{aligned} q &= 100 \% \\ (q - q_1) &= X \% \\ X &= \frac{(q - q_1) \cdot 100}{q}; \\ X &= \frac{(2,6448 - 2,5420) \cdot 100}{2,6448} = 3,16\% \text{ } H_2O; \end{aligned}$$

### 6-masala

Rux rudali ikkita namuna tahlil qilinganda, birinchi namunada 1,5% suv, 45,3 % rux borligi aniqlangan. Ikkinci namunada 0,67 % suv va 45,7 % rux borligi aniqlangan. Ikkala namunadagi suvning miqdorlari bir xil bo'lsa, namunalardagi ruxning miqdorlari bir-birlaridan farq qiladimi?

Berilgan:  $a_1 = 45,3\% \text{ Zn}$ ;  $b_1 = 1,5\% \text{ H}_2\text{O}$ ;  $a_2 = 45,7\% \text{ Zn}$ ;  $b_2 = 0,67\% \text{ H}_2\text{O}$ ;

Topish kerak:  $C_1 = ?$ ;  $C_2 = ?$

Yechish: Ikkala ruxning miqdorini absolyut quruq moddaga nisbatan qayta hisoblash formulasi yordamida hisoblaymiz:

$$C_1 = \frac{a_1 \cdot 100}{(100 - \epsilon_1)}; C_2 = \frac{a_2 \cdot 100}{(100 - \epsilon_2)};$$

$$C_1 = \frac{45,3 \cdot 100}{100 - 1,5} = \frac{4530}{98,5} = 45,99\%$$

$$C_2 = \frac{45,7 \cdot 100}{100 - 0,67} = \frac{4570}{99,33} = 46,01\%$$

Hisob natijalari shuni ko'rsatadiki, ikkala namunaning namligi bir xil bo'lganda, ruxning miqdorlari bir-biridan farq qilar ekan.

### 7-masala

Mineral suv tahlil qilinganda suvdagi hamma kationlarning yig'indisi 418,7 milligramm-ekvivalentga, anionlarning yig'indisi 416,7 ga, faqat kal'siy kationi 203,6 ga teng bo'ldi. Kal'siyning ekvivalent foizi va tahlilning xatosi foizlarda aniqlansin.

Berilgan:  $\sum_{K^+} = 418,7 \text{ mg-ekv}; \sum_a = 416,7 \text{ mg-ekv}; \sum_{Ca^{+2}} = 203,6 \text{ mg-ekv}$

Topish kerak:  $\% Ca^{+2} = ?; D = ?;$

Yechish: Namunadagi hamma kationlar yig'indisini mg-ekv.larda 100 foizga teng deb olsak,  $Ca^{+2}$  kationini mg-ekv.larda X foizga teng bo'ladi. Proporsiya tuzamiz:

$$418,7 \text{ mg-ekv} — 100 \%$$

$$203,6 \text{ mg-ekv} — X \%$$

$$X = \frac{203,6 \cdot 100}{418,7} = 48,63\% \text{ } Ca^{+2}$$

Tahlilning xatosini quyidagi formula yordamida hisoblaymiz:

$$D = \frac{\left(\sum_{K^+} - \sum_a\right)}{\left(\sum_{K^+} + \sum_a\right)} \cdot 100 = \frac{(418,7 - 416,7)}{(418,7 + 416,7)} \cdot 100 = 0,24\%$$

### 8-masala

Suvning tahlilida  $4,87 \cdot 10^{-3}$  mol/l magniy ioni va  $19,75 \cdot 10^{-3}$  mol/l sul`fat ioni borligi topildi. ionlarning miqdori milligramm-ekvivalentlarda aniqlansin.

Berilgan:  $[Mg^{+2}] = 4,87 \cdot 10^{-3} \text{ mol/l}; [SO_4^{-2}] = 19,75 \cdot 10^{-3} \text{ mol/l}$

Topish kerak:  $[Mg^{+2}]_{\text{mg-ekv.}} = ? \quad [SO_4^{-2}]_{\text{mg-ekv.}} = ?$

Yechish:  $Mg^{+2}$  va  $SO_4^{-2}$  ionlarning miqdorini mg-ekv.larda quyidagi formula yordamida hisoblaymiz:

$$\left[ Mg^{+2} \right]_{mg-ekv} = \frac{\left[ Mg^{+2} \right]}{\vartheta_{Mg^{+2}}} = \frac{4,87 \cdot 10^{-3}}{12,15} = 4,01 \cdot 10^{-4} mg - ekv;$$

$$\left[ SO_4^{-2} \right]_{mg-ekv} = \frac{\left[ SO_4^{-2} \right]}{\vartheta_{SO_4^{-2}}} = \frac{19,75 \cdot 10^{-3}}{48,03} = 4,11 \cdot 10^{-4} mg - ekv$$

### Masala 9

Agar  $Fe_2O_3$  tortma formasining massasi 0,2830 g ga teng bolsa, namunadagi temirning miqdorini hisoblang.

Berilgan:  $a_{Fe_2O_3} = 0,2830 g$

Topish kerak:  $q_{Fe^{+2}} = ?$

Yechish: Namunadagi temirning miqdorini gravimetrik faktor formulasidan foydalanib aniqlaymiz:

$$q_{Fe^{+2}} = a_{Fe_2O_3} \cdot F$$

$$F = \frac{2A_{Fe}}{M_{Fe_2O_3}};$$

F-gravimetrik faktor.

$$q_{Fe} = a_{Fe_2O_3} \cdot \frac{2A_{Fe}}{M_{Fe_2O_3}};$$

$$q_{Fe} = 0,2830 \cdot \frac{111,70}{159,70} = 0,1979 g Fe$$

### 10-masala

Texnik kal'siy karbonatning 0,8644 g namunasi kal'siy sul'fat ko'rinishda tortma formaga o'tkazilgan. Texnik foramaning massasi 0,8500 g ga teng. Ohak namunasidagi kal'siyning miqdori foizlarda topilsin.

Berilgan:  $q_{CaCO_3} = 0,8644 g$      $a_{CaSO_4} = 0,8500 g$

Topish kerak:  $\% Ca = ?$

Yechish: Kal'siy sul'fatdagi kal'siyning miqdorini (grammlarda) quyidagi formula yordamida aniqlaymiz:

$$q_{Ca} = a_{CaSO_4} \cdot \frac{A_{Ca}}{M_{CaSO_4}} = 0,2502 g;$$

Kal'siyning miqdorini foizlarda aniqlash uchun proporsiya tuzamiz:

$$q_{CaCO_3} — 100 \%$$

$$q_{Ca} — X \%$$

$$X = \frac{q_{Ca} \cdot 100}{q_{CaCO_3}}$$

$$X = \frac{0,2502 \cdot 100}{0,8644} = 28,95\%$$

## 11-masala

0,3 g dan ko'p bo'lmasagan qizdirilgan kal'siy oksidini olish uchun necha gramm kal'siy fosfat namunasidan olish kerak bo'ladi?

Berilgan:  $a_{CaO} = 0,3g$

Topish kerak:  $q_{Ca_3(PO_4)_2} = ?$

Yechish: Qizdirilgan SaO cho'kmasidan kal'siyning massasini quyidagi formula yordamida aniqlaymiz:

$$q_{Ca} = \frac{a_{CaO} \cdot A_{Ca}}{M_{CaO}} = \frac{0,3 \cdot 40,08}{56,08} = 0,21g$$

Birinchi variant: proporsiya tuzamiz:

310,18 g  $Ca_3(PO_4)_2$  — 3·40,08 g  $Ca^{+2}$  ioni bo'lsa,

$X$  g  $Ca_3(PO_4)_2$  — 0,21 g  $Ca^{+2}$  ioni bo'ladi.

$$X = \frac{310,18 \cdot 0,21}{120,24} = 0,55g Ca_3(PO_4)_2$$

Ikkinchi variant: Kal'siy fosfat namunasi bo'yicha qayta hisoblash formulasidan foydalanib hisoblash mumkin:

$$q_{Ca} = \frac{q_{Ca_3(PO_4)} \cdot 3A_{Ca}}{M_{Ca_3(PO_4)}};$$

$$q_{Ca_3(PO_4)} = \frac{q_{Ca} \cdot M_{Ca_3(PO_4)}}{3A_{Ca}} = \frac{0,21 \cdot 310,18}{120,24} = 0,55g$$

## 12-masala


Agar tahlil uchun tarkibida 12% temir bo'lgan rudadan 0,5263 g olingan bo'lsa, temir gidroksid ko'rinishda cho'ktirish uchun zichligi 0,987 ga teng bo'lgan 2,5 foizli ammiak eritmasidan necha ml olish kerak bo'ladi?

Berilgan:

$$C = 2,5\% NH_4OH; q = 0,5263 \text{ g} \quad q_{Fe} = 12\%; d_{NH_3} = 0,987 \text{ g / sm}^3$$

Topish kerak:  $V_{NH_4OH} = ?$

Yechish: Temir ionini ammiakning suvli eritmasi bilan cho'ktirish reaksiyasini yozamiz:



Ruda tarkibidagi temirning miqdorini quyidagi formula yordamida aniqlaymiz:

$$q_{Fe} = \frac{q \cdot q_{Fe}}{100} = \frac{0,5263 \cdot 12}{100} = 0,0632 g Fe;$$

Cho'ktirish reaksiyasi tenlamasiga binoan ammiakning gramm miqdorini aniqlaymiz:



$$q_{NH_4OH} = \frac{0,0632 \cdot 105,1368}{55,8470} = 0,1190 \text{ g } NH_4OH$$

Ammiak eritmasining hajmini quyidagi formula yordamida aniqlaymiz:

$$V_{NH_4OH} = \frac{q_{NH_4OH} \cdot 100}{C_{NH_4OH} \cdot d_{NH_4OH}} = \frac{0,1190 \cdot 100}{2,500 \cdot 0,9870} = 4,82 ml NH_4OH$$

### 13-masala

0,2000 g bariy sul`fat cho'kmasi 400 ml suv bilan yuvilgan. Cho'kmaning qancha miqdori eritmaga o'tgan?

Berilgan:

$$q_{BaSO_4} = 0,2000 \text{ g } V_{H_2O} = 400 ml; \quad EK_{BaSO_4} = 1 \cdot 10^{-10}$$

Topish kerak:  $\%_{BaSO_4} = ?$   $BaSO_4$  ning eritmaga o'tgan foiz miqdori

$$\underline{\text{Yechish: }} [Ba^{+2}] = [SO_4^{-2}] = \sqrt{\mathcal{E}K_{BaSO_4}}$$

$BaSO_4$  cho'kmaning 1 l eritmadiagi eruvchianligini quyidagi formula yordamida aniqlaymiz:

$$E_{BaSO_4} = \sqrt{EK_{BaSO_4}} \cdot M_{BaSO_4}, \text{ g/l}$$

Yozilgan kattaliklarning son qiymatlarini formulaga qo'yib hisoblaymiz:

$$E_{BaSO_4} = \sqrt{1 \cdot 10^{-10}} \cdot 233,35 = 1 \cdot 10^{-5} \cdot 233,35 = 0,0023 \text{ g/l } BaSO_4$$

$BaSO_4$  ning foizlardagi miqdorini quyidagi formula yordamida hisoblaymiz:

$$X = \frac{V_{H_2O} \cdot E_{BaSO_4}}{10 \cdot q_{BaSO_4}} = \frac{400 \cdot 0,003}{10 \cdot 0,2000} = 0,5\% BaSO_4$$

### 14-masala

Tahlil uchun olingan torf namunasidan 1,6340 g olingan bo'lsa, o'zgarmas massagacha qizdirilgandan so'ng 0,4102 g kuli qoldi. Namunaning kullanganligi foizlarda hisoblansin.

Berilgan:

$$q = 1,6340 \text{ g}; q_1 = 0,4102 \text{ g}$$

Topish kerak: %<sub>кын</sub> = ?

Yechish: Namunaning kullanganligini proporsiya tuzib aniqlaymiz:

$$q = 100\%,$$

$$q_1 = \% \text{ kullanganlik}.$$

$$\% \text{ kullanganlik} = \frac{q_1 \cdot 100}{q} = \frac{0,4102 \cdot 100}{1,6340} = 25,10\%$$

### 15-masala

Zichligi  $1,035 \text{ g/sm}^3$  bo'lgan  $5,23\%$  li  $\text{H}_2\text{SO}_4$  eritmasidan olib, 2 n li bariy xlorid eritmasi bilan  $\text{SO}_4^{2-}$  anioni to'liq cho'ktirilgan. Agar cho'ktiruvchi  $20\%$  ortiqcha qo'shilgan bo'lsa necha millilitr  $\text{BaCl}_2$  eritmasi qo'shilgan?

Berilgan:

$$d = 1,035 \text{ g / ml};$$

$$A = 5,23\% \text{ } \text{H}_2\text{SO}_4$$

$$C = 2,000 \text{ nM} \text{ BaCl}_2;$$

$$V = 10,00 \text{ ml}$$

$$V_o = 20\% \text{ BaCl}_2$$

Topish kerak:

$$V_{\text{BaCl}_2} = ? \text{ ml}$$

Yechish. Cho'ktirish reaksiya tenglamasini yozamiz:



Avval cho'ktirish uchun olingan sul`fat kislota eritmasining massasini hisoblaymiz:

$$m = d \cdot V = 1,035 \cdot 10 = 10,350 \text{ g H}_2\text{SO}_4$$

100 g  $\text{H}_2\text{SO}_4$  eritmasida —  $5,230 \text{ g H}_2\text{SO}_4$  bo'lsa,

$$10,350 \text{ g} — X \text{ g H}_2\text{SO}_4 \text{ bo'ladi.}$$

$$X = \frac{10,350 \cdot 5,230}{100} = 0,541 \text{ g H}_2\text{SO}_4$$

$\text{BaCl}_2$  ning molekulyar massasi  $208,206 \text{ g/mol}$  ga teng.

Cho'ktirish reaksiya tenglamasiga binoan:

$$0,541 \text{ g H}_2\text{SO}_4 — 208,206 \text{ g BaCl}_2 \text{ ni cho'ktirilsa,}$$

$$0,541 \text{ g H}_2\text{SO}_4 — X \text{ g BaCl}_2 \text{ cho'ktiradi.}$$

$$X = \frac{208,206 \cdot 0,541}{98,078} = 1,150 \text{ g BaCl}_2$$

Birinchi variant: Bariy xloridning ekvivalent massasi  $104,103 \text{ g}$  ga teng.

1000 ml 2 n BaCl<sub>2</sub> eritmasida — 2 · 104,103 g BaCl<sub>2</sub> bo'lsa,  
 X ml 2 n BaCl<sub>2</sub> — 1,150 g BaCl<sub>2</sub> bo'ladi.

$$X = \frac{1,150 \cdot 1000}{208,206} = 5,520 \text{ ml BaCl}_2$$

Ikkinchi variant: Quyida ko'rsatilgan formuladan foydalanib, cho'ktirish uchun qo'shilgan BaCl<sub>2</sub> eritmasining hajmini hisoblaymiz:

$$q = \frac{C \cdot \mathcal{E}}{1000} \cdot V$$

$$V = \frac{q \cdot 1000}{C \cdot \mathcal{E}} = \frac{1,150 \cdot 1000}{104,103 \cdot 2} = 5,52 \text{ ml}$$

BaCl<sub>2</sub> ning ortiqcha miqdorda qo'shilgan hajmini (ml da) aniqlash uchun masalaning shartidan kelib chiqib, proporsiya tuzamiz:

$$100\% — 5,52 \text{ ml BaCl}_2,$$

$$20\% — X \text{ ml BaCl}_2.$$

$$X = \frac{5,52 \cdot 20}{100} = 1,10 \text{ ml}$$

Demak, SO<sub>4</sub><sup>-2</sup> anionini to'liq cho'ktirish uchun 5,52 + 1,10 = 6,62 ml 2 n li BaCl<sub>2</sub> eritmasi qo'shilgan.

## 16-masala

Toza organik birikmalarning formulasi C<sub>6</sub>H<sub>6-x</sub>OCl<sub>x</sub> bo'lgan 0,1500 g namunaning parchalanishidan hosil bo'lgan xlorid-ioni kumush xlorid ko'rinishda cho'ktirildi va o'lchandi. Cho'kmaning massasi 0,4040 g ga teng. X kattalikni hisoblang va organik birikmalarning haqiqiy formulasini yozing.

Berilgan:

$$q = 0,1500 \text{ g } C_6H_{6-x}OCl_x, q_1 = 0,4040 \text{ g AgCl}$$

Topish kerak: X = ?

Yechish: Xlorid ionining miqdorini quyidagi formula yordamida hisoblaymiz:

$$q_{Cl^-} = \frac{q_1 \cdot A_{Cl}}{M_{AgCl}} = \frac{0,4040 \cdot 35,4530}{143,3210} = 0,099 \text{ g } Cl^-$$

Organik moddaning namunasida necha foiz xlor borligini bilish uchun proporsiya tuzamiz:

$$q — 100\%,$$

$$q_{Cl^-} — X \%$$

$$100$$

$$X = \frac{0,0999 \cdot 100}{0,1500} = 66,6\%$$

Formuladagi organik qoldiqning va xlorning foizli nisbatlarini aniqlaymiz:

$$\frac{33,4}{66,6} = \frac{1}{2},$$

Demak, X=2 ga teng ekan. Organik birikmaning ko'rinishi quyidagi ko'rinishga ega ekan:  $C_6H_4OCl_2$

### 17-masala

To'yingan kalomel` elektrodga nisbatan katodning qanday potensialida simob-ionining suvli eritmasidagi konsentrasiyasi  $1,0 \cdot 10^{-6}$  mol<sup>-1</sup>/l gacha pasayadi?

Berilgan:  $[Hg^{+2}] = 1,0 \cdot 10^{-6}$  mol<sup>-1</sup>/l

Topish kerak:  $E_{t.k.e.nisb.} = ?$

Yechish: Adabiyot ma'lumotlaridan foydalanib, simobning standart potensialini aniqlaymiz:



Eritmadan tok o'tkazsak, katodda simob metali, anodda kislород ajralib chiqadi. Yacheykada sodir bo'lgan reaksiya tenglamasini yozamiz:



Katodning potensialini Nernst tenglamasidan foydalanib hisoblaymiz:


$$E = E^{\circ}_{Hg^{+2}/Hg} + \frac{0,059}{n} \lg [Hg^{+2}]$$

Bu yerda, n-qabul qilingan elektron soni.

Yozilgan kattaliklarning son qiymatlarini tenglamaga qo'yib hisoblaymiz:

$$E = 0,854 + \frac{0,059}{2} \lg 1,0 \cdot 10^{-6} = 0,854 - \frac{0,059 \cdot 6}{2} = 0,854 - 0,177 = 0,677V$$

To'yingan kalomel` elektrodining standart potensialini adabiyot ma'lumotidan foydalanib aniqlaymiz:



$$E^{\circ}_{K.E.} = +0,240V$$

Katodning to'yingan kalomel` elektrodga nisbatan potensiali elektrodlarning potensiallarini farqiga teng:

$$E_{T.K.E.nisb} = E - E^{\circ}_{K.E.} = 0,678 + 0,240 = 0,438V$$

### 18-masala

Toýingan kalomel` elektrodga nisbatan katodning qanday potensialida bromid-ionining muvozanat konsentrasiyasi  $0,250 \text{ mol}^{\circ}/\text{l}$  ga teng boýlgan suvli eritmasida simob ionining muvozanat konsentrasiyasi  $1,0 \cdot 10^{-6} \text{ mol}^{\circ}/\text{l}$  gacha pasayadi?


Berilgan:  $[Hg^{+2}] = 1,0 \cdot 10^{-6} \text{ mol}^{\circ}/\text{l}$   $[Br^-] = 2,5 \cdot 10^{-1} \text{ mol/l}$

$$E^\circ = 0,123\epsilon([HgBr_4]^{-2} + 2e^- \Leftrightarrow Hg_{suyul} + 4Br^-)$$


Bu yerda,  $E^\circ$ -simobning bromid-ioni eritmasidagi standart potensiali.

Topish kerak:  $E_{t.k.e.nisb.} = ?$

Yechish: Katodning potensialini Nernst formulasi yordamida hisoblash mumkin:



$$E = E^\circ + \frac{0,059}{n} \lg \frac{[HgBr_4]^{-2}}{[Br^-]^4}$$



Bu tenglamaga binoan:  $[HgBr_4]^{-2} = [Hg^{+2}] = 1 \cdot 10^{-6} \text{ mol}^{\circ}/\text{l}$


Yozilgan kattaliklarning son qiymatlarini Nernst tenglamaga qoýib, quyidagi natijalarini olamiz:

$$\begin{aligned} E &= 0,223 + \frac{0,059}{2} \lg \frac{1,0 \cdot 10^{-6}}{(2,5 \cdot 10^{-1})^4} = 0,223 + \frac{0,059}{2} \lg \frac{1,0 \cdot 10^{-6}}{3,906 \cdot 10^{-3}} = 0,223 + \frac{0,059}{2} \lg 2,560 \cdot 10^{-4} = \\ &= 0,223 - \frac{0,059 \cdot 3,592}{2} = 0,223 - 0,106 = 0,117\epsilon \end{aligned}$$

Katodning toýingan kalomel` elektrodga nisbatan potensiali elektrodlarning potensiallarining farqiga teng:

$$E_{T.K.E.} = E_{nisb} - E_{T.K.E.}^0$$

Toýingan kalomel` elektrodining potensiali adabiyot ma`lumotlariga binoan:



$$E_{T.K.E.}^\circ = +0,24\epsilon$$

YOzilgan kattaliklarning son qiymatlarini tenglamaga qoýib hisoblaymiz:

$$E_{T.K.E.nisb.} = 0,117 - (+0,240) = -0,123\epsilon$$

### Masala 19

Mis  $[Cu^{+2}]$  ionini  $Cu^\circ$  gacha elektrogravimetrik choktirishda elektrod sirtidagi konsentrasiyasi  $10^{-5} \text{ m}$  ga teng, eritmadiagi konsentrasiyasi  $10^{-3} \text{ m}$  ga teng. Elektrodning konsentrasion kuchlanganligi hisoblansin.

Berilgan:  $[Cu^{+2}]_1 = 10^{-5} \text{ m}$ ;  $[Cu^{+2}]_2 = 10^{-3} \text{ m}$ ;


$$E^\circ = 0,345\epsilon$$

Topish kerak:  $\eta = ?$  konsentrasi kuchlanganlik.

Yechish: Agar elektrondning potensiali konsentrasi potensialdan farq qilsa, Nernst tenglamasining hisobi bo'yicha u qutblangan hisoblanadi. Qutblanish kattaligi elektrondning konsentrasi kuchlanganligini ifodalaydi va u quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$\eta = E_{kons.} - E_{elektrod}$$

Agar elektrodda qaytarilish (yoki oksidlanish) jarayon tezligi juda katta bo'lsa, qaytariluvchi (yoki oksidlanuvchi) modda eritmasining elektrond yaqinidagi konsentrasiyasi elektroddan uzoqroqdagi konsentrasiyasidan farq qiladi. Ana Shunda konsentrasi qutblanish yuzaga keladi. Katodda quyidagi jarayon boradi:



$$E^\circ = 0,345\epsilon$$

Elektrodnning potensialini Nernst formulasi bo'yicha hisoblaymiz:

$$E_{elektrod} = E^\circ + \frac{0,059}{n} \lg [Cu^{+2}]_p$$

$$E_{elektrod} = 0,345 + \frac{0,059}{2} \lg 10^{-3} = 0,345 - \frac{0,059 \cdot 3}{2} = 0,345 - 0,089 = 0,256\epsilon$$

Konsentrasion qutblanish natijasida hosil bo'lgan potensialning qiymatini hisoblaymiz:

$$E_{kons.} = E^\circ + \frac{0,059}{n} \lg [Cu^{+2}] = 0,345 + \frac{0,059}{2} \lg 10^{-5} = 0,345 - \frac{0,059 \cdot 5}{2} = 0,345 - 0,148 = 0,197\epsilon$$

Konsentrasion kuchlanganlikni quyidagi formula bo'yicha hisoblaymiz:

$$\eta = E_{kons.} - E_{elektrod} = 0,197 - 0,256 = -0,059\epsilon$$


## 20-masala

Tarkibida  $0,150 \text{ mol/l}$   $BiO^+$  va  $0,600 \text{ M}$   $HClO_4$  bo'lgan eritmadan katodda vismut ajralib chiqqan. Yuzasi  $20 \text{ sm}^2$  ga teng bo'lgan platinali anodda kislorodning ajralib chiqqanligi aniqlangan. Yacheyskaning qarshiligi  $1,300 \text{ Om}$  ga teng. Kislorodning kuchlanganligi aniqlansin.

Berilgan:  $[BiO^+] = 0,150 \text{ mol/l}$ ;  $C_{HClO_4} = 0,600 \text{ M}$ ;  $S = 20 \text{ cm}^2$ ;  $R = 1,300 \text{ Om}$

Topish kerak:  $\eta_{O_2} = ?$  kislorodning kuchlanganligi.

Yechish: Adabiyot ma'lumotidan standart potensialni topamiz:



$$E^\circ = 0,320\epsilon$$

Nernst tenglamasidan katodning potensialini hisoblaymiz:

$$E = E^\circ + \frac{0,059}{n} \lg [BiO^+] \cdot [H^+]^2$$

$$E = 0,345 + \frac{0,059}{3} \lg [0,15 \cdot (0,6)^2] = 0,320 + \frac{0,059}{3} \lg 0,054 = 0,320 - 0,025 = 0,295 \text{e}$$

1 mol` HClO<sub>4</sub> dissosiyalanganda 1 mol` N<sup>+</sup> hosil bo`lsa, 0,6 mol` HClO<sub>4</sub> dan 0,6 mol` H<sup>+</sup> hosil bo`ladi. Yacheyskaning potensiali va qarshiligini bilgan holda, quyidagi formula yordamida tok kuchini aniqlash mumkin:

$$J = \frac{E}{R} = \frac{0,295}{1,300} = 0,227 \text{A}$$

Anoddagi tokning zichligini (a)quyidagi formula yordamida aniqlaymiz:

$$a = \frac{J}{S} = \frac{0,227}{20} = 0,011 \text{A/sm}^2$$

10-jadvaldan tokning zichligiga qarab, kislороднинг кучланганлигини aniqlaymiz. Tokning zichligi 0,01 da platina elektrodi uchun 0,85 v ga teng.

## 21-masala


Ichki elektroliz uchun yacheyskaning katod bo`limiga 50 ml 0,200 mol/l li mis [Cu<sup>+2</sup>] eritmasi va mis elektrodi tushirilgan. Anod bo`limiga 25,0 ml 5,00·10<sup>-4</sup> mol/l li rux [Zn<sup>+2</sup>] eritmasi va rux elektrodi tushirilgan. Yacheyskaning qarshiligi 7,5 Om ga teng. a) tok o`tishdan oldin yacheyskaning boshlang`ich potensiali va b) elektrodlar o`tkazgich bilan qisqa ulangandan keyin tokning boshlang`ich kuchi aniqlansin.

Berilgan: V<sub>Cu<sup>+2</sup></sub> = 50,0 ml; V<sub>Zn<sup>+2</sup></sub> = 25,0 ml; [Cu<sup>+2</sup>] = 2,00·10<sup>-1</sup> моль/л;


$$[Zn^{+2}] = 5,00 \cdot 10^{-4} \text{mol/l}; R = 7,5 \text{Om}$$

Topish kerak: E = ? J = ?

Yechish: Adabiyot ma`lumotidan standart potensialni topamiz:



$$E^\circ = 0,337 \text{e}$$



$$E^\circ = -0,763 \text{e}$$

[Cu<sup>+2</sup>] va [Zn<sup>+2</sup>] ionlarning berilgan xajmlaridagi konsentrasiyalarini aniqlaymiz:

2,00·10<sup>-1</sup> mol` Cu<sup>+2</sup> 1000 ml eritmada bo`lsa,

X mol` Cu<sup>+2</sup> 50 ml bo`ladi.

$$X = \frac{2,00 \cdot 10^{-1} \cdot 50}{1000} = 1,00 \cdot 10^{-2} \text{mol/l} [Cu^{+2}]$$

5·10<sup>-4</sup> mol` Zn<sup>+2</sup> 1000 ml eritmada bo`lsa,

X mol` Zn<sup>+2</sup> 25 ml bo`ladi.

$$X = \frac{5 \cdot 10^{-4} \cdot 25}{1000} = 1,25 \cdot 10^{-5} \text{ mol/l} [Zn^{+2}]$$

Katod va anodning potensiallarini Nernst tenglamasi bo'yicha hisoblaymiz:

$$E_{Cu^{+2}} = E^{\circ}_{Cu^{+2}} + \frac{0,059}{n} \lg [Cu^{+2}]$$

$$E_{Zn^{+2}} = E^{\circ}_{Zn^{+2}} + \frac{0,059}{n} \lg [Zn^{+2}]$$

Yozilgan kattaliklarning son qiymatlarini tenglamaga qo'yib hisoblaymiz:

$$E_{Cu^{+2}} = 0,337 + \frac{0,059}{2} \lg 1,00 \cdot 10^{-2} = 0,337 - 0,059 = 0,278 \text{ eV}$$

$$E_{Zn^{+2}} = 0,763 + \frac{0,059}{2} \lg 1,25 \cdot 10^{-5} = -0,763 - \frac{0,059 \cdot 4,903}{2} = -0,763 - 0,145 = -0,908 \text{ eV}$$

Yacheyskaning boshlang'ich potensiali katod va anodlarning potensiallari farqiga teng:

$$E = E_{Cu^{+2}} - E_{Zn^{+2}} = 0,2779 - (-0,9079) = 1,1858 \approx 1,19 \text{ eV}$$

b) Elektrodlar o'tkazgich bilan qisqa ulangandan so'ng tokning boshlang'ich kuchi sistemaning potensialini yacheyska qarshiligiga bo'lgan nisbatiga teng:

$$J = \frac{E}{R} = \frac{1,19}{7,5} = 0,158 \text{ A}$$

## X – bob. Titrimetrik tahlil

Miqdoriy tahlilda, ekvivalent miqdordao'zaro reaksiyaga kirishayotgan modda eritmalarning hajmini o'lchashga asoslangan usulni *titrimetrik* usul deyiladi.

Titrlashda ishlatiladigan, konsentrasiyasi aniq bo'lgan reagent eritmaga standart eritma deyiladi.

*Titrimetrik usul* tahlilda qo'llaniladigan reaksiyalarning turiga qarab, to'rtta guruhga bo'linadi: *neytrallash* (*kislota-asos*), *cho'ktirish*, *kompleks hosil qilish* va *oksidlanish-qaytarilish* usullariga bo'linadi. Bu usullar bir-birlaridan ishlatiladigan moddaning tabiatini, indikatorlari, reagentlari va birlamchi standartlari bilan Shuningdek, ekvivalent massani aniqlash yo'llari bilan farq qiladi. Suvsiz eritmalarning keng miqyosda ishlatilishi, yangi guruh usulining paydo bo'lishiga olib keldi. Bunday usulga "suvsiz eritmalarni titrlash" degan nom berildi. Titrimetrik tahlilda titrlash usuliga qarab, to'g'ri titrlash usuli, o'rinni olish usuli va teskari titrlash (qoldiqni titrlash) usullariga bo'linadi. Tahlil qilinayotgan modda eritmasiga konsentrasiyasi aniq bo'lgan eritmadan oz-ozdan qo'shib borish jarayoniga titrlash deyiladi. Titrlash jarayonida

ortiqcha reagent qo'shilmasdan, balki aniqlanadigan modda miqdoriga kimyoviy ekvivalent bo'lgan, reaksiya tenglamasiga aniq javob beradigan miqdori qo'shiladi.

Titrimetrik tahlilda natijalarning hamma hisoblari ekvivalentlikka asoslangan. Shuning uchun titrlash jarayonida ekvivalent nuqtani aniqlash kerak bo'ladi. Foydalilanayotgan tahlil usuliga va reaksiya jarayonining borishiga qarab ekvivalent nuqtani aniqlash usuli har xil bo'ladi. Masalan, kislota-asos titrlashda ekvivalent nuqtani aniqlashda indikator usuli qo'llaniladi, garchi boshqa instrumental usullar (pH – metrli, potensiometrli va hokazo) bo'lsa ham. Ekvivalent nuqtani aniqlashda har qanday o'lchashlar absolyut aniq bo'lmasdan, ayrim xatolikka yo'l qo'yiladi (I- bobga qaralsin). Masalan, kislota-asos usuli bilan titrlashda, ekvivalent nuqtaning pH qiymati indikatorning titrlash ko'rsatkichi ( $pT$ ) qiymatiga to'g'ri kelmaydi, natijada indikator xatoga yo'l qo'yadi. Agar ekvivalent nuqtada  $pT < pH$  bo'lsa, xatolik ortiqcha  $H^+$  ioni hisobiga kelib chiqib, vodorodli xato deyiladi yoki  $H^+ - xatolik$  deyiladi.

Agar ekvivalent nuqtada  $pT > pH$  bo'lsa, xatolik ortiqcha  $OH^-$  ioni hisobiga kelib chiqib, gidroksil xatolik yoki  $[OH^-] - xatolik$  deyiladi.

Agar kuchsiz kislotani kuchli asos bilan titrlansa, kelib chiqqan xatoni kislotali xato yoki ( $HAn$ ) va asosli xatoni gidroksil xato yoki ( $MeOH$ ) deyiladi. Xatolikning belgisi ham muhim ahamiyatga ega bo'ladi: Massalan,  $H^+ - xato$  va  $HAn$  xatolikka “–” minus belgisi to'g'ri keladi.  $OH^- - xatolik$  va  $MeOH$  xatolikka “+” to'g'ri keladi. Bu qo'llanmada xatolikni hisoblash uchun formulalar keltirilgan bo'lib, ularga to'liq tuShunchalar berilmagan, chunki xatoliklar o'quv adabiyotlarida to'liq yoritib berilgan.

1. *Vodorodli titrlash xatoligi* foizlarda quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$H^+ - xatolik = \frac{10^{-pT} \cdot V_2}{C \cdot V_1} \cdot 100\%$$

bu yerda,  $pT$  – indikatorning titrlash ko'rsatkichi;

$C$  – titrlanayotgan kislotaning konsentrasiysi;

$V_1$  – kuchli kislotaning hajmi, ml;

$V_2$  – titrlash oxiridagi eritmaning umumiy hajmi, ml.

2. *Gidroksilli titrlash xatoligi* foizlarda quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$OH^- - xatolik = \frac{10^{-(14-pT)} \cdot V_2}{C \cdot V_1} \cdot 100\%$$

3. *Kislotali titrlash xatolik* ( $NAn$ ), bu xatolik titrlash oxirida eritmada kuchsiz kislotaning ionlanmay qolgan molekulalarning hisobiga paydo bo'lgan xatolik bo'lib, quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$HAn - xatolik = 10^{pK-pT} \cdot 100\%$$


4. Ishqorli titrlash xatolik ( $MeOH$ ), bu xatolik titrlash oxirida eritmada kuchsiz asosning ionlanmay qolgan molekulalarning hisobiga paydo bo'lgan xatolik bo'lib, quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$MeOH - xatolik = 10^{pK+pT-14} \cdot 100\%$$

Titrlash jarayonlarni quyidagi usullar bilan olib borish mumkin:

a) *to'g'ri titrlash usuli* – bunda aniqlanadigan ionni reagent eritma bilan titrlanadi (yoki teskari).


Masalan:



(indikator bilan)

b) *o'rin olish usuli* – bu usul aniqlanadigan ion to'g'ridan – to'g'ri ishchi eritma bilan reaksiyaga kirisha olmaydi yoki ekvivalent nuqtani aniqlash qiyin bo'lgan hollarda ishlatiladi.

Masalan:



Bunda,  $Cr^{+2}$ ioni havo kislorodi bilan oson oksidlangan uchun, uni  $Fe^{+2}$ ioni bilan almashtirib kislotali sharoitda  $KMnO_4$  bilan osongina titrlanadi. Bunda,  $Fe^{+2}$ ioning miqdori  $Cr^{+2}$ ioni bilan almashgan miqdoriga ekvivalent bo'ladi.

d) *teskari titrlash* – bunda aniqlanayotgan eritma ustiga ortiqcha miqdorda reagent eritma quyladi va ortib qolgan reagent miqdori boshqa reagent bilan titrlanadi.

Masalan:



bunda, ortib qolgan  $HCl$  ni ishqor bilan titrlanadi. Namunadagi  $CaCO_3$  ni eritish uchun sarflangan  $HCl$  ning miqdorini aniqlab,  $CaCO_3$  ning miqdori hisoblab topiladi.

Titrimetrik usulda eritma konsentrasiyasi ko'pincha titr va normal kosentrasiyalar bilan ifodalanadi. Eritmaning titri ( $T$ ) deb,  $1\text{sm}^3$  yoki bir millilitr eritmadi modda massasiga aytildi. Masalan,  $Na_2CO_3$  ning titri  $0,002731 \text{ g/ml}$  ga teng. Bu esa natriy karbonat eritmasining har bir millimetrida  $0,002731 \text{ g}$   $Na_2CO_3$  borligini ko'rsatadi va

$$T_{Na_2CO_3} = 0,002731 \text{ g / ml}$$

deb yoziladi.

Eritmaning titrini empirik formula yordamida hisoblash mumkin:

$$T = \frac{q}{V}; \text{g / ml}$$

bu yerda,  $q$  – moddaning eritmadi massasi, g;

$V$  – eritmaning hajmi, ml.

Aniqlanayotgan modda bo'yicha titri deb, bir millilitr ishchi eritmaga ekvivalent bo'lgan aniqlanuvchi moddaning gramm miqdoriga aytildi.

Masalan,

$$T_{H_2SO_4 / NaOH} = 0,0042 \text{ g / ml}$$

Bu esa 1 ml sul`fat kislota  $0,0042 \text{ g}$   $NaOH$  ni titrlaganini ko'rsatadi.

Aniqlanuvchi modda bo'yicha titrining aniqlovchi modda titriga bo'lgan nisbati Shu moddalar ekvivalent massalarining nisbatiga teng bo'ladi:

$$\frac{T_{H_2SO_4 / NaOH}}{T_{H_2SO_4}} = \frac{E_{NaOH}}{E_{H_2SO_4}}$$

$$T_{H_2SO_4 / NaOH} = T_{H_2SO_4} \cdot \frac{E_{NaOH}}{E_{H_2SO_4}}$$

Bir litr yoki bir kub desimetr eritmadi erigan moddaning gramm – ekvivalent miqdoriga normal eritma deyiladi. Moddaning ekvivalent massasi deb, 1,008 g vodorodni biriktira oladigan yoki almasha oladigan modda yoki elementning gramm miqdoriga aytildi. Konsentrasiyasi bir xil bo'lgan eritmalarda bir xil hajmda reaksiya boradi:

$$\frac{V_1}{V_2} = \frac{C_2}{C_1} \text{ yoki}$$

$$\frac{V_1}{V_2} = \frac{N_2}{N_1}$$

Modda massasini quyidagi formula yordamida hisoblash mumkin:

$$q = \frac{C \cdot V \cdot \Theta}{1000}$$

Namunadagi aniqlanayotgan moddaning foiz konsentrasiyasi quyidagi formula yordamida topiladi:

$$q(\%) = \frac{C \cdot V \cdot \Theta}{1000}$$

Ayrim hollarda eritma tayyorlash uchun moddaning nazariy hisoblangan miqdorini olmasdan unga to'g'rilaqich koeffisienti kiritiladi.

To'g'rilaqich koeffisienti deb, amalda tortib olingan namunaning miqdorini nazariy hisoblangan miqdoriga bo'lgan nisbatiga aytildi:

(C – tayyorlangan eritmaning normal konsentrasiyasi,

$C_1$  – nazariy hisoblangan moddaning normal konsentrasiyasi:  $C=K \cdot C_1$ ).

## 10.1. Kislota – asos titrlash

Kislota – asos titrlash usuli kislota – asos reaksiyasiga asoslangan usulga aytildi. Bu usul kimyoviy tahlilda keng miqyosda qo'llaniladi. Kuchli kislotani kuchli ishqor titrlayotganda ekvivalent nuqtada pH ning qiymati keskin o'zgaradi, Shuning uchun kislota – asos titrlashda standart eritmalarini kuchli kislota yoki kuchli ishqorlardan tayyorlanadi. HCl va  $H_2SO_4$  larning standart eritmalarini ularning konsentrangan eritmalaridan sultirib tayyorlash mumkin, bunda ularni natriy karbonat yoki birlamchi asoslarning standart eritmalaridan foydalanim standartlashtirish mumkin.

Kislota – asos titrlash usuli bilan kislota – asos xususiyatiga ega boʻlgan noorganik, organik, biologik moddalarning miqdorini aniqlash mumkin. Masalan, bu usul suvning karbonatli qattiqligini aniqlashda ishlataladi. Suvning qattiqligi odatda umumiylashtirilishi vaqtincha va doimiy qattiqlikka boʻlinadi:

Vaqtincha (karbonatli, yoʻqoladigan) qattiqlik – bu , suvda erigan kal`siy, magniy, ayrim xollarda temir gidrokarbonatlarining miqdorlari bilan belgilanadi. Suvni qaynatish bilan bu qattiqlikni yoʻqotish mumkin:



*Doimiy qattiqlik* – kal`siy va magniyning sul`fat, xlorid, fosfat va boshqa suvda eriydigan tuzlari bilan belgilanadi. Suvning doimiy qattiqligini qaynatib yoʻqotib boʻlmaydi. Vaqtincha va doimiy qattiqliklar summasi suvning umumiylashtirilishi beradi. Suvning umumiylashtirilishi  $Ca^{+2}$ ,  $Mg^{+2}$  ionlarining bir litr suvdagi milligramm – ekvivalent miqdorlari summasi bilan ifodalanadi.  $Sa^{+2}$  ionining 1 mg-ekv/l 20,04 mg/l ga yoki 12,16 mg/l  $Mg^{+2}$  ioniga teng.

$$J_{um} = \frac{C_{Ca^{+2}}}{20,04} + \frac{C_{Mg^{+2}}}{12,16}$$

Ayrim xollarda ilmiy va oʻquv adabiyotlarda suvning qattiqligi graduslarda beriladi: masalan,  $1^\circ$  (nemischa)=0,3566 mg-ekv; 1 mg-ekv=2,804° (nemischa)=5,005° (fransuzcha).

## 10.2. Titrlash egri chiziqlari

Titrlash egri chiziqlari deb, titrlash jarayonida eritma pH ining titrlash uchun sarflangantirantning hajmiga bogʻliq boʻlgan egri chiziqlariga aytildi. Titrlash egri chiziqlari titrlash jarayonini miqdoran xarakterlab berishi bilan bir qatorda u yoki bu indikatorni tanlashda nazariy asoslab beradi. Titrlash egri chizigʻini qurishchun titrlash jarayonida titrlanayotgan eritmaning pH ini hisoblash kerak boʻladi. Eritma pH i moddaning tabiatiga va reaksiyaga kirishayotgan moddalarning konsentrasiyalariga hamda reaksiya mahsulotlariga bogʻliq boʻladi.

1. Bir asosli kuchli kislotani kuchli asos bilan titrlashda eritmaning rN ini hisoblash.

Kislotaning boshlangʼich pH qiymati uning konsentrasiyasi orqali quyidagi formula orqali topiladi:

$$pH = -\lg[H_3O^+] \quad (1)$$

Eritmaga titrant qoʻshilishi bilan kislotaning konsentrasiyasi oʻzgarib boradi va ekvivalent nuqtagacha quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$[H_3O^+] = \frac{C_{k-ta} \cdot V_{k-ma} - C_{asos} \cdot V_{asos}}{V_{k-ta} + V_{asos}} \quad (2)$$

$$pH = -\lg[H_3O^+]$$

Ekvivalent nuqtada ortiqcha kislota ham ishqor ham bo'lmaydi. Eritmaning pH qiymati suvning ionlanish konstantasi orqali quyidagi formula orqali topiladi:

$$pH = \frac{1}{2} pK_{H_2O} \quad (3)$$

Ekvivalent nuqtadan o'tgandan so'ng eritmaning pH qiymati ortiqcha quyilgan ishqorning konsentrasiyasi orqali quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$[OH^-] = \frac{C_{asos} \cdot V_{asos} - C_{k-ta} \cdot V_{k-ta}}{V_{asos} + V_{k-ta}} \quad (4)$$

$$pOH = -\lg[OH^-]$$

$$pH = 14 - pOH \quad (5)$$

2. Kuchsiz bir asosli kislotani kuchli asos bilan titrlashda eritmaning pH qiymatini hisoblash.

Kislotaning boshlang'ich pH qiymati uning konsentrasiyasi quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$pH = \frac{1}{2} pK_{k-ta} - \frac{1}{2} \lg C_{k-ta} \quad (6)$$

Kuchsiz kislota eritmasi kuchli ishqor (titrant) qo'shilgan bufer aralashma hosil bo'ladi. Bufer eritmadi ikkala komponentning umumi konsentrasiyasi quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$C_{my3} = \frac{C_{asos} \cdot V_{asos}}{V_{asos} + V_{k-ta}}$$

Kislotaning konsentrasiyasini (2) formula bilan aniqlab, titrlanayotgan eritmaning pH qiymati quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$pH = \frac{1}{2} pK_{k-ta} - \lg \frac{C_{k-ta}}{C_{tuz}} \quad (8)$$

Kuchsiz bir asosli kislota kuchli asos bilan titrlanganda ekvivalent nuqtada tuz hosil bo'lib, u suvli eritmada gidrolizlanadi va eritmaning pH qiymati quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$pH = 7 + \frac{1}{2} pK_{k-ta} - \frac{1}{2} \lg C_{tuz} \quad (9)$$

Ekvivalent nuqtadan o'tgandan so'ng eritmaning pH qiymati (5) formula yordamida hisoblanadi.

3. Kuchsiz bir kislotali asosni kuchli kislota bilan titrlashda eritmaning pH qiymatini hisoblash.

Titrlanayotgan eritmaning boshlang'ich pH qiymati kuchsiz asosning gidroksil ionlarini konsentrasiyasi bo'yicha hisoblanadi:

$$pH = 14 - \frac{1}{2} pK_{asos} + \frac{1}{2} \lg C_{asos} \quad (9)$$

Kuchsiz asosli titrlanayotgan eritmaga kuchli kislota qo'shilganda bufer aralashma hosil bo'ladi va eritmaning pH qiymati ekvivalent nuqtagacha quyidagi formula yordamida hisoblanadi:


$$pH = 14 - \frac{1}{2} pK_{asos} + \frac{1}{2} \lg \frac{C_{asos}}{C_{tuz}} \quad (10)$$

Ekvivalent nuqtada titrlanayotgan eritmaning pH qiymati quyidagi formula yordamida topiladi:

$$pH = 7 - \frac{1}{2} pK_{asos} - \frac{1}{2} \lg C_{tuz} \quad (11)$$

Ekvivalent nuqtadan o'tgandan so'ng ortiqcha qo'shilgan kuchli kislota titplash jarayonida hosil bo'lgan tuzning gidrolizlanishini to'xtadi va eritmaning pH qiymati titrantning konsentrasiyasi bo'yicha (2) hisoblanad:

4. Ko'p asosli kislotani kuchli asos bilan titplash. Ko'p asosli kislotalar bosqichli dissosiyalanadi va ularning titplash egri chiziqlari murakkab ko'rinishda bo'ladi:



Kislotaning bosqichli ionlanish konstantalarining nisbati  $10^3$  dan kichik bo'lsa, reaksiyaga kirishuvchi modda konsentrasiyalarini, hosil bo'lgan mahsulotlarini va pH qiymatlarini hisoblash murakkablashadi.

Gidroksoniy  $[H_3O^+]$  ionining konsentrasiyasini aniqlash uchun to'liq kvadrat tenglamani Yechish kerak bo'ladi:

$$\begin{aligned} K_1 &= \frac{[H_3O^+]^2}{C_{k-ta} - [H_3O^+]} \\ [H_3O^+]^2 &= K_1(C_{k-ta} - [H_3O^+]) \\ [H_3O^+]^2 + K_1 \cdot [H_3O^+] - K_1 \cdot C_{k-ta} &= 0 \\ [H_3O^+]_{1,2} &= \frac{-K_1 \pm \sqrt{(K_1)^2 - 4K_1 \cdot C_{k-ta}}}{2} \end{aligned}$$

$[H_3O^+]$  ionining konsentrasiyasini aniqlab, eritmaning pH qiymati (1) formula yordamida hisoblanadi.

Birinchi ekvivalent nuqtadagi gidroksoniy tonlarning konsentrasiyasi quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$[H_3O^+]^2 = \sqrt{\frac{K_1 \cdot K_2 \cdot C_{HAn^-}}{K_1 + C_{HAn^-}}}$$

pH qiymati (1) formula yordamida hisoblanadi. Ekvivalent nuqtadan o'tgandan so'ng qzo'ilgan ortiqcha titrant eritmada titrlanmay qolgan  $[HAn^-]$  kislota va anion  $[An^{-2}]$  lardan tashkil topgan yangi bufer eritma hosil bo'lishiga olib keladi.  $[An^{-2}]$  ning konsentrasiyasini (4) formula yordamida,  $[HAn^-]$  ning konsentrasiyasini quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$C_{HAn^-} = \frac{V_{k-ta} \cdot C_{k-ta} - (C_{asos} \cdot V_{asos} + V_{k-ta} \cdot C_{k-ta})}{V_{asos} + V_{k-ta}}$$

$[H_3O^+]$  ionining konsentrasiyasi quyidagi tenglama bo'yicha hisoblanadi:

$$K_2 = \frac{[H_3O^+] \cdot (C_{asos} \cdot V_{asos} + V_{k-ta} \cdot C_{k-ta})}{V_{acoc} \cdot V_{k-ma} - (C_{asos} \cdot V_{asos} + V_{k-ta} \cdot C_{k-ta})}$$


Ikkinci ekvivalent nuqtadagi  $An^{-2}$  anionlarning konsentrasiyasi va eritmaning pH qiymatlari (9) formula yordamida topiladi. Ikkinci ekvivalent nuqtadan o'tgandan so'ng eritmaga qo'shilgan ortiqcha kuchli asosning konsentrasiyasi va eritmaning pH qiymatlari (4) va (5) formulalar yordamida hisoblanadi.

Titrlash jarayonida eritmaning o'zgarayotgan pH qiymati topilgandan so'ng, eritmaning pH qiymati titrantning hajmiga bog'liq bo'lgan titrlash egri chiziqlarini qurish mumkin. Titrlash egri chizig'ida bitta yoki bir nechta sakrashlar bo'lib, ularning qiymatlari titrlanayotgan modda va titrantning tabiatini hamda konsentrasiyasiga bog'liq bo'ladi. Titrlash egri chiziqlarini qurish bo'yicha keltirilgan masalalarda aniqroq ko'rib chiqiladi. Titrlash egri chiziqlarining chuqurroq nazariyalari bilan o'quv adabiyotlarida tanishish mumkin.

### 10.3. Titrimetrik tahlilda titrlashning cho'ktirish usuli

Titrimetrik tahlilda modda ionlarini kameruvchan birikmaga aylantirib aniqlash usulini titrlashning cho'ktirish usuli deyiladi. Titrlashning cho'ktirish usuli ishchi eritmaning turiga qarab, argentometriya ( $AgNO_3$ ), merkurometriya ( $Hg_2NO_3$ )<sub>2</sub>, merkurimetriya  $Hg(NO_3)_2$  usullariga bo'linadi.

Cho'ktirish usuli bo'yicha titrlashda cho'ktiruvchi ekvivalent nisbatda olinadi. Titrlash uchun sarflangan ishchi eritmaning hajmiga qarab moddaning miqdori haqida xulosa qilinadi. Cho'ktirish usulida foydalaniladigan reaksiyani umumiy ko'rinishda quyidagicha yozish mumkin:



Ushbu reaksiyaning muvozanat konstantasini eruvchanlik ko'paytmasi deyiladi (VI bobga qaralsin):

$$EK = [A] \cdot [B];$$

$$REK = -\lg[A] - \lg[B];$$

$$REK = pA + pB$$

Cho'ktirish usulining titrlash egri chiziqlari kislota-asos titrlash egri chiziqlari kabi juda muhim bo'lib, indikator tanlashda, titrlashning xatosini hisoblashda juda zarurdir. Bundan tashqari, u titrlash jarayonini tavsiflash uchun miqdoriy jihatdan xizmat qiladi. Cho'ktirish usulining titrlash egri chizig'i grafik ko'rinishda pA (kation konsentrasiyasining manfiy logarifmi)ning yoki pV (anion konsentrasiyasining manfiy logarifmi)ning V hajm (titrantning millimetrdagi hajm)ga bog'liq bo'lgan egri chiziqliga aytiladi. Titrlash egri chizig'ini qurish uchun titrlash jarayonda o'zgarib borayotgan kation va anionlarning konsentrasiyalarini cho'kmanning eruvchanlik nazariyasidan foydalanib bilib borish zarur bo'ladi.

Ekvivalent nuqtagacha  $[A]$  moddaning konsentrasiysi quyidagi formula yordamida topiladi:

$$[A] = \frac{C_A \cdot V_A - C_B \cdot V_B}{V_A + V_B} + \frac{EK}{[B]}$$

Ekvivalent nuqtadan keyin eritmada ortiqcha titrant  $[B]$  modda bo'lib, uning konsentrasiyasi quyidagi formula yordamida topiladi:


$$\text{Equivalent nuqtada } [A] = [B] = \sqrt{EK}$$

Titrlanayotgan moddaning va titrantning konsentrasiyalari qancha katta bo'lsa, titrlash egri chiziqda sakrash Shuncha katta va yaqqol ko'rindi. Titrlash jarayonida hosil bo'lgan modda qanchalik kam eruvchan bo'lsa, shuncha reaksiya to'liq boradi va ekvivalent nuqtada pK ning o'zgarishi shunchalik katta bo'ladi.

Kompleksonometrik titrlash usuli.

Titrimetrik tahlilda kompleks hosil qilish reaksiyasiga asoslangan usulni kompleksonometrik titrlash usuli deyiladi (kompleks birikmalarnig hosil bo'lishi, dissosiyalanishi va barqarorligi VIII-bobda berilgan). Ishqoriy metallardan tashqari ko'pgina metall ionlarini kompleksonometrik usul bilan aniqlash mumkin. Bunda titrlash jarayonda titrlanayotgan eritmaning pH qiymatini bufer aralashma yordamida doimiy, birday ushlab turish kerak bo'ladi. Bunda aniqlanuvchi metall ioni beqaror kompleks birikma hosil qiluvchi metalloxrom indikatori ishtirokida barqaror kompleks hosil qiluvchi standart eritma bilan titrlanadi.

Kompleksonometrik titrlash usulida muhim titrant sifatida etilendiamintetrasirka kislota (EDTA) ishlataladi:



1. EDTA ko'pgina metall ionlari ( $\text{Ag}^+$ ,  $\text{Al}^{+3}$ ,  $\text{Ba}^{+2}$ ,  $\text{Ca}^{+2}$ ,  $\text{Mg}^{+2}$ ,  $\text{Cd}^{+2}$ ,  $\text{Fe}^{+2}$ ,  $\text{La}^{+3}$ ,  $\text{Ce}^{+3}$ ,  $\text{Co}^{+2}$  va boshqalar) bilan mustahkam barqaror kompleks hosil qiladi;
2. EDTA kompleks ionlari bilan doim 1:1 nisbatda reaksiyaga kirishadi;
3. EDTA o'zining 4 ta karboksil guruhi va 2 ta azot atomi yordamida koordinasion bog' hosil qilib. Geksadentantli ligand vazifasini bajaradi;
4. Metall ionlarining EDTA bilan hosil qilgan komplekslari suvda yaxshi eriydi. Ko'pchiligi eritmada rangsiz yoki kuchsiz rangli bo'ladi.

Titrlash uchun ko'pincha EDTA ning suvda yaxshi eriydigan ikki natriyli tuzi ( $\text{Na}_2\text{H}_2\text{Y}$ ) ishlataladi. Kompleksonometrik titrlash egri chizig'i deb, metall ionining maniy logarifmli konsentrasiyasini ( $\text{pM}$ ) titrantning hajmi ( $\text{V}$ ) ga bog'liq bolgan egri chizig'iga aytildi. Kompleksonometrik titrlash egri chizig'ini qurishda  $\text{rM}$  ni hisoblash kislota-asos va cho'ktirish titrlash egri chiziqlarini qurishga nisbatan bir muncha murakkab bolib, hisoblashda ulardan farq qiladi.

Metall ionlarini EDTA bilan titrlash egri chizig'ini qurish uchun quyidagi qiymatdan foydalanamiz:

$$\alpha_4 = \frac{[Y^{-4}]}{C}$$

Bu yerda S-EDTA ning kompleks hosil qilmagan qismining konsentrasiyasi. U quyidagicha ifodalanadi:

$$C = [Y^{-4}] + [HY^{-3}] + [HY^{-2}] + [HY^-] + [H_4Y]$$

$\alpha_4$ -reagentning  $\text{Y}^{-4}$  ko'rinishidagi komplekslanmagan qismi;

$$\alpha_4 = \frac{K_1 \cdot K_2 \cdot K_3 \cdot K_4}{[H^+]^4 + K_1[H^+]^3 + K_1 \cdot K_2[H^+]^2 + K_1 \cdot K_2 \cdot K_3[H^+] + K_1 \cdot K_2 \cdot K_3 \cdot K_4}$$

Bu yerda  $K_1 \cdot K_2 \cdot K_3 \cdot K_4$  lar-EDTA ning dissosiasiya konstantalari.

SHartli barqaror muvozanat konstantalari  $K_{MY}^{11}$ ,  $K_{MY}^{111}$  dan foydalanib, titrlash egri chizig'ining xoxlagan nuqtasiga to'g'ri kelgan kompleks va metall ionining muvozanat konsentrasiyalarini hisoblash mumkin. EDTA uchun eritmaning har xil rN qiymatlaridagi  $\alpha_4$  kattaligi hisoblangan (jadval 11).

Agar aniqlanadigan ion eritmada berilgan pH qiymatida oksid yoki gidroksid ko'rinishda cho'kma hosil qilib, kompleksonometrik titrlash jarayonini murakkablashtirgan hollarda uni eritmada ushlab turish uchun yordamchi kompeks hosil qulvchi reagent qo'shish kerak boladi (masalan, ammiakning suvli eritmasi va boshqalar). Bizning yuqorida ko'rsatilgan misolimizda muvozanatni buzilishiga vodorod ionlarining konsentrasiyalari ta'sir etishi mumkin. Metall ionini titrlash jarayonida EDTA ning komplekslanmagan  $\text{Y}^{-4}$  ion qismini miqdoriy jihatdan quyidagi formula ( $\beta$ ) yordamida hisoblash mumkin:

$$\beta = \frac{1}{1 + K_1[NH_3] + K_1 \cdot K_2[NH_3]^2 + K_1 \cdot K_2 \cdot K_3[NH_3]^3 + K_1 \cdot K_2 \cdot K_3 \cdot K_4[NH_3]^4}$$

$K^{11}_{MY}$ -titrlanayotgan moddaning boshqa muvozanat holatini tavsiflaydigan shartli konstantasi:

$$K^{11}_{MY} = \alpha_4 \cdot \beta \cdot K_{MY}$$

Shartli konstanta qancha katta bo'lsa, titrlash shuncha to'liq o'tadi. Hosil bo'lish konstanta qiymati qancha katta bo'lsa, titrlash egri chizig'idagi sakrash shunchalik aniqroq bo'ladi. Shartli konstantalardan foydalanib, pM ni hisoblash va titrlash egri chiziqlarini qurish aniq masalalarni echimida ko'rsatiladi.

#### 10.4. Oksidlanish-qaytarilish titrlash usullari

Titrlashning oksidlanish qaytarilish usullari oksidlanish-qaytarilish reaksiyalariga asoslangan bo'lib, o'zaro reaksiyaga kirishayotgan moddalarning nomlariga qarab bir necha usullarga bo'linadi. Masalan, permanganatometriya (ishchi eritma  $KMnO_4$  – oksidlovchi), bixromatometriya (oksidlovchi– $K_2Cr_2O_7$ ), bromatometriya (oksidlovchi –  $KBrO_3$ ), vanadatometriya ( $NH_4VO_3$ ), serimetriya Se(IV) va boshqalar.

Oksidlanish-qaytarilishda ekvivalent nuqtani topish uchun indikator va potensiometr usullaridan foydalaniladi. U yoki bu moddalarning oksidlanish-qaytarilish qobiliyati miqdoriy jihatdan oksidlanish-qaytarilish potensiallari bilan ifodalanadi.

Oksidlanish-qaytarilish juftlarining kattaligi qanchalik musbat bo'lsa, oksidlovchi formaning oksidlash xususiyati Shunchalik kuchli bo'ladi. Oksidlanish-qaytarilish juftlarining potensiali qanchalik kichik bo'lsa, qaytaruvchi formaning qaytaruvchilik xususiyati Shunchalik yuqori bo'ladi.

Elektr yurituvchi kuch (e.yu.k.) – oksidlovchi va qaytaruvchilarnig potensiallarini farqiga teng bo'ladi:

$$E.Yu.K. = E_{\text{oksid.}} - E_{\text{qayt.}}$$

Eritmaning rN muhitiga, konsentrasiyaga, haroratga bog'liq bo'lgan oksidlanish – qaytarilish potensiallari Nernst formulasi orqali ifodalanadi:

$$E = E^0 + \frac{T \cdot R}{nF} \cdot \ln \frac{[\text{oksid.forma}]}{[\text{qayt.forma}]}$$

$$E = E^0 + \frac{0,059}{n} \cdot \lg \frac{[\text{oksid.forma}]}{[\text{qayt.forma}]}$$

Bu yerda  $E^0$  – oksidlanish – qaytarilish juftlarning stantart potensiali;

n – qabul filgan yoki bergen elektronlarning soni;

F – Faradey soni;

R – gaz doimiysi;

T – absolyut harorat.

Har qanday oksidlanish – qaytarilish reaksiyasi ma`lum sharoitda boradi, reaksiyaning E.Yu.K. si qanchalik musbat bo`lsa, shunchalik reaksiya engil va tez boradi.

Oksidlanish – qaytarilish titrlash egri chizig`i deb, grafik ko`rinishida sistemadagi potensialni sistemaga quyilayotgan titrantning hajmiga bog`liq bo`lgan egri chiziqa aytildi. Titrlash egri chizig`ini qurishda sistemaning potensialini hisoblash uchun titrlash jarayonda sistemaga qo`shilayotgan titrantning (oksidlovchi va qaytaruvchining) konsentrasiyasini hisoblash kerak bo`ladi. Bu usul bo`yicha konsentrasiyani hisoblash formulalari yuqorida keltirilgan kislota – asos titrlashda konsentrasiyani hisoblash formulalariga o`xshash bo`lgani uchun masalalarni Yechishda tuShuntirmasdan tayyor formulalardan foydalanamiz.

Titrlash jarayonida ekvivalent nuqtagacha va ekvivalent nuqtadan o`tgandan so`ng sistemaning potensiali quyida ko`rsatilgan Nernst tenglamasi bo`yicha topiladi:

$$E = E^0 - \frac{0,059}{n} \cdot \lg \frac{[qayt.\text{forma}]}{[oksid.\text{forma}]}$$

Ekvivalent nuqtada sistemaning potensiali quyida ko`rsatilgan tenglama yordamida topamiz:

$$E = \frac{\epsilon E^0_{\text{oksidlovchi}} + a E^0_{\text{qaytaruvchi}}}{a + \epsilon}$$

Bu yerda,  $E^0_{\text{oksidlovchi}}$ ,  $E^0_{\text{qaytaruvchi}}$  – oksidlovchi va qaytaruvchilarining standart potensiallari;

$a, \epsilon$  – oksidlovchi va qaytaruvchilarining stexiometrik koeffisientlari.

Oksidlanish – qaytarilish titrlash egri chiziqlarini ko`rish bo`yicha aniq masalalarni ko`rib chiqamiz.

## 10.5. Titrimetrik tahlil usullariga oid namunaviy masalalar

### 1-masala

0,1135 n li vodorodxlorid kislota eritmasining titri va kal`siy oksid bo`yicha titr konsentrasiyalari hisoblansin.

Berilgan:  $C_{\text{HCl}} = 0,1135 \text{ mol/l}$

Topish kerak:  $T_{\text{HCl}} = ?$ ;  $T_{\text{HCl/SaO}} = ?$

Yechish:

$$T_{\text{HCl}} = \frac{C_{\text{HCl}} \cdot \vartheta_{\text{HCl}}}{1000} = \frac{0,1135 \cdot 36,4609}{1000} = 0,004138 \text{ g/ml}$$

Eritmaning aniqlanuvchi modda bo`yicha titr konsentrasiyasi quyidagi formula bo`yicha hisoblanadi:

$$T_{HCl/CaO} = \frac{C_{HCl} \cdot \vartheta_{CaO}}{1000};$$

$$E_{CaO} = \frac{M_{CaO}}{n};$$

Bu yerda,  $n$ -kislородning ekvivalent soni;

$$E_{CaO} = \frac{56,0794}{2} = 28,0397 \text{ g};$$

$$\text{Bundan, } T_{HCl/CaO} = \frac{0,1135 \cdot 28,0397}{1000} = 0,003182 \text{ g/ml}$$

## 2-masala

Zichligi 1,515 (61,54%) ga teng bo'lgan sul`fat kislotadan 25 ml olib, 3 l gacha suyultirilgan. Shu eritmaning titri nechaga teng?

Berilgan:  $V=31 \text{ H}_2\text{SO}_4$ ;  $V_1=251 \text{ H}_2\text{SO}_4$ ;  $d_1=1,515 \text{ g/sm}^3 \text{ H}_2\text{SO}_4$ ;  $C_1=61,54\% \text{ H}_2\text{SO}_4$

Topish kerak:  $T_{H_2SO_4}=?$

Yechish:  $m=d_1 V_1$

$m=1,515 \cdot 25=37,875 \text{ g H}_2\text{SO}_4$  eritmasining massasi.

$\text{H}_2\text{SO}_4$  eritmasining konsentrasiyasi 61,54% ga tengligidan kelib chiqib proporsiya tuzamiz:

100 g  $\text{H}_2\text{SO}_4$  eritmasida 61,54 g suvsiz  $\text{H}_2\text{SO}_4$  bo'lsa,

37,875 g  $\text{H}_2\text{SO}_4$  eritmasida qg suvsiz bo'ladi.

$$q = \frac{37,875 \cdot 61,54}{100} = 23,31 \text{ g H}_2\text{SO}_4$$

$$T_{H_2SO_4} = \frac{q}{V} = \frac{23,31}{3000} = 0,007769 \text{ g/ml}$$

## Masala 3

Aniq 0,1 n li vodorod xlorid kislotasining qanday hajmiga 21 ml 0,1 n li natriy gidroksidi to'g'ri keladi?  $K=0,950$

Berilgan:  $C_1=0,1 \text{ n HCl}$ ;  $C_2=0,1 \text{ n NaOH}$ ;  $V_2=21 \text{ ml}$ ;  $K=0,950$

Topish kerak:  $V_1=?$

Yechish: Natriy gidroksidning aniq konsentrasiyasini quyidagi formula yordamida hisoblaymiz:

$$C_1^l = KC_2;$$

$$C_1^l = 0,950 \cdot 0,1 = 0,0950 \text{ nNaOH}$$

Aniq 0,1 n li eritmasining hajmini natriy gidroksid bo'yicha quyidagi tenglamadan foydalanib hisoblaymiz:

$$\frac{C_1}{C_2} = \frac{V_2}{V_1}$$

$$V_1 = \frac{C_2 V_2}{C_1} = \frac{0,0950 \cdot 21}{0,1} = 19,95 \text{ ml HCl}$$

#### 4-masala

0,1 n li eritma tayyorlash uchun analitik tarozida 1,3400 g natriy xlорид tortib olindi va 200 ml li o'lchov kolbasida eritildi. Shu 0,1 n li eritma uchun to'g'rilagich koeffisienti hisoblansin?

Berilgan:  $C_{\text{NaCl}}=0,1 \text{ n}$ ;  $q=1,3400 \text{ g NaCl}$ ;  $V=200 \text{ ml}$

Topish kerak:  $K=?$

Yechish:  $K = \frac{C_1}{C}$

bu yerda,  $C_1$  – NaCl eritmasining haqiqiy konsentrasiyasi, mol/l.

NaCl ning titri va konsentrasiyasini tegishli formula yordamida hisoblaymiz:

$$T = \frac{q}{V}$$

$$C_1 = \frac{T \cdot 1000}{\varTheta} \text{ bundan}$$

$$C_1 = \frac{q \cdot 1000}{V \cdot \varTheta_{\text{NaCl}}}$$

Natriy xlоридning ekvivalent massasini quyidagi formula yordamida hisoblaymiz:

$$E = \frac{M_{\text{NaCl}}}{n \cdot m} = \frac{58,443}{1 \cdot 1} = 58,443 \text{ g}$$

n-metall soni; m-metalning valent soni.

$q, V, E_{\text{NaCl}}$  kattaliklarning son qiymatlarini formula ( $C_1$ ) ga qo'yib, NaCl eritmasining haqiqiy konsentrasiyasini hisoblaymiz:

$$C_1 = \frac{1,3400 \cdot 1000}{200 \cdot 58,443} = 0,1146 \text{ mol/l}$$

$$K = \frac{0,1146}{0,1} = 1,146$$

#### 5-masala

0,2260 n li natriy gidroksid eritmasini 0,2000 n li bo'lishi uchun uning 725 ml eritmasiga necha millilitr suv qo'shish kerak?

Berilgan:  $C_1=0,2260 \text{ n NaON}$ ;  $C_2=0,2000 \text{ n NaON}$ ;  $V_1=725 \text{ ml NaON}$

Topish kerak:  $V_{\text{N}_2\text{O}}=?$

Yechish: Konsentrasiyaning hajmga bog'liq bo'lgan tenglamasidan  $(\frac{C_1}{C_2} = \frac{V_2}{V_1})$

foydalanib  $V_2$  ni aniqlaymiz:

$$V_2 = \frac{C_1 \cdot V_1}{C_2} = \frac{725 \cdot 0,2260}{0,2000} = 819,25 \text{ ml NaOH}$$

$$V_{H_2O} = V_2 - V_1 = 819,25 - 725 = 94,25 \text{ ml H}_2\text{O}$$

## 6-masala

Zichligi 1,470 (57,36 %) ga teng bo'lgan sul`fat kislotadan 40 ml olib, 8 litr eritma tayyorlangan. Tayyorlangan eritmaning titri va normal konsentrasiyasi hisoblansin.

Berilgan:  $V=8$  1  $\text{H}_2\text{SO}_4$ ;  $V_1=40$  ml  $\text{H}_2\text{SO}_4$ ;  $d_i=1,470$  g/sm<sup>3</sup>  $\text{H}_2\text{SO}_4$ ;  $C_1=57,36\%$   $\text{H}_2\text{SO}_4$

Topish kerak:  $T_{H_2SO_4}=?$   $C_{H_2SO_4}=?$

Yechish: Olingan sul`fat kislota eritmasining massasini quyidagi formula yordamida hisoblaymiz:

$$m_1 = V_1 \cdot d_1 = 40 \cdot 1,470 = 58,80 \text{ g H}_2\text{SO}_4 \text{ eritmasi}$$

58,80 g  $\text{N}_2\text{SO}_4$  eritmasidagi suvsiz  $\text{H}_2\text{SO}_4$  ning massasini aniqlash uchun proporsiya tuzamiz:

100 g  $\text{H}_2\text{SO}_4$  eritmasida 57,36 g suvsiz  $\text{H}_2\text{SO}_4$  bo'lsa,

58,80 g  $\text{H}_2\text{SO}_4$  eritmasida q g suvsiz  $\text{H}_2\text{SO}_4$  bo'ladi.

$$q = \frac{58,80 \cdot 57,36}{100} = 37,73 \text{ g H}_2\text{SO}_4$$

$$T = \frac{q}{V} = \frac{37,73}{8000} = 0,0046875 \text{ g/ml}$$

Sul`fat kislota eritmasining normal konsentrasiyasini quyidagi formula yordamida hisoblaymiz:

$$C_{H_2SO_4} = \frac{T_{H_2SO_4} \cdot 1000}{\mathcal{E}_{H_2SO_4}}$$

Kislotaning ekvivalent massasini quyidagi formula yordamida hisoblaymiz:

$$E_{H_2SO_4} = \frac{M_{H_2SO_4}}{n} = \frac{98,08}{2} = 49,04$$

bundan,

$$C_{H_2SO_4} = \frac{0,0046875 \cdot 1000}{49,04} = 0,0938 \text{ mol/l}$$

## 7-masala

To'liq neytrallash, chala neytrallash, vodorod sul`fidgacha qaytarilish reaksiyalarda sul`fat kislotaning ekvivalent massasi nechaga teng?

Berilgan:  $M_{H_2SO_4}=98,08$  g

Topish kerak:  $E_1=?; E_2=?; E_3=?$


Yechish: To'liq, chala neytrallash va vodorod sul`fidgacha qaytarilish reaksiya tenglamalarini yozib, sul`fat kislotaning ekvivalentini quyidagi formulalar yordamida hisoblaymiz:

$$E_{1-2} = \frac{M_{H_2SO_4}}{n}$$


bu yerda, n-reaksiyada  $H^+$ -ioninig almashgan soni;

$$E_3 = \frac{M_{H_2SO_4}}{n}$$




bu yerda, n-reaksiyada qabul qilgan elektronlar soni



$$E_1 = \frac{98,08}{2} = 49,04e$$




$$E_2 = \frac{98,08}{1} = 98,08e$$



4 qaytaruvchi

1 oksidlovchi



$$E_3 = \frac{M_{H_2SO_4}}{n} = \frac{98,08}{8} = 12,26e$$

### 8-masala

Massasi 24,9820 g ga, harorati 16° C ga sig'imi 25 ml bo'lgan pipetkadan suv quyilgan. Hajmga to'g'rilaqich topilsin.

Berilgan: V=25 ml; m=24,9820 g  $H_2O$ ; t=16°C

Topish kerak: K=? to'g'rilaqich

Yechish: Adabiyot ma'lumotlaridan bizga ma'lumki, harorati 16°C ga teng bo'lgan 1 l suvning massasi 998,97 g ga teng bo'lsa, 25 ml suvning massasi  $m_1$  g ga teng bo'ladi.

$$m_1 = \frac{998,97 \cdot 25}{1000} = 24,9742e$$

Hajmga to'g'rilaqich quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$m - m_1 = 24,9820 - 24,9742 = 0,0078 \approx 0,008 \text{ g.}$$

Normal sharoitda 0,008 g suv 0,008 ml ga to'g'ri keladi.

## 9-masala

Titrlashga 25 ml eritma sarflangan. Eritma byuretkadan 0,1 ml gacha aniqlikda o'lchab olingan. Hajmning o'lchov aniqligi foizlarda aniqlansin?

Berilgan:  $V=25 \text{ ml}$ ;  $V_1=0,1 \text{ ml}$

Topish kerak: O'lchov aniqligi %=?

Yechish: O'lchov aniqligi quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$\text{O'lchov aniqlik \%} = \frac{V_1 \cdot 100}{V} = \frac{0,1 \cdot 100}{25} = 0,4\%$$

## 10-masala

Tarkibi  $\text{H}_2\text{C}_2\text{O}_4 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$  dan iborat shavel` kislota namunasidan 0,1500 g tortib olib, eritma tayyorlangan. Shu eritmani titrlashga 25,60 ml 0,0900 n li KOH eritmasi sarflangan. Shavel` kislota namunasining foiz miqdori hisoblansin.

Berilgan:  $q=0,1500 \text{ g H}_2\text{C}_2\text{O}_4 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$ ;  $V_1=25,60 \text{ ml KOH}$ ;  $C_1=0,0900 \text{ n KOH}$

Topish kerak: % <sub>$\text{H}_2\text{C}_2\text{O}_4 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$</sub> =?

Yechish: Namunadagi shavel` kislotaning foiz miqdori quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$\% = \frac{C_1 \cdot \mathcal{E}_{\text{H}_2\text{C}_2\text{O}_4 \cdot 2\text{H}_2\text{O}} \cdot V_1 \cdot 100}{q \cdot 1000}$$

bu yerda,  $E_{\text{H}_2\text{C}_2\text{O}_4 \cdot 2\text{H}_2\text{O}}$ - shavel` kislotaning ekvivalent massasi;

$$\% = \frac{0,0900 \cdot 25,60 \cdot 63,03 \cdot 100}{0,1500 \cdot 1000} = 96,82\%$$

## 11-masala

a) 0,1 n li HCl eritmasi 0,1 n li NaOH eritmasi bilan metil qizil indikatori ( $pT=5,5$ ) ishtirokida:

b) 0,1 n li NaOH eritmasi 1 n li HCl eritmasi bilan nitroamin ( $pT=12$ ) indikatori ishtirokida titrlangan. Titrlashning indikatori xatosi nechaga teng?

Berilgan:  $V_1=25,60 \text{ ml KOH}$ ;  $C_1=0,1 \text{ n HCl}$ ;  $C_2=0,1 \text{ n NaOH}$ ;  $pT_1=5,5$ ;  $pT_2=12$

Topish kerak: Jnd.xatosi=?

Yechish: a) 0,1 n li HCl eritmasi 0,1 n li NaOH eritmasi bilan metil qizil indikatori ishtirokida titrlanganda indikatorning titrlash ko'rsatkichi 5,5 ga teng bo'lgani uchun eritmaning pH i 5,5 ga etganda titrlash to'xtatiladi. Lekin kuchli kislotani kuchli ishqor bilan titrlaganda ekvivalent nuqtaning pH i 7 ga teng bo'lishi kerak edi. Bu holda titrlash oxiriga etmagani uchun eritmada ortiqcha HCl qolib,  $\text{H}^+$ - xatolikka olib keladi.

Ikkala eritmaning konsentrasiyalari bir xil bo'lgani uchun ularning hajmlari ham bir xilda sarflanadi. Demak, eritmaning hajmi titrlash jarayonda ikki baravar oshadi,

ya`ni  $V_2=2V_1$  ga teng bo`ladi. Shundan kelib chiqib, indikator xatosi quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$Ind.xamocu = \frac{10^{-pT} \cdot 2V_2}{C_1 \cdot V_1} \cdot 100\%$$

$$Ind.xamocu = \frac{10^{-5,5} \cdot 2 \cdot 100}{0,1} = \frac{2}{316,23} = -0,0063\%$$

HCl ning bir qismi titrlanmay qolgani uchun  $H^+$  xatoligi minus “-“ishora bilan olinadi.

b) 0,1 n li NaOH eritmasi 1 n li HCl eritmasi bilan nitroamin indikatori ishtirokida titrlanganda indikatorning titrlash ko`rsatkichi 12 ga teng bo`lgani uchun eritmaning pH i 12 ga etganda titrlash to`xtatiladi. Bu holda ham eritmaning pH i 7 ga etganda titrlash to`xtatilishi kerak edi. Demak, titrlash oxiriga etmagani uchun eritmada ortiqcha NaOH qolib,  $OH^-$  xatolikka olib keladi. Bunda,  $Ind.xamocu$  quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$Ind.xamocu = \frac{10^{-(14-pT)} \cdot V_2 \cdot 100}{C_1 \cdot V_1}; \%$$

$$Ind.xamocu = \frac{10^{-(14-12)} \cdot 2 \cdot 100}{0,1} = \frac{2}{0,1} = +20\%$$

Bu holda,  $OH^-$  xatolik plusus “+“ishora bilan yoziladi.

## 12-masala

0,1 n li NaOH eritmasi 0,1 n li chumoli kislotasi bilan neytral qizil indikatori ( $pT=7$ ) ishtirokida titrlangan. Indikator xatosi hisoblansin.  $pK_{NSOON}=3,75$ .

Berilgan:  $C_1=0,1$  n NaOH;  $C_2=0,1$  n HCOOH;  $pT=7$ ;  $pK_{HCOOH}=3,75$

Topish kerak: %<sub>Jnd.xatosi</sub>=?

Yechish: Ekvivalent nuqtadagi eritmaning rN ini quyidagi formula yordamida hisoblaymiz:

$$pH = 7 + \frac{1}{2} pK_{HCOOH} + \frac{1}{2} \lg C$$

$$pH = 7 + \frac{3,75}{2} + \frac{1}{2} \lg 0,1 = 8,38$$

0,1 n li NaOH eritmasini 0,1 n li HCOOH bilan neytral qizil indikatori ishtirokida titrlash  $pT=7$  da tugaydi, lekin ekvivalent nuqta  $pH=8,38$  da yotgani uchun eritmaga quyilgan ortiqcha chumoli kislotasi HAn-xatolikka olib keladi. HAn-xatolik quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$\%HAn-xato = 10^{rK-rT} \cdot 100, \%$$

$$\%_{HAn-xamo} = 10^{3,75-7} \cdot 100 = 10^{-3,25} \cdot 100 = 10^{-\frac{5}{4}} = \frac{1}{\sqrt[4]{10^5}} = \frac{1}{10\sqrt[4]{10}} = \frac{1}{17,8} = -0,0562\%$$

HAn-xato manfiy “-“ ishora bilan belgilanadi.

### 13-masala

Tarkibi  $\text{Na}_2\text{CO}_3$  va  $\text{NaHCO}_3$  dan iborat aralashmaning 25 ml eritmasi 0,1200 n li  $\text{H}_2\text{SO}_4$  eritmasi bilan fenolftalein ishtirokida titrlashga 9,46 ml sarflanadi, metiloranj indikatori ishtirokida 24,86 ml sarflanadi. Shu eritmaning 250 millilitrida necha gramm  $\text{Na}_2\text{CO}_3$  va  $\text{NaHCO}_3$  bor?

Berilgan:  $V=2500$  ml  $\text{Na}_2\text{CO}_3$  va  $\text{NaHCO}_3$ ;  $V_{f-f}=9,46$  ml  $\text{H}_2\text{SO}_4$ ;  $V_{m-o}=24,86$  ml  $\text{H}_2\text{SO}_4$ ;  $C=0,1200$  n  $\text{H}_2\text{SO}_4$ ;  $V_{um}=250$  ml.

Topish kerak:  $q_{\text{Na}_2\text{CO}_3} = ?$   $q_{\text{NaHCO}_3} = ?$

Yechish: Aralashma sul`fat kislota bilan fenolftalein ishtirokida titrlanganda aralashmadagi faqat  $\text{Na}_2\text{CO}_3$   $\text{NaHCO}_3$  ga o`tadi, metiloranj indikatori bilan titrlanganda aralashmadagi hamma  $\text{NaHCO}_3$  lar titrlanib bo`ladi. Bundan aralashmadagi  $\text{Na}_2\text{CO}_3$  ni titrlash uchun sarflangan sul`fat kislotaning umumi hajmini  $2V_{f-f}$  ga teng deb olinsa,  $\text{NaHCO}_3$  ni titrlash uchun sarflangan  $\text{H}_2\text{SO}_4$  ning hajmi quyidagiga teng bo`ladi:

$$V_{m-o} - 2V_{\phi-\phi} = V_{\text{NaHCO}_3}$$

$$V_{\text{Na}_2\text{CO}_3} = 2 \cdot 6,46 = 18,92 \text{ ml } \text{H}_2\text{SO}_4$$

$$V_{\text{NaHCO}_3} = 24,86 - 18,92 = 5,94 \text{ ml } \text{H}_2\text{SO}_4$$

250 ml eritmadi  $\text{Na}_2\text{CO}_3$  va  $\text{NaHCO}_3$  larning gramm miqdorini quyidagi formulalar yordamida hisoblaymiz:

$$q_{\text{Na}_2\text{CO}_3} = \frac{C \cdot V_{\text{Na}_2\text{CO}_3} \cdot q_{\text{Na}_2\text{CO}_3} \cdot V_{ym}}{V \cdot 1000}$$

$$q_{\text{NaHCO}_3} = \frac{C \cdot V_{\text{NaHCO}_3} \cdot q_{\text{NaHCO}_3} \cdot V_{ym}}{V \cdot 1000}$$

bundan,

$$q_{\text{Na}_2\text{CO}_3} = \frac{0,1200 \cdot 18,92 \cdot 52,994 \cdot 250}{25 \cdot 1000} = 1,2032\epsilon$$

$$q_{\text{NaHCO}_3} = \frac{0,1200 \cdot 5,94 \cdot 84,0069 \cdot 250}{25 \cdot 1000} = 0,5988\epsilon$$

### 14-masala

1 litr eritmada 0,6 g kal`siy xlorid tuzi bor. Shu suvning qattiqligi hisoblansin.

Berilgan:  $V=1l=1000$  ml  $\text{N}_2\text{O}$ ;  $q=0,6$  g  $\text{CaCl}_2$ .

Topish kerak:  $J_{\text{H}_2\text{O}} = ?$

Yechish: Kal'siy  $[Ca^{+2}]$  ioninig konsentrasiyasini quyidagi formula yordamida hisoblaymiz:

$$[Ca^{+2}] = \frac{q \cdot M_{Ca^{+2}}}{M_{CaCl_2}} = \frac{0,6 \cdot 40,08}{110,986} = 0,2167 mol/l = 216,7 mmol/l$$

$$J_{H_2O} = \frac{[Ca^{+2}]}{0,5M_{Ca^{+2}}} = \frac{216,7}{20,04} = 10,81 mg - ekv/l$$

### 15-masala

100 ml suvni titrlash uchun 5 ml 0,09 n li vodorod xlorid sarflangan bo'lsa, suvning karbonat qattiqligi hisoblansin.

Berilgan:  $V_{H_2O} = 100; V_{HCl} = 5ml; C_{HCl} = 0,09n$

Topish kerak:  $J_{karb.} = ?$

Yechish: Suvning karbonat qattiqligi quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$J_{karb.} = \frac{C_{HCl} \cdot V_{HCl} \cdot 1000}{V_{H_2O}}$$

$$J_{karb.} = \frac{5,00 \cdot 0,0900 \cdot 1000}{100} = 4,50 mg - ekv/l$$

### 16-masala

Suvning umumiy qattiqligi  $15^\circ S$  ga teng. Suvning umumiy qattiqligi  $mg\text{-ekv/l}$  larda hisoblansin.

Berilgan:  $J_{um.} = 15^\circ$

Topish kerak:  $J_{um.} = ? mg\text{-ekv/l}$  da hisoblansin.

Yechish: Zamonaviy birlikda suvning qattiqligi  $1mg\text{-ekv/l} = 2,804^\circ$  ga teng. bundan:

$$J_{um.} = \frac{1 \cdot 15}{2,804} = 5,35 mg - ekv/l$$

### 17-masala

250 ml suvda 4,60 mg  $Ca^{+2}$  va 2,40  $Mg^{+2}$  ionlari bor. Suvning umumiy qattiqligi  $mg\text{-ekv/l}$  da va graduslarda hisoblansin.

Berilgan:  $V_{H_2O} = 250ml; C_{Ca^{+2}} = 4,60mg; C_{Mg^{+2}} = 2,40mg$

Topish kerak:  $J_{um.} = ?$

Yechish: Avval 1 l suvdagi  $Ca^{+2}$  va  $Mg^{+2}$  ionlarining miqdorini hisoblaymiz:

$$C_{Ca^{+2}} = \frac{1000 \cdot 4,60}{250} = 18,40 \text{мг/л}$$

$$C_{Mg^{+2}} = \frac{1000 \cdot 2,40}{250} = 9,60 \text{мг/л}$$

1mg-ekv/l 20,04 mg/l  $\text{Ca}^{+2}$  va 12,16 mg/l  $\text{Mg}^{+2}$  ionlariga teng.

Suvning umumiy qattiqligi vaqtincha va doimiy qattiqliklarning yig'indisiga teng:

$$\mathcal{K}_{\text{ym.}} = \frac{C_{\text{Ca}^{+2}}}{20,04} + \frac{C_{\text{Mg}^{+2}}}{12,16}$$

$$\mathcal{K}_{\text{ym.}} = \frac{18,40}{20,04} + \frac{9,60}{12,16} = 0,9182 + 0,7895 = 1,7077 \text{ мг-экв/л}$$

ёку

$$\mathcal{K}_{\text{ym.}} = \frac{2,804 \cdot 1,7077}{1} = 4,788^\circ$$

## 18-masala

50,00 ml 0,0800m ammiak eritmasi 0,1000 m HCl eritmasi bilan titrlangan. Titrlash egri chizig'i qurilsin. Har gal 0,00; 5,00; 35,00; 39,00; 40,00; 41,00; 45,00 ml HCl qo'shilgandan keyingi eritmaning rN qiymati hisoblansin.

Berilgan:

$$V = 50,00 \text{ мл}; \text{NH}_4\text{OH};$$

$$C = 0,0800 \text{ M}; \text{NH}_4\text{OH};$$

$$pK_{\text{NH}_4\text{OH}} = 4,76;$$

$$V_1 = 0,00 \text{ мл}; \text{HCl}$$

$$V_2 = 5,00 \text{ мл};$$

$$V_3 = 20,00 \text{ мл};$$

$$V_4 = 35,00 \text{ мл};$$

$$V_5 = 39,00 \text{ мл}; \text{HCl}$$

$$V_6 = 40,00 \text{ мл};$$

$$V_7 = 41,00 \text{ мл};$$

$$V_8 = 45,00 \text{ мл}; \text{HCl}$$

$$C_0 = 0,1000 \text{ M}; \text{HCl}$$

Topish kerak:  $rN_1 - rN_8 = ?$  Titrlash egri chizig'i qurilsin.

Yechish:  $\text{NH}_4\text{OH} + \text{HCl} \Leftrightarrow \text{NH}_4\text{Cl} + \text{H}_2\text{O}$

Kuchsiz asosning boshlang'ich rN ini quyidagi formula yordamida hisoblaymiz:

$$pH_1 = 14 - \frac{1}{2} pK_{\text{NH}_4\text{OH}} + \frac{1}{2} \lg C;$$

$$pH_1 = 14 - \frac{4,76}{2} + \frac{1}{2} \lg 8,0 \cdot 10^{-2} = 11,07$$

Ammiak eritmasiga HCl ning har xil hajmda qo'shilgandan so'ng aralashmadagi  $\text{NH}_4\text{OH}$  va  $\text{NH}_4\text{Cl}$  larning konsentrasiyalarini quyidagi (4) va (7) formulalar (98-99 betlarga qaralsin) bo'yicha hisoblaymiz:

$$C_2 = \frac{50,00 \cdot 0,0800 - 5,00 \cdot 0,1000}{50,00 + 5,00} = 0,0636 \text{ моль / л} NH_4OH$$

$$C_2 = \frac{50,00 \cdot 0,1000}{50,00 + 5,00} = 0,0091 \text{ моль / л} NH_4Cl$$

$$C_3 = \frac{50,00 \cdot 0,0800 - 20,00 \cdot 0,1000}{50,00 + 20,00} = 0,0286 \text{ моль / л} NH_4OH$$

$$C_3 = \frac{20,00 \cdot 0,1000}{50,00 + 20,00} = 0,0286 \text{ моль / л} NH_4Cl$$

$$C_4 = \frac{50,00 \cdot 0,0800 - 35,00 \cdot 0,1000}{50,00 + 35,00} = 0,0059 \text{ моль / л} NH_4OH$$

$$C_4 = \frac{35,00 \cdot 0,1000}{50,00 + 35,00} = 0,0412 \text{ моль / л} NH_4Cl$$

$$C_5 = \frac{50,00 \cdot 0,0800 - 39,00 \cdot 0,1000}{50,00 + 39,00} = 0,0011 \text{ моль / л} NH_4OH$$

$$C_5 = \frac{39,00 \cdot 0,1000}{50,00 + 39,00} = 0,0438 \text{ моль / л} NH_4Cl$$

Ekvivalent nuqtagacha eritmaning pHini (10)-formula (99 betga qaralsin) yordamida hisoblaymiz:

$$pH_2 = 14 - 4,76 + \lg \frac{0,0636}{0,0091} = 10,08;$$

$$pH_3 = 14 - 4,76 + \lg \frac{0,0286}{0,0286} = 9,24;$$

$$pH_4 = 14 - 4,76 + \lg \frac{0,0059}{0,0412} = 14 - 4,76 - 0,84 = 8,40;$$

$$pH_5 = 14 - 4,76 + \lg \frac{0,0011}{0,0438} = 14 - 4,76 - 1,60 = 7,64$$

Ekvivalent nuqtada eritma pH i quyidagi (11)-formula (99 betga qaralsin) yordamida hisoblanadi:

$$pH_6 = 7 - \frac{4,76}{2} + \frac{1}{2} \lg 0,044 = 7 - 2,38 + 0,68 = 5,30$$

Ekvivalent nuqtadan o'tgandan so'ng eritmaning pH i ortiqcha qo'shilgan HCl ning eritmadi konsentrasiyasi bo'yicha hisoblanadi:

$$C_{H_3O^+} = \frac{41,00 \cdot 0,1000 - 50,00 \cdot 0,08}{41,00 + 50,00} = 0,0011 mol/l (C7)$$

$$pH_7 = -\lg 0,0011 = 2,96$$

$$C_8 = \frac{45,00 \cdot 0,1000 - 50,00 \cdot 0,0800}{45,00 + 50,00} = 0,0053 mol/l (H_3O^+)$$

$$pH_8 = -\lg 0,0053 = 2,28$$

Topilgan natijalarni jadvalga qo'yamiz:

10.1 -jadval

pH	11,07	10,08	9,24	8,40	7,64	5,30	2,96	2,28
V <sub>HCl</sub>	0,00	5,00	20,00	35,00	39,00	40,00	41,00	45,00

### 19-masala

